Yo'lovchi oqimi oshgan holatlardagi yondashuvlarda biri yo'lovchi oqimi oshgan holatlarda transport tizimi quyidagicha moslashuvchanlikni talab qiladi, ya'ni adaptiv bekat tizimi. Bunda yo'lovchi oqimi yuqori bo'lgan bekatlarda bekatdagi avtobus to'xtash vaqti T_f ortadi. Bunday holatda qo'shimcha vositalar ajratish yoki marshrutni qismlarga bo'lish samarali bo'ladi.

Ikkinchisi esa yo'nalishni zichlashtirish. Agar $Q > n \cdot C$, ya'ni har bir transport vositasining maksimal sig'imi yetmay qolsa, transport vositalari soni n oshiriladi yoki "express" (kam bekatli) yo'nalishlar tashkil qilinadi.

Yo'lovchi talabi va oqimi vaqt bo'yicha o'zgarib turgan sharoitlarda (masalan, ertalab va kechki tig'iz soatlar) "pik" davrlarda avtobuslar harakat oralig'i qisqartirilib, qatnovlar




soni ko'paytiriladi, kam yuklama kuzatiladigan vaqtlarda esa harakat jadvali siyraklashtiriladi.

Bekatlarni orasidagi o'rtacha masofa d , va yo'lovchi oqimi Q orasida bog'liqlik mavjud bo'lib, yo'lovchi oqimi masofaga qarab eksponentsial kamayadi va quyidagi (1.5) formula bilan ifodalanadi [5].

$$Q(d) = Q_{\max} \cdot e^{-\alpha d}, \quad (1.5)$$

bunda $Q(d)$ – oraliq masofa d bo'lgan ikki bekat orasidagi yo'lovchi oqimi, α – pasayish koeffitsiyenti (hududga bog'liq).

Gravitatsion model asosida ishlab chiqilgan transport oqimi modellarida foydalaniladigan bu model orqali bekatlar soni va joylashuvi yo'lovchi oqimiga qarab optimallashtiriladi (1-rasm).



1-rasm. Eksponentsial kamayish grafigi.

Qat'iy belgilangan bekatlar bilan tashishni maqsad funksiyasi orqali optimallashtirish mumkin. Yo'lovchi oqimi oshgan holatlarda tizim adaptiv yondashuv talab qiladi. Samaradorlik uchun yo'nalish zichligi, express tarmoq, vaqtga bog'liq jadval, bekat zichligi singari parametrlar optimallashtiriladi [5].

To'xtash bekatlari (oraliq punktlar) orasidagi **optimal masofani aniqlash** - shahar jamoat transporti tizimidagi **asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri** hisoblanadi. Optimal masofa shunday tanlanishi kerakki, **yo'lovchilarga qulaylik, tashish vaqti xarajatlari, va yo'lovchi oqimi o'rtasida muvozanatni ta'minlasin.**

O'rganilayotgan hududda oraliq to'xtash bekatlari ratsional masofa d ni aniqlash uchun (1-jadvalda keltirilgan asosiy mezonlardan foydalanildi).

1-jadval

Oraliq to'xtash bekatlari ratsional masofasini aniqlash mezonlari

№	Mezoni nomi	Izoh
1	Yo'lovchi oqimi $Q(d)$	Masofa ortgani sari kamayadi $Q(d) = Q_{\max} \cdot e^{-\alpha d}$,
2	Tashish vaqti T_{um}	Bekatlarni soni ko'p bo'lsa – ko'p vaqt ketadi $T_{um} = \frac{L}{V} + N \cdot \frac{T_f}{60}$
3	Xarajatlari $C(d)$	Ko'p bekat – ko'p to'xtash, ortiqcha energiya, vaqt va ekspluatatsiya xarajati
4	Yo'lovchilarga qulaylik	Masofa juda katta bo'lsa – odamlar piyoda yurishni istamaydi, bekatlar uzoq

Ma'lum qiymatlarni asos qilib, **optimal masofani** aniqlovchi **maqsad funksiyasi** tuzamiz:

$$\min Z(d) = w_1 \cdot T_{um}(d) + w_2 \cdot C(d) - w_3 \cdot Q(d) \quad (1.6)$$

yoki

$$\max Z(d) = w_3 \cdot Q(d) - w_1 \cdot T_{um}(d) - w_2 \cdot C(d) \quad (1.7)$$

bunda $Z(d)$ – umumiy xarajat, $T_{um}(d)$ – harakatga sarflanadigan **vaqt** (odatda oraliq bekatlar soni ko'payganda ortadi), $C(d)$ – **ekspluatatsion xarajatlari** (yoqilg'i, texnik xizmat, tormoz-tezlik yuklamalari), $Q(d)$ – **yo'lovchilarni** (masofa ortgan sari kamayadi, ammo ijobiy holat sifatida qaraladi), w_1, w_2, w_3 – vazn koeffitsientlari. Bu modelda $Z(d)$ minimalga erishganda d optimal qiymat hisoblanadi.

Hisoblash uchun parametrlar: (2-jadval)

$$L = 6000 \text{ m}, \alpha = 0,5, Q_{\max} = 358 \text{ yo'lovchi},$$


$$w_1 = 0,4, \quad w_2 = 0,2, \quad w_3 = 0,4.$$

2-jadval

Optimal bekatlar oraliq'ini aniqlash uchun maqsad funksiyasini hisoblashda foydalanilgan parametrlar

d, m	$N = L/d$	$Q(d)$	$T_{um}(d)$	$C(d)$	$\max Z(d)$
10	60	218.	0.01	60	87.3–0.004
0		25	0		–12=75.296
20	30	265.	0.00	30	106.38–0.002–6=1
0		95	5		00.378
30	20	294.	0.00	20	117.87–0.0013–4=
0		67	33		113.8687
40	15	312.	0.00	15	125.14–0.001–3=1
0		86	25		22.139
50	12	324.	0.00	12	129.68–0.0008–2.
0		21	2		4=127.279
60	10	331.	0.00	10	132.76–0.0006–2=
0		89	16		130.759
70	8.57	336.	0.00	8.5	134.73–0.0006–1.
0		82	14	7	714=133.0
80	7.5	340.	0.00	7.5	136.19–0.0005–1.
0		48	125		5=134.69
90	6.67	343.	0.00	6.6	137.3–0.0004–1.3
0		22	11	7	34=135.96
100	6	345.	0.00	6	138.13–0.0004–1.
00		32	1		2=136.93

Misolar natijasiga ko'ra $Z(d)$ qiymati ortib bormoqda, bu bekatlar oraliq'ini oshgan sari foyda o'rinishini bildiradi. Ammo bu nazoratsiz to'xtashlarni kamaytirish hisobiga bo'ladi, bu esa xizmat sifati va transport qulayligini pasaytiradi [8]. Bunda oraliq masofa optimal $d=600-700$ metr atrofida keskin o'sishdan keyin barqarorlashadi. Agar ekologik zarar, ortiqcha yoqilg'i sarfi va real vaqt xarajati ham qo'shilsa, **optimal oraliq yana 300-400 metr** oraliq'iga tushadi (2-rasm).



2-rasm. Bekatlar orasidagi masofa bo'yicha foyda funksiyasi

Hisoblash natijalariga ko'ra bekatlar oraliq'ini ortishi bilan avtobusning harakat vaqti qisqaradi, ekspluatatsiya xarajatlari kamayadi. Biroq 700–800 m dan keyin

yo'lovchilarning bekatgacha piyoda yurish masofasi ortishi hisobiga transportdan foydalanish darajasi pasaya boshlaydi. Kompleks baholash natijalariga asosan Termiz shahri sharoiti uchun avtobus bekatlari oralig'ining ratsional masofasi 500–700 m ekanligi aniqlandi. Mazkur masofa transport vositalarining harakat samaradorligi, yo'lovchilar uchun qulaylik va ekspluatatsiya xarajatlari o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlaydi (3-rasm).

Avtobuslar harakatini simulyatsion nazorat qilish quyidagilarni nazorat qilishga imkon yaratadi:

-yo'nalishlar va harakat jadvalini optimallashtirish imkonini beradi;

-yo'lovchi oqimlarini hisobga olgan holda transport resurslarini samarali taqsimlaydi;


-avtobuslar orasidagi interval va kutish vaqtini kamaytiradi;

-tirbandlik va avtobuslarning bir joyga to'planishini (bus bunching) oldini oladi;

-yoqilg'i sarfi va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytiradi;

-turli ssenariylarni real sharoitga yaqin muhitda sinovdan o'tkazishga imkon yaratadi;

-transport tizimining samaradorligi va xizmat sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.



3-rasm Avtobuslar harakatining smulyatsiya jarayoni

3. Xulosa

Taklif etilgan simulyatsiya modeli Termiz shahri jamoat transporti tizimining ishlashini real sharoitlarga yaqin muhitda tahlil qilish imkonini beradi. Model yordamida avtobuslar harakati, yo'lovchi oqimlari, harakat oralig'i hamda yo'nalishlarning o'zaro ta'siri kompleks baholanadi. Simulyatsiya natijalari Termiz shahri avtobus yo'nalishlari tarmog'ida transport resurslaridan oqilona foydalanish, harakat jadvalini optimallashtirish, yo'lovchilar kutish vaqtini kamaytirish hamda transport tizimining iqtisodiy va ekspluatatsion samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] LI Xiaowei WANG Wei· XU Chengcheng LI Zhibin WANG Baojie. Multi-Objective Optimization of Urban Bus Network. Using Cumulative Prospect Theory. 2015. 28: 661–678 pp. DOI: 10.1007/s11424-015-2049-0
- [2] Mirotin L. B. Shahar yo'lovchi transportining marshrut tizimlarini modellashtirish. Moskva: Akademikotbi, 2009. 240 s.
- [3] Rose, J.M. and Martínez, F.J. (2007), "Towards a Land-Use and Transport Interaction Framework", Hensher, D.A. and Button, K.J. (Ed.) Handbook of Transport Modelling (, Vol. 1), Emerald Group Publishing Limited, Leeds, pp. 181-201. <https://doi.org/10.1108/9780857245670-009>
- [4] Spirin I.V. Shahar yo'lovchi tashishlarini tashkil etish va boshqarish. - Sankt-Peterburg: Politehnika, 2011 Yil. 198 b.
- [5] [5] Ties Brands, Eric de Romph, Tim Veitch, Jamie Cook. Modelling public transport route choice with multiple access and egress modes. // Transportation Research Procedia, Volume 10, 2015, Pages 358–367. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2352146514000040>
- [6] Wilson, A.G. (1967). A statistical theory of spatial distribution models. Transportation Research, 1(3), 253–269.
- [7] Kuziyev A.U., Komilov A.L. Hudud jamoat transporti xizmatlarining sifat ko'rsatkichlari tahlili va ularni yaxshilash usullari. Logistika va iqtisodiyot. 2021-y. III-son. 192-197. b.
- [8] Kuziyev A.U., Komilov A.L. Termiz shahar avtobus marshrut ko'cha-yo'l tarmog'i xususiyatlarini aniqlash va tahlil etish. volume 6, Issue 3, 2025. <file:///C:/Users/user/Downloads>

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Komilov A'zamjon Lutfullayevich / Azamjon Komilov

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti "Transport muhandisligi va logistika" kafedrasida assistenti

Email: azamjon.komilov88@gmail.com

Tel.: +998912374841

<https://orcid.org/0009-0006-2656-3954>

Kuziyev Abdumurot Urokovich / Abdumurot Kuziev


Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti "Transport muhandisligi va logistika" kafedrasida professori, t.f.d. (DSc)

Email:

abdumurot.qoziyev.67@bk.ru

Tel.: +998915811324

<https://orcid.org/0000-0002-8121-8030>



Modified arbolite concrete based on reduced treatment waste: Composition analysis, disadvantages and technological solution

V.M. Soy¹^a, Sh.G. Eshbekov¹^b, A.O. Jumageldiev¹^c, J.A. Turgayev²^d

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

²Karakalpak state university, Karakalpakstan, Uzbekistan

Abstract:

The article reviews the main existing compositions of arbolite concretes used as thermal insulation, structural-heat insulation and structural materials. It is shown that traditional arbolite based on wood chips has a low average density and good thermal insulation properties. However, its operational reliability is limited by the instability of the properties of organic filler, high water absorption, poor adhesion in the contact zone between the plant filler and cement stone, and the negative effect of water-soluble sugars, extractives and organic acids on cement hydration. As a technological solution, a modified arbolite concrete composition using licorice processing waste is proposed. A scheme for the preparation and mineralization of licorice waste has been developed, which includes the stages of washing, dehydration, drying, fractionation, alkaline-calcium treatment and surface mineralization. The proposed approach aims to increase the adhesion of the organic filler to the cement matrix, reduce water absorption, and reduce the loss of strength caused by chemical impurities in plant raw materials.

Keywords:

arbolite, arbolite concrete, lightweight concrete, organic filler, wood-cement composite, licorice root, licorice processing waste, mineralization, adhesion, cement matrix

Qizilmiya qayta ishlash chiqindilari asosida modifikatsiyalangan arbolitbeton: Tarkiblar tahlili, kamchiliklar va texnologik yechim

Soy V.M.¹^a, Eshbekov Sh.G.¹^b, Jumageldiev A.O.¹^c, Turgayev J.A.²^d

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

²Qoraqalpog' davlat universiteti, Qoraqalpog'iston Respublikasi, O'zbekiston

Annotatsiya:

Maqolada issiqlik izolyatsion, konstruktiv-issiqlik izolyatsion va konstruktiv materiallar sifatida qo'llaniladigan arbolitbetonlarning asosiy mavjud tarkiblari ko'rib chiqilgan. Yog'och qirindilari asosidagi an'anaviy arbolit past o'rtacha zichlik va yaxshi issiqlik izolyatsion xossalarga ega ekani ko'rsatilgan. Biroq uning ekspluatatsion ishonchiligi organik to'ldirgich xossalarining beqarorligi, yuqori suv shimuvchanlik, o'simlik to'ldirgichi va sement toshi orasidagi kontakt zonada adgeziyaning sustligi hamda suvda eruvchan shakarlar, ekstraktiv moddalar va organik kislotalarning sement gidratatsiyasiga salbiy ta'siri bilan cheklanadi. Texnologik yechim sifatida qizilmiya qayta ishlash chiqindilaridan foydalanilgan modifikatsiyalangan arbolitbeton tarkibi taklif etilgan. Qizilmiya chiqindilarini tayyorlash va mineralizatsiya qilish sxemasi ishlab chiqilgan bo'lib, u yuvish, suvsizlantirish, quritish, fraksiyalash, ishqoriy-kalsiyli ishlov berish va yuzani mineralizatsiya qilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Taklif etilgan yondashuv organik to'ldirgichning sement matritsasi bilan adgeziyasini oshirish, suv shimuvchanlikni kamaytirish hamda o'simlik xomashyosidagi kimyoviy aralashmalar tufayli yuzaga keladigan mustahkamlik yo'qotilishini pasaytirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar:

arbolit, arbolitbeton, yengil beton, organik to'ldirgich, yog'och-sement kompoziti, qizilmiya jomi, qizilmiya qayta ishlash chiqindilari, mineralizatsiya, adgeziya, sement matritsasi

1. Kirish

Arbolitbeton organik to'ldirgichli yengil betonlar guruhiga kiradi va unda mineral bog'lovchi o'simlik kelib chiqishiga ega zarrachalarni yagona g'ovak strukturaga birlashtiradi. Og'ir beton bilan solishtirganda arbolitning o'rtacha zichligi va issiqlik o'tkazuvchanligi past bo'lib, u

harorat hamda namlik ta'sirlarini yumshatish qobiliyatiga ega. Shu sababli u kam qavatli qurilish, devor bloklari, issiqlik izolyatsion plitalar va energiya samarador to'suvchi konstruksiyalar uchun qiziqish uyg'otadi.

Me'yoriy va ilmiy-texnik amaliyotda arbolit sement bog'lovchi va organik to'ldirgich asosidagi material sifatida qaraladi. Zichlik va mustahkamlikka qarab u issiqlik

^a <https://orcid.org/0009-0002-5945-2565>

^b <https://orcid.org/0009-0004-4916-2577>

^c <https://orcid.org/0009-0004-3686-5695>

^d <https://orcid.org/0000-0003-2483-9727>



izolyatsion, konstruktiv-issiqlik izolyatsion yoki konstruktiv material sifatida qo'llanilishi mumkin [1]. Shu bilan birga, arbolitbeton sifati faqat sement sarfi va to'ldirgich turiga emas, balki organik xomashyoning sement tizimi bilan kimyoviy mosligiga ham bog'liq.

Suvda eruvchan shakarlar, organik kislotalar, tanninlar, saponinlar va boshqa ekstraktiv birikmalarni o'z ichiga olgan o'simlik chiqindilaridan foydalanish alohida muammo hisoblanadi. Bunday komponentlar sementning qotishini sekinlashtirishi, kalsiy gidrosilikatlarining shakllanishiga to'sqinlik qilishi va sement toshi mustahkamligini kamaytirishi mumkin [2, 3]. Shu sababli oldindan modifikatsiyalangan organik to'ldirgichga ega arbolitbeton tarkiblarini ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Ushbu maqolada qizilmiya ildizi va stolonlarini qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilar istiqbolli to'ldirgich sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu chiqindi lignosellyulozali tabiatga va tolali tuzilishga ega bo'lib, qurilish kompozitida yengil organik komponent sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq sement matritsasida qo'llash uchun u maxsus tayyorlash va yuzaviy mineralizatsiya bosqichlaridan o'tkazilishi zarur.

Adabiyotlar tahlili

Klassik arbolitbeton portlandsement, organik to'ldirgich, suv va kimyoviy mineralizatsiyalovchi

qo'shimchalardan iborat. An'anaviy ravishda to'ldirgich sifatida ignabargli yoki bargli daraxt qirindilari, yog'ochni qayta ishlash chiqindilari, yog'och tolasi, qipiqalar, zig'ir poyasi qoldiqlari, guruch qobig'i, somon, paxta poyasi massasi va boshqa o'simlik materiallari ishlatiladi. To'ldirgich tanlovi yakuniy materialning zichligi, issiqlik o'tkazuvchanligi, mustahkamligi, suv shimuvchanligi va chidamliligiga ta'sir ko'rsatadi.

Vazifasiga ko'ra arbolitbetonlarni bir necha guruhga ajratish mumkin: issiqlik izolyatsion, konstruktiv-issiqlik izolyatsion, konstruktiv, yog'och-sement plita materiallari, g'ovaklashtirilgan arbolit aralashmalari hamda muqobil bog'lovchilar asosidagi kompozitlar. Har bir guruh o'z afzalliklari va cheklovlariga ega. Eng keng tarqalgan tur yog'och qirindili sement asosidagi arbolit bo'lib, u xomashyoning mavjudligi, texnologik soddalik va nisbatan past issiqlik o'tkazuvchanligini birlashtiradi.

Yog'och-sement kompozitlari bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar organik to'ldirgichni oldindan ishlov berish va mineral qo'shimchalardan foydalanish barqaror xossalar olishning zarur sharti ekanini ko'rsatadi [4]. Bunday ishlovsiz organik komponentlar sement gidratatsiyasini yomonlashtirishi va mustahkamlik ko'rsatkichlarining tarqoqligiga olib kelishi mumkin.

1-jadval

Mavjud arbolitbeton tarkiblarini tizimlashtirish

Tarkib turi	Asosiy komponentlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Klassik yog'ochli arbolit	Portlandsement, yog'och qirindisi, suv, CaCl ₂ yoki boshqa mineralizatorlar	Past zichlik, yaxshi issiqlik izolyatsiyasi, xomashyoning mavjudligi	Shakarlar va ekstraktiv moddalarning ta'siri, yuqori suv talabi, zaif kontakt zona
Mineral qo'shimchali arbolit	Sement, qirindi, uchuvchi kul, shlak, mikroremnezyom, qum	Sement matritsasining zichlashishi, mustahkamlik va suvga chidamlilikning oshishi	Zichlikning ortishi, tarkib tanlashning murakkablashishi
G'ovaklashtirilgan arbolit	Sement, organik to'ldirgich, ko'pik hosil qiluvchi yoki havo jalb qiluvchi qo'shimcha	Massa va issiqlik o'tkazuvchanlikning kamayishi	Haddan tashqari g'ovaklikda mustahkamlik pasayishi xavfi
Qishloq xo'jaligi chiqindilari asosidagi arbolit	Somon, poya qoldiqlari, guruch qobig'i, paxta poyasi va boshqalar	Mahalliy xomashyodan foydalanish va ekologik samara	Tarkibning yuqori geterogenligi; chiqindini chuqur tayyorlash zarurati
Yog'och-sement plitalar va panellar	Yog'och tolasi, tolalar, sement yoki aralash bog'lovchi	Yaxshi akustik va issiqlik izolyatsion xossalar	Qo'llanish sohasi cheklangan va qoliplash talablari yuqori
Muqobil bog'lovchili arbolit	Magnezial, gipsli, shlak-ishqorli yoki aralash bog'lovchilar	Organik to'ldirgich bilan moslikni yaxshilash imkoniyati	Namlikka sezgirlik, standartlashtirish va sifat nazoratining murakkabligi

Arbolitbetonning asosiy texnologik kamchiligi organik to'ldirgichning sement toshi bilan mos kelmasligidir. O'simlik xomashyosi kapillyar-g'ovak tuzilishga ega va sement gidratatsiyasini susaytirishi mumkin bo'lgan suvda eruvchan moddalarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa eruvchan shakarlar va gemisellyuloza parchalanish mahsulotlari zararli bo'lib, ular dastlabki mustahkamlikning shakllanishini kechiktiradi va qotish vaqtini uzaytiradi.

Ikkinchi muhim kamchilik zaif oraliq kontakt zona bilan bog'liq. Yog'och qirindilari yoki boshqa o'simlik to'ldirgichi yuzasi ko'pincha sement xamiri bilan yetarlicha namlanmaydi. Organik zarracha va sement matritsasi orasida kapillyar g'ovaklarga boy bo'shashgan o'tish zonasi hosil bo'ladi. Natijada siqilish va egilishdagi mustahkamlik pasayadi, suv shimuvchanlik ortadi hamda sovuqqa chidamlilik yomonlashadi.

Uchinchi muammo organik to'ldirgichning o'ziga xos beqarorligidir. Arbolitbeton xossalariga o'simlik turi, xomashyoning yoshi, namligi, maydalash darajasi, po'stloq va chang fraksiyasi miqdori, yig'ish mavsumi, saqlash sharoitlari va chiqindining kimyoviy tarkibi ta'sir ko'rsatadi. Hatto sement sarfi bir xil bo'lganda ham turli to'ldirgich partiyalari turlicha mustahkamlik berishi mumkin.

To'rtinchi cheklov sement sarfining ortishidir. Organik karkasning past mustahkamligi va zaif adgeziyani kompensatsiya qilish uchun ishlab chiqaruvchilar ko'pincha sement miqdorini oshiradilar. Bu material tannarxini ko'taradi va ekologik samarani kamaytiradi. Shuning uchun arbolitbetonni zamonaviy rivojlantirish bog'lovchi sarfini oddiy oshirishga emas, balki organik to'ldirgich yuzasini boshqarish va oraliq kontakt zonani zichlashtirishga qaratilishi lozim.



2. Tadqiqot metodologiyasi

Qizilmiya qayta ishlash chiqindilari biologik faol moddalar, jumladan glitsirizin ajratib olingandan keyin qoladigan qizilmiya ildizi va stolonlari qoldiqlaridan iborat. Ushbu chiqindini shartli ravishda qizilmiya jomi deb atash mumkin. Tabiatiga ko'ra u sellyuloza, gemisellyuloza, lignin va qoldiq ekstraktiv moddalarni o'z ichiga olgan lignosellyulozal materialdir [5].

Qizilmiya jomining arbolitbeton uchun istiqboliligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu ikkilamchi xomashyo bo'lib, undan foydalanish organik chiqindilar hajmini kamaytiradi. Ikkinchidan, chiqindining tolali tuzilishi yengil to'ldirgich va qisman armaturalovchi komponent vazifasini bajarishi mumkin. Uchinchidan, qizilmiya qayta ishlash sanoat ahamiyatiga ega hududlarda

bunday chiqindi yengil devorbop materiallar ishlab chiqarish uchun mahalliy xomashyo bazasiga aylanishi mumkin.

Shu bilan birga, ishlov berilmagan qizilmiya chiqindisini sement aralashmasiga bevosita kiritish texnologik jihatdan xavflidir. Qoldiq shakarlar, saponinlar, fenolli moddalar, tuzlar va organik kislotalar sement gidratatsiyasini sekinlashtirishi, suv talabini oshirishi va mustahkamlikni kamaytirishi mumkin. Shu sababli qizilmiya jomi qo'llashdan oldin yuvilishi, fraksiyalarga ajratilishi va mineralizatsiya qilinishi zarur.

Taklif etilgan tarkib konstruktiv-issiqlik izolyatsion arbolitbetonlar guruhiga kiradi va M500 portlandsementi, modifikatsiyalangan qizilmiya jomi, mayda dispers mineral qo'shimchalar hamda kompleks mineralizatsiya tizimidan foydalanishni nazarda tutadi. Tarkib loyihaviy-laboratoriya varianti bo'lib, chiqindining haqiqiy namligi, to'kilma zichligi va kimyoviy faolligiga qarab aniqlashtirilishi kerak.

2-jadval

1 m³ aralashma uchun arbolitbetonning loyihaviy tarkibi

Komponent	Taxminiy sarf	Funksional vazifasi
M500 portlandsement	360–390 kg	Asosiy mineral bog'lovchi
Modifikatsiyalangan qizilmiya jomi, quruq massa	150–180 kg	Yengil organik to'ldirgich va tolali karkas
0–2 mm kvars qumi	60–90 kg	Granulometrik barqarorlashtirish va kirishishni kamaytirish
Uchuvchi kul yoki maydalangan granullangan domna shlaki	30–50 kg	Puzzolan qo'shimcha va matritsani zichlashtirish
Mikrokremnezyom	8–15 kg	Kontakt zonani zichlashtirish va adgeziyani yaxshilash
Kalsiy xlorid	sement massasining 1,5–2,0 %	Gidratatsiyani tezlashtirish va organik moddalarning susaytiruvchi ta'sirini kamaytirish
Suyuq shisha	sement massasining 1,0–1,5 %	Organik to'ldirgich yuzasini mineralizatsiya qilish
Superplastifikator	bog'lovchi massasining 0,5–0,8 %	Aralashmaning suv talabini kamaytirish
Suv	250–300 l	To'ldirgich namligini hisobga olgan holda qoliplanuvchan aralashma olish

Metall qo'yilma detallari mavjud bo'lgan mahsulotlarda xloridli qo'shimchalardan foydalanish cheklanishi lozim. Bunday holatda xloridsiz mineralizatsiya tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq: sement massasining 2,0–3,0 % miqdorida alyuminiy sulfati, quruq chiqindi massasining 2,0–3,0 % miqdorida kalsiy gidroksidi va sement massasining 1,0–1,5 % miqdorida suyuq shisha. Bunday tizim metallning xloridli korroziyasi xavfisiz eruvchan organik birikmalar ta'sirini kamaytirish imkonini beradi.

Texnologik optimallashtirishdan keyin materialning kutiladigan o'rta zichligi D600–D750 oralig'ida bo'lishi mumkin. Konstruktiv-issiqlik izolyatsion qo'llanish uchun taxminiy siqilishdagi mustahkamlik M25–M35 darajasiga mos kelishi mumkin, biroq ushbu qiymatlar loyihaviy yo'naltiruvchi ko'rsatkichlar bo'lib, tajribaviy tasdiqlashni talab qiladi.

Qizilmiya chiqindisini modifikatsiyalash uchta o'zaro bog'liq vazifani hal qilishi kerak: suvda eruvchan aralashmalar miqdorini olib tashlash yoki kamaytirish; qoldiq organik kislotalar va saponin birikmalarini neytrallashtirish; tolalar yuzasida sement toshi bilan mos keladigan mineral qobiq hosil qilish.

Birinchisi bosqichda chiqindi suv bilan yuviladi. Eruvchan shakarlar, tuzlar va ekstraktiv moddalarning bir

qismini olib tashlash uchun issiq yuvish afzal hisoblanadi. Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra, suv bilan takroriy yuvish sikllari qizilmiya chiqindisidan nisbatan toza o'simlik tolalarini olish imkonini beradi; harorat oshishi zarur sikllar sonini kamaytiradi [6]. Ishlab chiqarish sharoitida 60–80 °C da 3–4 marta yuvish siklini qabul qilish, bunda yuvindi suvning pH va elektr o'tkazuvchanligini nazorat qilish maqsadga muvofiq.

Yuvilgandan so'ng chiqindi mexanik siqish, quritish va fraksiyalashga yuboriladi. Arbolitbeton uchun 5–25 mm fraksiya maqsadga muvofiq. Changga o'xshash zarralar olib tashlanishi kerak, chunki ular suv talabini oshiradi va struktura bir xilligini yomonlashtiradi. Haddan tashqari yirik tolali qo'shimchalar ham nomaqbul: ular aralashma qatlamlanishiga olib keladi va qoliplashni qiyinlashtiradi.


Keyingi bosqich ishqoriy-kalsiyli ishlov berish bo'lib, u quruq chiqindini eritmaga oddiy ivitish shaklida emas, balki kurakli yoki barabanli aralashtirgichda nazorat qilinadigan operatsiya sifatida bajarilishi lozim. Issiq yuvish, siqish, quritish va fraksiyalashdan keyin qizilmiya jomi namligi bo'yicha oldindan konditsiyalanadi. So'ngra zarrachalarga quruq chiqindi massasining 2,0–3,0 % miqdorida Ca(OH)₂ ohak suti purkaladi, 5–7 daqiqa aralashtiriladi va yopiq bunkerda 12–24 soat saqlanadi. Bunday tutib turish kislotali

komponentlarni neytrallash, tolalar yuzasida kalsiyni qisman biriktirish va organik to'ldirgich namligini tenglashtirish uchun zarur.

Yuzaviy mineralizatsiya konsentrlangan CaCl_2 eritmaları va suyuq shishani bevosita ketma-ket aralashtirish emas, balki yupqa mineral qobiq hosil qilish jarayoni sifatida qaralishi kerak. Ularning to'g'ridan-to'g'ri kontakti zarrachalarni notekis qoplaydigan dag'al kalsiy-silikat cho'kmasining tez hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli suyuq shisha suyultirilgan holda yoki mikrokremsnezyomli sement-silikat suspenziyasi tarkibida qo'llanishi, CaCl_2 esa asosan qorishma suvi bilan kiritilishi yoki mineralizatsiya bosqichida past konsentratsiyada purkalishi lozim. Metall qo'yilmaları bo'lgan mahsulotlar uchun alyuminiy sulfati yoki boshqa qotishni tezlashtiruvchi qo'shimcha asosidagi xloridsiz tizim maqsadga muvofiqroq.

Realistik mineralizatsiya ketma-ketligi: yuvilgan va siqilgan qizilmiya jomi → 10–15 % gacha quritish → 5–20 mm gacha fraksiyalash va <1 mm changni olib tashlash → 18–22 % namlikgacha konditsiyalash → $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ohak sutini purkash va aralashtirish → 12–24 soat tutib turish → suyultirilgan suyuq shisha yoki mikrokremsnezyomli sement-silikat suspenziyasini surtish → yupqa qobiq hosil qilish uchun quruq mineral material bilan changlatish → 15–20 % namlikda barqarorlashtirish → arbolitbeton aralashmasiga kiritish.

Mineral qism tarkibiga mikrokremsnezyomni qo'shimcha kiritish kontakt zonani zichlashtirishga qaratilgan. Mayda dispers kremsnezyom sement toshi va organik to'ldirgich orasidagi mikrog'ovaklarni to'ldiradi hamda kalsiy gidroksidi bilan puzzolan reaksiyada ishtirok etadi. Bu kapillyar g'ovaklikni kamaytiradi va arbolitbetonning suvga chidamliligini oshiradi.



Eslatma: suyuq shisha dastlabki kalsiylı ishlov va oldindan quritishdan keyin kiritiladi; CaCl_2 ning konsentrlangan eritmaları va suyuq shisha eritmaları bevosita aralashtirilmaydi.

1-rasm. Arbolitbeton uchun qizilmiya ishlab chiqarish chiqindilarni tayyorlash va mineralizatsiya sxemasi

3. Natijalar va muhokama

Qizilmiya chiqindisi asosidagi arbolitbeton ishlab chiqarish texnologik jarayoni ikki oqimli sxema sifatida tashkil etilishi lozim: modifikatsiyalangan organik to'ldirgich alohida tayyorlanadi, aralashmaning mineral qismi esa alohida dozalanadi. Bunday yondashuv ancha real hisoblanadi, chunki u chiqindi namligini, eruvchan aralashmalarning olib tashlanish darajasini, fraksion tarkibni, mineralizator dozalarini va qorishma suvini kiritish tartibini nazorat qilish imkonini beradi. Aralashma majburiy ta'sirli aralashtirgichda tayyorlanadi, zichlash intensivligi esa organik karkasni buzmaslik va qatlamlanishga olib kelmaslik uchun cheklanadi.

Taklif etilgan sxema to'rtta texnologik blokni o'z ichiga oladi. Birinchi blok qizilmiya jomini ekstraksiyadan keyin qabul qilish, saralash, issiq suvda yuvish va mexanik suvsizlantirish bilan bog'liq. Yuvish formal operatsiya emas; u yuvindi suvning pH va elektr o'tkazuvchanligi barqarorlashguncha olib boriladi, chunki eruvchan shakarlar, tuzlar va ekstraktiv moddalar sementning normal

gidratatsiyasiga eng kuchli xalaqit beradigan komponentlardir.


Ikkinchi blok o'rtacha haroratda quritish, maydalash, fraksiyalash, chang fraksiyasini olib tashlash va dastlabki kimyoviy barqarorlashtirishni o'z ichiga oladi. Amaliy jihatdan 5–20 mm fraksiyadan foydalanish maqsadga muvofiq; mayda chang suv talabini keskin oshiradi, haddan tashqari uzun tolalar esa qoliplashni yomonlashtiradi. Ohak sutini bilan ishlov berishdan oldin to'ldirgich nazorat qilinadigan namlikka ega bo'lishi kerak, shunda eritma yuzadan shunchaki oqib ketmaydi, balki tolalar bo'yab bir tekis tarqaladi.

Uchinchi blok oddiy shimdirishni emas, balki zarracha yuzasida yupqa mineral qobiq hosil qilishni nazarda tutadi. Buning uchun suyultirilgan suyuq shisha yoki mikrokremsnezyomli sement-silikat suspenziyasi ishlatiladi; so'ng to'ldirgich quruq mineral komponentning bir qismi bilan changlatiladi. Ushbu operatsiya suv shimuvchanlikni kamaytiradi, sement xamiri bilan namlanishni yaxshilaydi va qoldiq organik moddalarning sement g'ovak eritmasiga chiqishini pasaytiradi.



To'rtinchi blok arbolitbeton aralashmasini tayyorlash, qoliplash, yumshoq vibrozichlash yoki presslash, namlikni saqlovchi qoplama ostida dastlabki qotirish va 28 kungacha keyingi saqlashni o'z ichiga oladi. Eng real aralashtirish tartibi quyidagicha: modifikatsiyalangan to'ldirgich suvning

bir qismi va plastifikatsiyalovchi qo'shimcha bilan aralashiriladi; keyin quruq mineral qism kiritiladi; shundan so'ng qoliplanuvchanlik talabiga muvofiq qolgan suv miqdori sozlanadi. Bunday tartib organik zarrachalarning sement xamiri bilan bir tekis qoplanishini ta'minlaydi.



2-rasm. Qizilmiya ishlab chiqarish chiqindilari asosida modifiyatsiyalangan arbolitbeton olishning texnologik sxemasi

Modifikatsiyalangan arbolitbetonda mustahkamlikni oshirish mexanizmi organik aralashmalarning salbiy ta'sirini ketma-ket kamaytirish va oraliq kontakt zonani mustahkamlashga asoslanadi. Issiq suvda yuvish eruvchan shakarlar, tuzlar va ekstraktiv moddalarning bir qismini kamaytiradi. Bu sement gidratatsiyasining sekinlashish ehtimolini pasaytiradi va dastlabki mustahkamlikning barqarorroq shakllanishiga yordam beradi.

Ishqoriy-kalsiyli ishlov berish yuzani kimyoviy barqarorlashtirish vazifasini bajaradi. Kalsiy gidroksidi kislotali komponentlarni qisman neytrallaydi, yuzani kalsiy ionlari bilan to'yintiradi va silikatli mineralizator bilan o'zaro ta'sirga tayyorlaydi. Keyingi suyuq shisha yoki silikat komponenti bilan ishlov berish organik to'ldirgichning adgeziyon faolligini oshiruvchi mineral qobiq hosil qiladi.

Mineral qobiq qizilmiya jomining suv shimuvchanligini kamaytiradi va qoldiq organik moddalarning sement xamiriga migratsiyasini pasaytiradi. Natijada sement matritsasi bir tekisroq qotadi, o'tish zonasi esa kamroq bo'shashgan bo'ladi. Mikrokremsnezyom kiritilganda g'ovak tuzilma qo'shimcha ravishda zichlashadi, bu materialning mustahkamligi, suvga chidamliligi va uzoq muddatli xizmat xossalari ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, taklif etilgan tarkib an'anaviy arbolitdan nafaqat to'ldirgich turi bilan, balki o'simlik xomashyosini tayyorlash prinsipi bilan ham farq qiladi. Asosiy g'oya shundan iboratki, organik chiqindi sement matritsasiga boshlang'ich holatida emas, balki maqsadli tozalash va mineralizatsiyadan keyin kiritilishi kerak.

4. Xulosa

Tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud arbolitbeton tarkiblari energiya samarador va kam qavatli qurilish uchun katta imkoniyatlarga ega, biroq ularning keng qo'llanilishi organik to'ldirgich tabiatiga bog'liq cheklorlar bilan izohlanadi. Eng xarakterli kamchiliklar sement toshi va o'simlik to'ldirgichi orasidagi zaif adgeziya, yuqori suv shimuvchanlik, xomashyo beqarorligi hamda suvda eruvchan shakarlar va ekstraktiv moddalarning sement gidratatsiyasiga salbiy ta'siridir.

Istiqbolli xomashyo yechimi sifatida qizilmiya qayta ishlash chiqindilaridan foydalanish taklif etiladi. Qizilmiya jomi to'liq tuzilishga ega lignosellyulozali material bo'lib, yengil organik to'ldirgich vazifasini bajarishi mumkin. Biroq mustahkamlikni kamaytirishi va qotishni sekinlashtirishi mumkin bo'lgan qoldiq organik birikmalar mavjudligi sababli uni sement tizimida bevosita qo'llash maqsadga muvofiq emas.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun qizilmiya chiqindisini tayyorlash va modifikatsiyalash texnologik sxemasi ishlab chiqildi. U yuvish, suvsizlantirish, quritish, fraksiyalash, ishqoriy-kalsiyli ishlov berish va yuzaviy mineralizatsiya bosqichlarini o'z ichiga oladi. Taklif etilgan sxema sement matritsasi bilan adgeziyani oshirish, organik to'ldirgichning suv shimuvchanligini kamaytirish va kimyoviy aralashmalarning salbiy ta'sirini pasaytirishga qaratilgan.

M500 portlandsementi, modifikatsiyalangan qizilmiya jomi, uchuvchi kul yoki shlak, mikroremnezyom, suyuq shisha va kalsiyli mineralizator asosidagi taklif etilgan tarkib ekologik samarali konstruktiv-issiqlik izolyatsion arbolitbeton olish uchun asos sifatida qaralishi mumkin. Yondashuvning ilmiy yangiligi qizilmiya qayta ishlash chiqindisini passiv to'ldirgich sifatida emas, balki sement toshi bilan mosligi yaxshilangan oldindan modifikatsiyalangan organomineral komponent sifatida ishlatishda namoyon bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] GOST 19222-2019. Arbolit va undan tayyorlangan mahsulotlar. Umumiy texnik shartlar.
- [2] Karade S.R. Cement-bonded composites from lignocellulosic wastes // Construction and Building Materials. 2010. Vol. 24(8). P. 1323-1330. DOI: 10.1016/j.conbuildmat.2010.02.003.
- [3] Moslemi A.A., Garcia J.F., Hofstrand A.D. Effect of Various Treatments and Additives on Wood-Portland Cement-Water Systems // Wood and Fiber Science. 1983. Vol. 15(2). P. 164-176.
- [4] Brahmia F.Z., Horvath P.G., Alpar T.L. Effect of pre-treatments and additives on the improvement of cement wood composite: A review // BioResources. 2020. Vol. 15(3). P. 7288-7308.
- [5] Santulli C., Rallini M., Puglia D., Gabrielli S., Torre L., Marcantoni E. Characterization of Licorice Root Waste for Prospective Use as Filler in more Eco-Friendly Composite Materials // Processes. 2020. Vol. 8(6). Article 733. DOI: 10.3390/pr8060733.
- [6] Madeo L., Macario A., Candamano S., De Luca P. Recovery of Vegetable Fibers from Licorice Processing

Waste and a Case Study for Their Use in Green Building Products // Clean Technologies. 2025. Vol. 7(3). Article 55. DOI: 10.3390/cleantechnol7030055.

[7] Vaickelionis G., Vaickelioniene R. Cement hydration in the presence of wood extractives and pozzolan mineral additives // Ceramics-Silikaty. 2006. Vol. 50(2). P. 115-122.

[8] Na B., Wang Z., Wang H., Lu X. Wood-cement compatibility review // Wood Research. 2014. Vol. 59(5). P. 813-826.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Soy Vladimir Mikhailovich / Vladimir Soy	Toshkent davlat transport universiteti, professor (DSc) E-mail: volodya_tsoy@inbox.ru https://orcid.org/0009-0002-5945-2565
Eshbekov Shukhrat Gadoymurotovich / Shukhrat Eshbekov	Toshkent davlat transport universiteti, assistant E-mail: sh.eshbekov77@gmail.com https://orcid.org/0009-0004-4916-2577
Jumageldiev Aziz Olimovich / Aziz Jumageldiev	Toshkent davlat transport universiteti universiteti magistranti E-mail: jumageldiyeveziz@gmail.com
Turgayev Janbul Adilbaevich / Janbul Turgayev	Qoraqalpoq davlat universiteti, professor (DSc) E-mail: jambulturgayev46@gmail.com https://orcid.org/0000-0003-2483-9727



Economic assessment of the impact of thematic tourist routes on the development of the regional tourism services market

N.S. Sarvirova¹^a, D.Y. Tajibaev¹^b, Z.B. Kamoliddinov¹^c

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article examines the economic impact of thematic tourist routes on the development of the regional tourism services market. The relevance of the study is determined by the need to assess a route not only as a sequence of tourist attractions, but also as a complex tourist product that generates additional demand for transport, accommodation, catering, excursion support and related services. The aim of the study is to justify an approach for evaluating the economic effect of implementing thematic routes in a region. The proposed approach is based on determining the baseline tourist flow, scenario-based growth, average tourist expenditure and additional volume of tourism services. The scientific significance of the study lies in interpreting thematic routes as an economic and service-oriented instrument for regional development. The practical significance consists in the possibility of using the proposed approach by tourism authorities, travel companies and service providers when forecasting the economic outcomes of thematic route development.

Keywords: thematic tourist route, tourist flow, regional services market, economic efficiency, tourism services, economic effect

Экономическая оценка влияния тематических туристских маршрутов на развитие регионального рынка туристских услуг

Сарвирова Н.С.¹^a, Тажибаев Д.Е.¹^b, Камолитдинов З.Б.¹^c

¹Ташкентский государственный транспортный университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье рассматривается экономическое влияние тематических туристских маршрутов на развитие регионального рынка туристских услуг. Актуальность исследования определяется необходимостью оценки маршрута не только как схемы посещения туристских объектов, но и как комплексного туристского продукта, формирующего дополнительный спрос на транспорт, размещение, питание, экскурсионное сопровождение и другие сервисные услуги. Целью исследования является обоснование подхода к оценке экономического эффекта от внедрения тематических маршрутов в регионе. В работе предложена расчётная логика, основанная на определении базового туристского потока, сценарного прироста, среднего объёма расходов одного туриста и дополнительного объёма туристских услуг. Научная значимость исследования заключается в рассмотрении тематического маршрута как экономико-сервисного инструмента развития региональной экономики. Практическая значимость состоит в возможности использования предложенного подхода органами управления туризмом, туристскими компаниями и сервисными предприятиями при прогнозировании экономического результата от развития тематической маршрутизации.

Ключевые слова: тематический туристский маршрут, туристский поток, региональный рынок услуг, экономическая эффективность, туристские услуги, экономический эффект

1. Введение

Развитие регионального туризма в современных условиях всё в большей степени связано не только с наличием туристских объектов, но и с возможностью их включения в экономически результативные туристские продукты. Отдельные объекты культурного, исторического, археологического, экологического или

этнографического значения сами по себе не всегда обеспечивают устойчивый туристский поток и достаточный уровень потребления туристских услуг. Их экономическая значимость возрастает тогда, когда они объединяются в тематические туристские маршруты, способные формировать спрос на транспорт, размещение, питание, экскурсионное сопровождение,

^a <https://orcid.org/0009-0008-9683-8321>

^b <https://orcid.org/0009-0007-9032-5114>

^c <https://orcid.org/0009-0001-8264-2183>



услуги гидов, информационное обеспечение и другие элементы регионального рынка услуг.

Для регионов с пространственно разобщёнными туристскими объектами данная проблема имеет особую актуальность. В таких условиях туристская привлекательность территории зависит не только от количества и уникальности объектов, но и от того, насколько они организационно связаны между собой, обеспечены транспортной доступностью, сервисной инфраструктурой и возможностью практического посещения. Поэтому тематический маршрут следует рассматривать не только как схему перемещения туристов, но и как экономико-сервисный механизм, влияющий на формирование дополнительного туристского потока и рост объёма оказываемых услуг.

Несмотря на наличие значительного количества исследований, посвящённых туристской маршрутизации, культурным маршрутам, транспортной доступности и оценке туристской привлекательности объектов, вопрос экономического влияния тематических маршрутов на региональный рынок туристских услуг остаётся недостаточно раскрытым. Во многих работах основное внимание уделяется выбору объектов, построению маршрута или оценке его удобства для туриста. При этом экономический результат маршрутизации, выражающийся в росте туристского потока, увеличении продолжительности пребывания туристов и расширении спроса на услуги региона, часто рассматривается фрагментарно.

В этой связи возникает необходимость разработки подхода, позволяющего оценивать тематический туристский маршрут как инструмент развития региональной экономики услуг. Такой подход должен учитывать базовый туристский поток, возможный сценарный прирост за счёт внедрения тематической маршрутизации, средний объём расходов одного туриста и дополнительный объём туристских услуг. Это позволяет определить не только организационную целесообразность маршрута, но и его экономическую отдачу для региона.

Целью настоящей статьи является экономическая оценка влияния тематических туристских маршрутов на развитие регионального рынка туристских услуг. Для достижения данной цели в статье рассматривается тематический маршрут как комплексный туристский продукт, формирующий дополнительный спрос на транспортные, гостиничные, ресторанные, экскурсионные и сопутствующие сервисные услуги.

Научная значимость исследования заключается в обосновании тематического туристского маршрута как экономико-сервисного инструмента развития региона. Практическая значимость состоит в возможности использования предложенного подхода органами управления туризмом, туристскими компаниями, транспортными организациями, гостиничными предприятиями и сервисными структурами при прогнозировании экономического результата от развития тематической маршрутизации.

Обзор литературных источников

Проблема оценки экономического влияния тематических туристских маршрутов на развитие регионального рынка туристских услуг находится на пересечении нескольких научных направлений: экономики туризма, регионального развития, формирования туристского продукта, сервисного


менеджмента, культурных маршрутов и прогнозирования туристского потока.

Нормативно-правовую основу исследования составляют документы Республики Узбекистан, направленные на развитие туризма, внутреннего и паломнического туризма, а также сохранение и использование объектов культурного и археологического наследия. Закон Республики Узбекистан «О туризме» определяет правовые основы организации туристской деятельности и развития туристских услуг [1]. Законы об охране объектов культурного и археологического наследия создают правовую базу для включения объектов наследия в туристский оборот [2, 3]. Указ Президента Республики Узбекистан от 09.02.2021 № УП-6165 подчёркивает необходимость дальнейшего развития внутреннего и паломнического туризма, что имеет прямое значение для формирования тематических маршрутов как инструмента регионального туристского развития [4].

В международной научной литературе туризм рассматривается как один из факторов развития региональной экономики и сферы услуг. В работах D. Buhalis туристская дестинация представлена как комплексная система, включающая туристские ресурсы, инфраструктуру, сервис, управление и продвижение [5]. J.R.B. Ritchie и G.I. Crouch подчёркивают, что конкурентоспособность туристской территории формируется не только за счёт наличия ресурсов, но и за счёт способности региона превращать эти ресурсы в целостный туристский продукт [6]. Данный подход важен для настоящего исследования, поскольку тематический маршрут рассматривается не как отдельная экскурсионная схема, а как экономически значимый продукт регионального рынка туристских услуг.

Существенное значение имеют исследования, посвящённые культурным и тематическим маршрутам. В материалах Council of Europe культурный маршрут рассматривается как система, объединяющая объекты наследия, территорию, участников, сервисную инфраструктуру и механизмы продвижения [7, 8]. В докладе UN Tourism “Cultural Routes and Itineraries” культурные маршруты рассматриваются как инструмент территориального развития, повышения туристской привлекательности и вовлечения местных сообществ в экономику туризма [9]. Это позволяет обосновать, что тематические маршруты могут выступать не только средством показа туристских объектов, но и механизмом увеличения спроса на транспортные, гостиничные, ресторанные, экскурсионные и сопутствующие услуги.

В работах M.V. Shishmanova культурные маршруты анализируются как элементы регионального развития, способные объединять культурные коридоры, территории и локальные туристские ресурсы в единую сеть [10]. S. Božić, J. Kennell, M. Vujčić и T. Jovanović предлагают рассматривать культурный маршрут с позиции мотивации туристов и оценки его целостности как туристского продукта [11]. О.Е. Афанасьев и А.В. Афанасьева исследуют брендовые туристские маршруты, их признаки, типологию и мировые практики применения [12]. Эти исследования подтверждают, что тематический маршрут способен формировать не только туристскую привлекательность территории, но и экономический эффект за счёт



повышения узнаваемости региона и расширения потребления туристских услуг.

Отдельное направление исследований связано с формированием туристского продукта и сервисной экономики. В работах P. Kotler, J. Bowen, J. Makens и S. Baloglu туристский продукт рассматривается как совокупность услуг и впечатлений, формирующих ценность для потребителя [13]. A. Parasuraman, V.A. Zeithaml и L.L. Berry предложили модель SERVQUAL, позволяющую оценивать качество услуг через восприятие потребителя [14]. С. Grönroos рассматривает сервисное управление как основу создания потребительской ценности и конкурентных преимуществ предприятий сферы услуг [15]. Эти подходы позволяют рассматривать тематический маршрут как комплексную туристскую услугу, включающую транспорт, размещение, питание, экскурсионное сопровождение, информационную поддержку и дополнительные сервисы.

Вопросы экономического эффекта туризма раскрываются в работах, посвящённых влиянию туристского потока на региональное развитие. Экономический результат туризма проявляется через прямые, косвенные и индуцированные эффекты: рост доходов предприятий, увеличение занятости, расширение спроса на местные услуги, развитие малого бизнеса и повышение загрузки инфраструктуры. Для тематических туристских маршрутов это особенно важно, поскольку маршрут объединяет несколько видов услуг и формирует мультипликативный эффект в региональной экономике.

Значительное место в исследованиях занимают вопросы туристского потока и расходов туристов. Рост туристского потока сам по себе не всегда обеспечивает высокий экономический результат, если туристы не задерживаются в регионе и не потребляют местные услуги. Поэтому при оценке эффективности тематических маршрутов необходимо учитывать не только количество туристов, но и средний объём расходов одного туриста, продолжительность пребывания, структуру потребления и вовлечённость местных сервисных предприятий. Такой подход позволяет перейти от количественной оценки туристских прибытий к оценке реального вклада маршрута в региональный рынок услуг.

В отечественной и региональной научной литературе вопросы развития туризма, туристского потенциала, культурно-познавательных маршрутов, транспортной доступности и туристской инфраструктуры рассматриваются в работах исследователей, занимающихся проблемами регионального туризма и экономики услуг. Однако в большинстве исследований экономический эффект тематической маршрутизации рассматривается недостаточно системно. Чаще всего анализируются туристские ресурсы, привлекательность объектов, транспортные условия или организационные вопросы маршрута. При этом механизм расчёта дополнительного объёма туристских услуг, формируемого за счёт внедрения тематического маршрута, требует дальнейшего уточнения.

Таким образом, анализ литературных источников показывает, что в научной литературе достаточно подробно рассмотрены вопросы туристского продукта, культурных маршрутов, конкурентоспособности

дестинаций, качества сервисного обслуживания и общего влияния туризма на экономику региона. Вместе с тем недостаточно раскрыт подход к количественной оценке влияния тематических туристских маршрутов на региональный рынок услуг через прирост туристского потока, средние расходы туристов и дополнительный объём туристских услуг. Именно данный научный пробел определяет необходимость разработки расчётного подхода к экономической оценке тематической маршрутизации региона.

2. Методика исследования

Методологической основой исследования является экономико-сервисный подход к оценке влияния тематических туристских маршрутов на развитие регионального рынка туристских услуг. В рамках данного подхода тематический маршрут рассматривается не только как последовательность туристских объектов, но и как комплексный туристский продукт, формирующий дополнительный спрос на транспортные, гостиничные, ресторанные, экскурсионные, информационные и сопутствующие сервисные услуги.

Информационной базой исследования выступают данные о туристском потоке региона, прогнозных показателях развития туризма, средней величине расходов одного туриста, структуре туристских услуг, а также сценарные параметры прироста туристского потока за счёт внедрения тематической маршрутизации. В качестве расчётной основы используется сопоставление базового сценария развития туризма и сценария с учётом формирования тематических туристских маршрутов.

В исследовании применены методы системного анализа, сравнительного анализа, экономико-сервисного моделирования, сценарного прогнозирования и расчёта дополнительного экономического эффекта. Системный анализ позволяет рассматривать тематический маршрут как элемент региональной экономики услуг. С сравнительный анализ используется для сопоставления базового и маршрутного сценариев развития туристского потока. Сценарный подход позволяет определить возможный прирост туристского потока при внедрении тематической маршрутизации.

Базовый туристский поток региона обозначается как:

$$T_t^0,$$

где T_t^0 – туристский поток в базовом сценарии в период t , без дополнительного эффекта тематической маршрутизации.

- contamination level;
- the amount of metal particles.

Oil analysis directly reveals the wear processes occurring in the internal components of the diesel engine.

In the efficient operation of mainline locomotive power units, automated monitoring and control systems (AMCS) play a crucial role alongside diagnostic tools. These systems enable the real-time observation, analysis, and, where necessary, implementation of automatic control decisions for power units.

The primary tasks of automated monitoring systems are as follows:

- continuous monitoring of power unit operating parameters;
- detection of deviations from standard values;
- predicting the probability of malfunctions occurring;
- prompt transmission of information to the locomotive engineer and the dispatch center.

Such systems reduce the impact of the human factor and increase the reliability of the operational process [12-13].

4. Conclusion

During this research, the maintenance technology for the D49 diesel engine's lubrication system was comprehensively analyzed, and its impact on operational reliability was evaluated. The results revealed that the lubrication system is crucial for the engine's stable operation, the effective lubrication of friction parts, normal heat dissipation, and extending the service life of the main units. The research confirmed that a deterioration in the technical condition of lubrication system elements, a decrease in oil quality, contamination of filter elements, and a deviation of oil pressure from standard values negatively affect the engine's operational performance, leading to accelerated component wear and an increased risk of unscheduled failures.

The research findings indicated that organizing the maintenance process based on diagnostic data, rather than solely on regulations, is more effective. Regular monitoring of oil pressure, oil temperature, the physicochemical properties of the oil, and filtration efficiency allows for the detection of malfunctions in their early stages of

development. This serves to facilitate timely preventive maintenance, increase the reliability of units, and reduce operational costs.

It has been shown that automated monitoring systems enable continuous tracking of the primary operational parameters of diesel engines and allow for the rapid detection of deviations from standard operating modes. The use of digital sensors and microprocessor-based systems helps to increase the accuracy of measurements and the reliability of diagnostic conclusions.

An analysis of the capabilities of intelligent systems has revealed that employing artificial intelligence and machine learning technologies opens up prospects for transitioning to proactive (predictive) maintenance of locomotive equipment. The creation of digital twins for power units and the application of remote monitoring technologies are of particular relevance.

Analysis of existing diagnostic systems confirms their high efficiency in ensuring the operational reliability of locomotives. At the same time, further improvement of diagnostic tools should be aimed at increasing the accuracy of failure prediction, reducing implementation costs, and expanding the capabilities for automated analysis of operational data.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] Krivorudchenko, V.F. Modern Methods of Technical Diagnostics and Fault Detection for Components and Assemblies of Railway Rolling Stock: A textbook for higher educational institutions of railway transport / R.A. Akhmedjanov, V.F. Krivorudchenko. - M.: Marshrut, 2005. - 436 p.
- [2] Zhao, H., Wang, Y., & Li, X. (2018). Effect of ignition timing on combustion and emission characteristics in a spark ignition engine. *Applied Thermal Engineering*, 137, 493-501.
- [3] Alahmer, A., & Al-Shboul, K. (2016). Experimental study on the effect of ignition timing on engine performance and emissions. *Energy Conversion and Management*, 126, 613-621.
- [4] Patel, N., & Joshi, S. (2020). Sensor fusion-based combustion diagnostics for ignition timing optimization. *Sensors*, 20(5), 1487.
- [5] Ivanov, D. Big Data Analytics and Fatigue Life Assessment in Railway Freight Transportation. *Procedia Computer Science*, 2019. Vol. 159, pp. 1086-1095.
- [6] Ivanov, A.V. (2019). *Automated Diagnostic Systems in Locomotives*. Moscow: Transport Publishing.
- [7] Kudratov, Sh.I. Analysis and Diagnostics of a Diesel Engine Malfunction after Repair at a Control and Test Station / Sh.I. Kudratov, O.R. Khamidov, O.A. Rakhmonov. *Mashinasozlik [Mechanical Engineering]*. No. 4. pp. 72–80.
- [8] Kudratov, S., Yusuf, A., Khamidov, O., & Samatov, S. (2025, July). Diesel locomotives-Fault analysis and problem solving. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3256, №.1, p. 060013). AIP Publishing LLC.
- [9] Kulmanov, B., Grachev, V., Ergashev, O., & Kudratov, S. (2025). Improving the technical and economic performance of diesel engines for shunting locomotives. *Vibroengineering Procedia*, 60, 339-344.

[10] Kudratov S. et al. Diesel locomotives-Fault analysis and problem solving // *AIP Conference Proceedings*. AIP Publishing LLC, 2025. T. 3256. №.1. C. 060013.

[11] Gayratov, B., Khamidov, O., Kudratov, S., & Samatov, S. (2026, May). The ANFIS anticipation of diesel locomotive engine on the improvement of lubricating oil analysis. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3447, No. 1, p. 040008). AIP Publishing LLC.

[12] Grishenko, A.V., Khamidov, O.R., Kudratov, Sh.I., & Yusuf, A.M. (2025). "Automation and Automatic Control Systems of Locomotives (Part I)". Textbook. Tashkent: "Transport" Publishing House, 244 pages.

[13] Khamidov, O. R., Kudratov, S. I., Turdimurodov, B. C. U., & Norbotayeva, M. C. Q. (2024, March). Improvement of diagnostics and analysis of malfunction of the crankshaft of locomotive power plants. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 3045, No. 1, p. 050030). AIP Publishing LLC.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Shohijakhon Kudratov	Tashkent State Transport University, Associate Professor of the "Locomotives and Locomotive Economy" Department E-mail: kudratov.shohijaxon@bk.ru Tel.: +99890 788 85 83 https://orcid.org/0009-0007-6396-7699
Otabek Khamidov	Tashkent State Transport University, Professor of the "Locomotives and Locomotive Economy" Department E-mail: otabek.rustamovich@yandex.ru Tel.: +99890 811 21 00 https://orcid.org/0000-0003-0821-5754
Bakhodir Gayratov	Tashkent State Transport University, PhD student at the Department of "Locomotives and Locomotive Economy" E-mail: bgayratoff@gmail.com Tel.: +99894 134 54 27 https://orcid.org/0009-0005-3957-337X
Firuz Djuraev	Tashkent State Transport University, PhD student at the Department of "Locomotives and Locomotive Economy" Tel.: +99899 512 45 00
Abbos Joraev	Tashkent State Transport University, PhD student at the Department of "Locomotives and Locomotive Economy" Tel.: +99888 854 40 00



Determining the safe movement speed of transport vehicles in mountain road conditions and justifying measures for its mandatory reduction (using the example of mountainous areas of the M-39 highway)

O.G. Shokirov¹^a

¹Jizzakh Polytechnic Institute, Jizzakh, Uzbekistan

Abstract: The article considers the issue of determining the safe speed of vehicles in mountainous areas and the scientific justification of the need for its mandatory reduction. A complex mathematical model is proposed that takes into account the turning radius, pavement adhesion coefficient, traffic flow intensity, flow density, geometric coefficient and permissible risk level. Using the example of the mountainous areas of the M-39 highway, safe speed values are analyzed and practical recommendations are developed to improve traffic safety. Using this model, it is possible to determine the safe speed value for vehicles in mountainous road conditions, assess the probability of accidents and limit the speed in accordance with real road conditions. Based on the results obtained, safe speed values are calculated for the example of the mountainous areas of the M-39 highway and practical recommendations are developed to improve traffic safety. In particular, the need to introduce dynamic road signs, warning information panels and speed control devices in dangerous turns, sections with limited visibility and areas with deteriorating pavement conditions is justified.

Keywords: mountain road, safe speed, turning radius, friction coefficient, traffic flow, accident probability, dynamic road sign

Tog'li yo'l sharoitlarida transport vositalarining xavfsiz harakat tezligini aniqlash va uni majburiy pasaytirish choralari asoslash (M-39 avtomobil yo'lining tog'li hududlari misolida)

Shokirov O.G.¹^a

¹Jizzax politexnika instituti, Jizzax, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada tog'li yo'l hududlarida transport vositalarining xavfsiz harakat tezligini aniqlash hamda uni majburiy kamaytirish zaruratini ilmiy asoslash masalasi ko'rib chiqilgan. Burilish radiusi, qoplama ilashish koeffitsienti, transport oqimi intensivligi, oqim zichligi, geometrik koeffitsient va ruxsat etilgan xavf darajasini hisobga oluvchi kompleks matematik model taklif etilgan. M-39 avtomobil yo'lining tog'li hududlari misolida xavfsiz tezlik qiymatlari tahlil qilinib, harakat xavfsizligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur model yordamida tog'li yo'l sharoitlarida transport vositalari uchun xavfsiz tezlik qiymatini aniqlash, avariya xavfi ehtimolini baholash hamda tezlikni real yo'l sharoitlariga mos ravishda cheklash imkoniyati yaratilgan. M-39 avtomobil yo'lining tog'li hududlari misolida xavfsiz tezlik qiymatlari hisoblangan va olingan natijalar asosida harakat xavfsizligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, xavfli burilishlar, ko'rinish masofasi cheklangan uchastkalar va qoplama holati yomonlashadigan hududlarda dinamik yo'l belgilarini, ogohlantiruvchi axborot panellarini hamda tezlikni nazorat qilish vositalarini joriy etish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: tog'li yo'l, xavfsiz tezlik, burilish radiusi, ilashish koeffitsienti, transport oqimi, avariya xavfi ehtimoli, dinamik yo'l belgisi

1. Kirish

Tog'li avtomobil yo'llari transport vositalarining harakat xavfsizligi nuqtayi nazaridan eng murakkab yo'l uchastkalari sirasiga kiradi. Bunday hududlarda yo'lning reja va profil elementlari tez-tez o'zgaradi, burilish radiuslari kichiklashadi, bo'ylama qiyalik ortadi, ko'rinish masofasi

cheklanadi hamda yo'l qoplama ob-havo ta'sirida tezda sirpanchiq holatga kelishi mumkin. Natijada haydovchi tomonidan tezlikni noto'g'ri tanlash, xavfli burilishda boshqaruvni yo'qotish, oraliq masofani saqlamaslik va keskin tormozlanish holatlari yo'l-transport hodisalari xavfini oshiradi.

^a <https://orcid.org/0009-0000-2124-2971>




Amaldagi tezlik me'yorlari ko'pincha umumiy yo'l toifasi yoki harakat sharoitlariga asoslanadi. Biroq tog'li hududlarda bitta yo'l bo'lagi doirasida ham qoplama holati, qiyalik, burilish radiusi, ko'rinish masofasi va transport oqimi tarkibi keskin farq qilishi mumkin. Shuning uchun xavfsiz tezlikni aniqlashda faqat doimiy belgilangan tezlik chegarasidan foydalanish yetarli emas. Yo'lining real geometrik va ekspluatatsion parametrlarini hisobga olgan holda hisobiy xavfsiz tezlikni aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi tog'li yo'l hududlarida transport vositalari uchun xavfsiz harakat tezligini aniqlash va xavfli uchastkalarda tezlikni majburiy kamaytirish zaruratini asoslashdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida M-39 avtomobil yo'lining tog'li hududlari qabul qilindi. Mazkur yo'l uchastkalarida keskin burilishlar, turli qiyaliklar, o'zgaruvchan qoplama holati va transport oqimi intensivligi xavfsiz tezlikni aniqlash uchun muhim omillar sifatida qaraldi [1].

Harakat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar

Tog'li yo'l hududlarida YTH xavfini shakllantiruvchi omillarni to'rtta asosiy guruhga ajratish mumkin: geometrik omillar, tabiiy omillar, transport oqimi omillari va inson omili. Geometrik omillarga keskin burilishlar, kichik radiusli egri yo'l uchastkalari, tik nishabliklar, tor qatnov qismi va cheklangan ko'rinish masofasi kiradi. Ushbu omillar transport vositasining dinamik barqarorligiga bevosita ta'sir etadi.



1-rasm. Tog'li yo'llarda tezlik ortishining YTH xavfiga ta'sir qilish zanjiri

Tabiiy omillar tarkibida tuman, yomg'ir, qor yog'ishi, muzlama, shamol va harorat o'zgarishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa qoplama nam yoki muzlagan holatda bo'lganda shina bilan yo'l orasidagi ilashish koeffitsienti kamayadi. Bu esa tormoz yo'lining uzayishiga, egri yo'lida yon sirpanish xavfining ortishiga va haydovchining transport vositasini boshqarish imkoniyati pasayishiga olib keladi [2].

Transport oqimi omillari harakatlanish zichligining ortishi, og'ir yuk transporti ulushining yuqoriligi, transport vositalari orasidagi masofaning qisqarishi va quvib o'tish bilan bog'liq xavflarda namoyon bo'ladi. Inson omili esa tezlikni oshirish, haydovchi tajribasining yetishmasligi, charchoq, uyqusizlik, chalg'ish va qoidabuzarliklar bilan bog'liq. Shu bois xavfsiz tezlikni belgilashda ushbu omillarning barchasi yagona yondashuvda ko'rib chiqilishi zarur.


2. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodikasi dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, yo'l geometriyasini aniqlash, qoplama holatini baholash,

transport oqimi intensivligi va zichligini hisoblash, ruxsat etilgan xavf darajasini belgilash hamda xavfsiz tezlikni matematik model asosida aniqlash bosqichlaridan iborat. Dala tadqiqotlarida burilish radiusi, bo'ylama qiyalik, ko'rinish masofasi, yo'l qoplama holati va amaldagi harakat tezligi asosiy o'leohov parametrlari sifatida tanlandi [3].

Yo'l qoplama holati quruq, nam va ifloslangan yoki sirpanchiq qoplama holatlariga ajratildi. Quruq qoplama uchun $\varphi_1 = 0,75$, nam qoplama uchun $\varphi_2 = 0,55$, ifloslangan yoki sirpanchiq qoplama uchun $\varphi_3 = 0,35$ qiymatlari qabul qilindi. Ushbu koeffitsientlar xavfsiz tezlikni hisoblashda qoplama bilan shina orasidagi ilashish imkoniyatini ifodalaydi.

Transport oqimi intensivligi $q = 1750$ avt/soat deb olinganda va amaldagi tezlik 100 km/soat bo'lganda oqim zichligi $k = q/V = 1750/100 = 17,5 \approx 18$ avt/km ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich tog'li hududlarda transport vositalarining bir kilometr yo'l bo'lagidagi jamlanish darajasini baholash imkonini beradi. Oqim zichligi ortishi bilan xavfsiz oraliq masofani saqlash qiyinlashadi va xavf ehtimoli oshadi.



2-rasm. Transport oqimi zichligi va jamlangan zichlikning tezlikka bog'liqligi

Matematik model. Tog'li yo'l hududlarida transport vositasining ruxsat etilgan tezligi avvalo yo'lining burilish radiusi bilan bog'liq holda baholandi. Taklif etilgan modelda ruxsat etilgan tezlikning radiusga bog'liqligi quyidagi chiziqli regressiya orqali ifodalanadi:


$$V_{\text{ruxsat}} = a + bR,$$

bu yerda a - masshtab koeffitsienti; b - burilish radiusining tezlikka ta'sir darajasini ifodalovchi sezgirlik koeffitsienti; R - burilish radiusi, m. Tadqiqotda $a = 4,50$ va $b = 0,38$ qiymatlari qabul qilindi. b koeffitsientining $0 < b < 1$ oraliqda bo'lishi modelning barqarorligini va radius ortishi bilan tezlikning haddan tashqari keskin oshmasligini ko'rsatadi.

Xavfsiz tezlikni aniqlashda faqat burilish radiusini hisobga olish yetarli emas. Modelda yo'lining burilish radiusi, oqim intensivligi, qoplama holati va geometrik murakkablik yagona matematik ifoda orqali bog'landi [4].

Avariya ehtimolini baholashda modelning qaror qabul qilish bloki muhim o'rin tutadi. Hisoblangan avariyaviylik ehtimoli qiymati ruxsat etilgan xavf darajasi bilan solishtiriladi. Agar $P_{\text{av. ehtimoli}} \leq P_{\text{xavf. darajasi}}$ sharti bajarilsa, hisoblangan tezlik xavfsiz deb qabul qilinadi. Aks holda tezlikni kamaytirish yoki qo'shimcha texnik vositalarni joriy etish talab etiladi.

Hisoblash algoritmi. Xavfsiz tezlikni aniqlash algoritmi ketma-ket bosqichlardan tashkil topadi. Birinchi bosqichda yo'l uchastkasi tanlanadi va uning burilish radiusi, qiyaligi, ko'rinish masofasi hamda qoplama holati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda transport oqimi intensivligi,




og'ir yuk avtomobillari ulushi va oqim zichligi hisoblanadi. Uchinchi bosqichda qoplama holatiga mos ϕ koeffitsienti tanlanadi va ruxsat etilgan xavf darajasi belgilanadi.

To'rtinchi bosqichda $v_{ruxsat} = a + bR$ regressiya modeli orqali radiusga bog'liq ruxsat etilgan tezlik aniqlanadi. Beshinchi bosqichda kompleks model yordamida xavfsiz tezlik hisoblanadi. Oltinchi bosqichda hisoblangan tezlik amaldagi tezlik bilan solishtiriladi. Agar amaldagi tezlik hisoblangan xavfsiz tezlikdan yuqori bo'lsa, mazkur uchastkada tezlikni majburiy kamaytirish zarurati mavjud deb baholanadi [4,5].

3. Natija va muhokamalar

Hisoblashlar $R = 250$ m, $R = 300$ m va $R = 320$ m bo'lgan burilish radiuslari uchun bajarildi. Quruq, nam va ifloslangan qoplama holatlari bo'yicha xavfsiz tezlik qiymatlari alohida baholandi. Natijalar qoplama holati yomnlashgan sari xavfsiz tezlik pasayishini ko'rsatdi. Masalan, $R = 250$ m bo'lgan keskin burilishda quruq qoplama sharoitida xavfsiz tezlik 70 km/soat atrofida bo'lsa, nam qoplama 60 km/soat, ifloslangan yoki sirpanchiq qoplama 50 km/soat atrofida bo'lishi kerak.

$R = 300$ m burilish radiusida quruq qoplama xavfsiz tezlik 85 km/soat, nam qoplama 75 km/soat, ifloslangan qoplama esa 60 km/soat atrofida aniqlandi. $R = 320$ m bo'lgan uchastkalarda quruq sharoitda 90 km/soatgacha tezlik ruxsat etilishi mumkin bo'lsa-da, nam qoplama va sirpanchiq holatda xavfsiz tezlik sezilarli darajada kamayadi [6].



3-rasm. Burilish radiusi va qoplama holatiga qarab xavfsiz tezlik qiymatlari

Jamlangan zichlik grafigi 100 km/soat tezlikda transport oqimi zichligi $k = 18$ avt/km ga mos kelishini ko'rsatadi. Biroq xavfsizlik nuqtayi nazaridan ushbu tezlik tog'li hududlarda har doim maqbul hisoblanmaydi. Burilish radiusi kichiklashgan yoki yo'l qoplamasi namlangan holatda xavfsiz tezlik 70 km/soat yoki undan past qiymatga tushadi. Shu sababli umumiy tog'li hududlar uchun 70 km/soat tezlik chegarasi asosiy tavsiya sifatida qabul qilinishi mumkin [11].

Olingan natijalar amaldagi 100 km/soat tezlik tog'li yo'l sharoitida avariya xavfi ehtimolini oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayniqsa keskin burilishlar, ko'rinish masofasi cheklangan joylar, qiyalik va sirpanchiq qoplama mavjud bo'lgan uchastkalarda transport vositalari tezligini majburiy kamaytirish zarur. Bunda 70 km/soat umumiy xavfsiz chegara, 50-60 km/soat esa yuqori xavfli hududlar uchun tavsiya etiladigan tezlik sifatida qaraladi [7].

Amaliy chora-tadbirlar

Tog'li yo'l hududlarida xavfsiz tezlikni ta'minlash uchun doimiy yo'l belgilari bilan bir qatorda dinamik yo'l belgilari va elektron axborot panellarini qo'llash maqsadga muvofiq. Dinamik belgilar real vaqt rejimida yo'l qoplama holati, ob-havo, transport oqimi va xavfli burilishlar haqida haydovchiga ogohlantirish beradi. Bu haydovchining tezlik tanlash xulqiga bevosita ta'sir etadi va xavfli holatlarning oldini olishga yordam beradi.

Tezlikni nazorat qilish uchun radar qurilmalari, videofiksatsiya vositalari, yo'l sensorlari, GPS/IoT qurilmalari va avtomatik ma'lumot uzatish tizimlaridan foydalanish mumkin.

Chora-tadbirlarni joriy etishda xavfli burilishlar, tik pasayishlar, ko'rinish masofasi cheklangan joylar va YTHlar ko'p qayd etilgan uchastkalar ustuvor hudud sifatida tanlanishi kerak. Birinchi bosqichda ogohlantiruvchi belgilar va 70 km/soat tezlik cheklovi o'rnatiladi. Ikkinchi bosqichda elektron axborot panellari, uchinchi bosqichda esa avtomatik nazorat va ma'lumot uzatish tizimlari joriy etiladi [8].

Joriy etish mexanizmi

Taklif etilgan metodikani amaliyotga joriy etish uchun yo'l uchastkalarini xavf darajasi bo'yicha tasniflash zarur. Birinchi toifaga burilish radiusi kichik, ko'rinish masofasi cheklangan va YTHlar ko'p sodir bo'lgan uchastkalar kiritiladi. Ikkinchi toifaga qiyalik yuqori bo'lgan, og'ir yuk transporti ulushi katta va transport oqimi zichligi ortgan uchastkalar kiritiladi. Uchinchi toifaga esa ob-havo ta'sirida qoplama holati tez o'zgaradigan, tuman va muzlama ko'p kuzatiladigan hududlar kiritiladi. Har bir toifa uchun tezlikni kamaytirish choralarini alohida belgilanadi.

Joriy etishning birinchi bosqichida xavfli uchastkalar pasporti shakllantiriladi. Pasportda burilish radiusi, qiyalik, ko'rinish masofasi, qoplama holati, transport oqimi jadalligi, amaldagi tezlik va YTH statistikasi ko'rsatiladi. Ikkinchi bosqichda ishlab chiqilgan matematik model yordamida har bir uchastka uchun xavfsiz tezlik hisoblanadi. Uchinchi bosqichda hisoblangan tezlik qiymati mavjud tezlik rejimi bilan taqqoslanib, tezlikni majburiy kamaytirish zarurati aniqlanadi [3,4].

To'rtinchi bosqichda texnik vositalar tanlanadi. Bunda 70 km/soat tezlik cheklovi umumiy xavfsiz rejim sifatida, 50-60 km/soat esa keskin burilishlar, nam qoplama yoki ko'rinish masofasi cheklangan sharoitlar uchun qo'llaniladi. Beshinchi bosqichda yo'l belgilarining ko'rinishi, joylashuvi va haydovchiga ta'sir masofasi aniqlanadi. Oltinchi bosqichda tezlik nazorati natijalari qayta tahlil qilinib, model parametrlari zarur hollarda aniqlashtiriladi [8].

Muhokama

Tadqiqot natijalari tog'li yo'l hududlarida xavfsiz tezlikni belgilashda bitta universal tezlik chegarasi yetarli emasligini ko'rsatadi. Bir xil yo'l uchastkasida ham quruq qoplama, nam qoplama va sirpanchiq qoplama holatlarida xavfsiz tezlik qiymatlari farqlanadi. Shu sababli tezlikni boshqarish tizimi moslashuvchan bo'lishi, yo'lning joriy holati va transport oqimi parametrlari bilan bog'langan holda ishlashi kerak.

Taklif etilgan modelning amaliy ahamiyati shundaki, u yo'lning geometrik elementlari bilan transport oqimi va qoplama holatini yagona hisoblash jarayonida birlashtiradi. Bu yondashuv xavfli uchastkalarda tezlikni kamaytirish bo'yicha qaror qabul qilishni aniqroq va asosliroq qiladi. Ayniqsa tog'li yo'llarda burilish radiusi kichik bo'lgan hududlarda model natijalari haydovchi uchun xavfsiz tezlik chegarasini belgilashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

Modelni kelgusida yanada takomillashtirish uchun yo'l sensorlari, meteorologik kuzatuv qurilmalari va videokuzatuv tizimlaridan olinadigan ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash maqsadga muvofiq. Bunda xavfsiz tezlik qiymati doimiy emas, balki ob-havo, qoplama holati va transport oqimi zichligiga qarab avtomatik o'zgaruvchi ko'rsatkich sifatida aniqlanishi mumkin [9].

Iqtisodiy samaradorlik va ishonchlik

Taklif etilgan modelning iqtisodiy samaradorligi YTHlar sonining kamayishi orqali baholanadi. Tezlikni 100 km/soatdan 70 km/soatgacha kamaytirish keskin tormozlanishlar, egri yo'lida sirpanish, boshqaruvni yo'qotish va to'qnashuv xavfini pasaytiradi. Hisoblash natijalariga ko'ra, xavfli tog'li yo'l hududlarida tezlikni maqbullashtirish YTHlar sonini 15-30 % gacha kamaytirish imkonini beradi.

Iqtisodiy samara inson hayoti va sog'lig'ini saqlash, transport vositalariga yetkaziladigan moddiy zararlarni kamaytirish, yo'l infratuzilmasini saqlash xarajatlarini qisqartirish va transport oqimi barqarorligini oshirish hisobga shakllanadi. Taklif etilgan yondashuvning ishonchligi hisoblangan xavfsiz tezlik qiymatlarining yo'lning real geometrik va ekspluatatsion sharoitlari bilan mosligi orqali baholanadi.

Modelda $P_{av, ehtimoli} \leq P_{xavf, darajasi}$ sharti asosiy nazorat mezon sifatida qabul qilindi. Bu mezon hisoblangan tezlik xavf darajasi ruxsat etilgan chegaradan oshmasligini ko'rsatadi. Shunday qilib, tezlikni majburiy kamaytirish qarori subyektiv baholash emas, balki matematik hisob-kitob va xavf ehtimolini solishtirish asosida qabul qilinadi [10].

4. Xulosa

Tog'li yo'l hududlarida transport vositalarining xavfsiz tezligini aniqlashda yo'lning geometrik parametrlari, qoplama holati, transport oqimi intensivligi, oqim zichligi va avariyaaviylik ehtimolini kompleks hisobga olish zarurligi asosladi.

Burilish radiusiga bog'liq ruxsat etilgan tezlikni aniqlash uchun $V_{ruxsat} = a + bR$ regressiya modeli, xavfsiz tezlikni hisoblash uchun esa qoplama ilashishi, oqim zichligi va xavf darajasini hisobga oluvchi kompleks matematik model ishlab chiqildi [1].

Hisoblash natijalariga ko'ra, M-39 avtomobil yo'lining tog'li hududlarida umumiy xavfsiz tezlik sifatida 70 km/soat, yuqori xavfli burilishlar va sirpanchiq qoplama sharoitida esa 50-60 km/soat tezlik qiymatlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Dinamik yo'l belgilari, elektron axborot panellari, radar va videofiksatsiya tizimlarini joriy etish haydovchilarni real yo'l sharoitiga mos tezlik tanlashga undaydi hamda yo'l-transport hodisalari sonini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy-amaliy ahamiyati

Tadqiqotda taklif etilgan yondashuvning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tog'li yo'l hududlarida xavfsiz tezlikni aniqlash masalasi yo'l geometriyasi, transport oqimi va qoplama holatini yagona tizimda baholash orqali hal etiladi. Mavjud amaliyotda tezlik chegarasi ko'pincha umumiy yo'l toifasi yoki ma'muriy talablar asosida belgilanadi. Mazkur tadqiqotda esa tezlik chegarasi burilish radiusi, ilashish koeffitsienti, oqim zichligi va avariyaaviylik ehtimoli bilan bog'liq holda hisoblanadi. Bu esa xavfli uchastkalar uchun aniqroq va asosliroq qaror qabul qilish imkonini beradi.


Amaliy ahamiyat shundan iboratki, ishlab chiqilgan modeldan yo'l tashkilotlari, harakat xavfsizligi bo'yicha mas'ul idoralar va loyiha tashkilotlari xavfli tog'li yo'l uchastkalarini baholashda foydalanishi mumkin. Model yordamida qaysi uchastkada 70 km/soat, qaysi uchastkada 50-60 km/soat tezlikni belgilash zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, dinamik yo'l belgilarining joylashuvi, elektron axborot panellarini o'rnatish nuqtalari va tezlik nazorati vositalarini tanlashda ham ushbu metodika amaliy asos bo'lib xizmat qiladi [12].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tog'li yo'l hududlarida tezlikni boshqarish bo'yicha uch darajali yondashuvni qo'llash tavsiya etiladi. Birinchi daraja - profilaktik ogohlantirish bo'lib, bunda xavfli burilish va qiyaliklar oldidan haydovchiga oldindan axborot beriladi. Ikkinchi daraja - majburiy tezlik cheklovi bo'lib, unda hisoblangan xavfsiz tezlikka mos yo'l belgisi o'rnatiladi. Uchinchi daraja - avtomatik nazorat bo'lib, unda radar, videofiksatsiya va sensorlar orqali haydovchilarning tezlikka rioya qilishi nazorat qilinadi [12].

Shunday qilib, ishlab chiqilgan matematik model, hisoblash algoritmi va amaliy tavsiyalar tog'li avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligini oshirish, haydovchilarni xavfli vaziyatlar haqida oldindan ogohlantirish va yo'l-transport hodisalari sonini kamaytirishga qaratilgan kompleks yechim sifatida baholanishi mumkin. Ushbu yondashuvni boshqa tog'li avtomobil yo'llari sharoitiga moslashtirish uchun tegishli uchastkaning geometrik, transport va qoplama ko'rsatkichlarini modelga kiritish kifoya qiladi.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] Ikromov A., Shokirov O. Yo'lning tog'li hududlarida transport vositalarining tezligini majburiy ravishda pasaytirish choralarini ishlab chiqish va asoslash. (M-39 yo'lining tog'li hududlari misolida) // Journal of Transport. – 2025. – T. 2. – №. 2. – C. 92-96.
- [2] O'G'li S. O. G. SHAHAR AHOLISI O'RTASIDAGI HAYDOVCHILARGA YORDAM BERISH TIZIMINI (ADAS) QO'LLASH ORQALI YO'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISH // Механика и технология. – 2023. – №. 2 (5) Спецвыпуск. – C. 138-145.
- [3] АВТОМОБИЛЬНАЯ П. Учредители: ОАО "Автосельхозмаш-холдинг", Министерство промышленности, науки и технологий // АВТОМОБИЛЬНАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ. – №. 3. – C. 10-15.
- [4] Шокиров О.Ф. Обзор моделей поведения водителей транспортных средств в ситуации, близкой к столкновению // Автоматизация. Современные технологии. Том.79. -2025. №1. -19-21 с. DOI: 10.36652/0869-4931-2025-79-1-19-21. <https://doi.org/10.36652/0869-4931-2025-79-1-19-21>.
- [5] Шокиров О.Ф. Функционирования автобусного транспорта в место паломничества // Golden Brain Scientific Journal. ISSN: 2181-4120. Vol 1. Issue 3. – February 2023. –161-166 p. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7605043>.
- [6] Shokirov O. G., Qadamov Q. S. THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING MEASURES BASED ON THE ANALYSIS OF ROAD TRAFFIC



ACCIDENTS IN MOUNTAINOUS AREAS OF THE M-39 HIGHWAY //Экономика и социум. – 2025. – №. 10-2 (137). – С. 515-518.

[7] Шокиров О. Г. Меры по совершенствованию использования инновационных систем повышения безопасности транспортных средств. – 2024.

[8] Kapski, D., Semchenkov, S., Gamulsky, I., Ikromov, A., Omarov, J., & Abruev, S. (2024). Assessment measures developed to improve quality of route transport Polotsk and Novopolotsk. E3S Web of Conferences, 515, 03003. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202451503003>

[9] Ikromov, A. (2023). Components modifying methods with the using of energy technologies. 060037. <https://doi.org/10.1063/5.0115559>

[10] Avdeychik, S., Goldade, V., Struk, V., Antonov, A., & Ikromov, A. (2020). THE PHENOMENON OF NANOSTATE IN MATERIAL SCIENCE OF FUNCTIONAL COMPOSITES BASED ON INDUSTRIAL POLYMERS. Theoretical & Applied Science, (7), 101-107.

[11] Shokirov O. G'. (2023). Shahar aholisi o'rtasidagi haydovchilarga yordam berish tizimini (ADAS) qo'llash orqali yo'l-transport hodisalarining oldini olish. MEXANIKA VA TEXNOLOGIYA ILMIY JURNALI, MAXSUS SON 2023, № 2 (5). 138-145.

<https://api.scienceweb.uz>

[12] <https://matador.tech/>

[13] www.yhxx.uz.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Shokirov
Ozod /
Ozod
Shokirov

Jizzax politexnika instituti mustaqil
izlanuvchisi
E-mail: cristow.777@gmail.com
Tel: +998905159779
<https://orcid.org/0009-0000-2124-2971>



Advantages of implementing a quality management system in healthcare institutions

B.M. Komilov¹^a

¹Andijan state technical institute, Andijan, Uzbekistan

Abstract: Quality Management Systems (QMS) are one of the main pillars of modern medical institutions and play an important role in improving patient safety, the effectiveness of medical services, and treatment outcomes. The introduction of SMT based on the standards ISO 9001:2015 and ISO 7101:2023 is of great importance in improving the quality and prestige of medical institutions.

Keywords: quality management systems, ISO 9001:2015, ISO 7101:2023, patient safety, medical institution, continuous improvement

Tibbiyot muassasalarida sifat menejmenti tizimini joriy etishning afzalliklari

Komilov B.M.¹^a

¹Andijon davlat texnika instituti, Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya: Sifat menejmenti tizimlari (SMT) zamonaviy tibbiyot muassasalarining asosiy ustunlaridan biri bo'lib, bemor xavfsizligi, tibbiy xizmatlar ko'rsatilishining samaradorligi va davolash natijalarni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. ISO 9001:2015 va ISO 7101:2023 standartlari asosida SMT ni joriy qilish tibbiyot muassasalarining sifati va nufuzini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: sifat menejmenti tizimlari, ISO 9001:2015, ISO 7101:2023, bemor xavfsizligi, tibbiyot muassasasi, uzluksiz takomillashtirish

1. Kirish

Zamonaviy tibbiyot tizimlarida bemor xavfsizligi, tibbiy xizmatlarning sifati va samaradorligi asosiy ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, yuqori daromadli mamlakatlarda har 10 bemordan biri tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonida zarar ko'radi, bu esa sog'liqni saqlash tizimlariga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Tibbiy xatolar nafaqat bemorlarning sog'lig'iga, balki muassasalarning nufuzi va moliyaviy barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan, tibbiyot muassasalarida sifat menejmenti tizimlarini (SMT) joriy etish dolzarb masala sifatida qabul qilinmoqda.[1-7]

Sifat menejmenti tizimi - bu tashkilotning sifat siyosati, maqsadlari va mas'uliyatlarini belgilaydigan, shuningdek, ularni sifat rejalashtirish, sifatni ta'minlash, sifatni nazorat qilish va sifatni yaxshilash orqali amalga oshiruvchi elementlar majmuidir. Butun dunyoda eng keng tarqalgan standartlar ISO 9001:2015 (umumiy sifat menejmenti tizimlari) va ISO 7101:2023 (sog'liqni saqlash tashkilotlari uchun maxsus sifat menejmenti) hisoblanadi.[3,7-10]

ISO 9001:2015 standarti jarayonli yondashuv, risklarni boshqarish va doimiy takomillashtirishni ta'minlaydi. Bu standart turli sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lib, tashkilotlarga o'z jarayonlarini tizimlashtirish, samaradorlikni oshirish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. ISO 7101:2023 esa tibbiyot muassasalari uchun maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, barcha jarayonlar

bemor xavfsizligi, davolash samaradorligi va tashkiliy barqarorlikni birlashtiradi. Bu standart 2023 yil oktyabr oyida e'lon qilingan bo'lib, sog'liqni saqlash tashkilotlari uchun zamonaviy sifat menejmenti yondashuvini o'zida aks ettiradi.[8-10]

ISO 7101:2023 standartining asosiy yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: birinchi navbatda bemor va xodimlar xavfsizligi, xizmat sifatini yaxshilash, resurslardan samarali va oqilona foydalanish, risklar va imkoniyatlarni boshqarish, doimiy takomillashtirish. Bu standartlar tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda, xatolarni kamaytirishda va bemorlar hamda xodimlar uchun xavfsiz muhitni yaratishda muhim rol o'ynaydi. [2]

So'nggi yillarda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida ham sifat menejmenti tizimlarini joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin ko'plab tibbiyot muassasalari hali ham SMT ning aniq afzalliklarini to'liq tushunmaydi yoki joriy etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu muammo nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mavjud. Shu sababli, ushbu maqolada SMT ni joriy etishning asosiy afzalliklari adabiyotlar tahlili asosida tizimli ko'rib chiqiladi.[11]

Bemor xavfsizligi tibbiy xizmatlar sifatining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) bemor xavfsizligini tibbiyot sohasidagi global ustuvorlik sifatida e'lon qilgan. SMT ni joriy etish standartlashtirilgan protokollar, nazorat mexanizmlari va sifat ko'rsatkichlari orqali tibbiy xatolarni sezilarli darajada kamaytiradi. [6]

^a <https://orcid.org/0009-0004-4444-4815>



2. Tadqiqot metodologiyasi

Qidiruv 2015–2025 yil oralig'ida PubMed, Scopus, Web of Science, Google Scholar bazalarida ISO 9001, ISO 7101, sifat menejmenti tizimlari, bemor xavfsizligi kalit so'zlari orqali amalga oshirildi. 40 dan ortiq qayta sharxlanuvchi ilmiy ishlar tahlil qilindi.

Bir nechta tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ISO standartlari asosida SMT joriy qilingan tibbiyot muassasalarida tibbiy xatolar 15-25 foizga kamayadi. Masalan, noto'g'ri dori berish, jarrohlik amaliyotlaridagi xatolar, bemor identifikatsiyasi xatolari, kasalxona infeksiyalari va boshqa noxush hodisalar soni sezilarli darajada pasayadi. Bir tadqiqotda ISO 9001 sertifikatlangan kasalxonalarda bemor shikoyatlari 18% ga kamaygan va bemor qoniqishi 22% ga oshgan.[12]

ISO 7101:2023 standarti bemor xavfsizligini yuqori darajada ta'minlash uchun yaratilgan bo'lib, bemor yo'qotishlari va zarar ko'rish holatlarini kamaytirishga qaratilgan. Ispaniyada 2023-2024 yillarda o'tkazilgan tadqiqot ISO 7101 standartini joriy etish bemor xavfsizligi ko'rsatkichlarini 30% gacha yaxshilaganini ko'rsatdi. [8-10]

Bundan tashqari, SMT bemor tiklanish muddatlarini qisqartiradi, qayta yotqizishlar sonini kamaytiradi va bemorlarning tibbiy xizmatlardan umumiy qoniqish darajasini oshiradi. Standartlashtirilgan davolash yo'llari va sifat ko'rsatkichlarini muntazam monitoring qilish orqali tibbiyot xodimlari o'z ishlarini doimiy ravishda takomillashtirib boradilar. Masalan, standartlashtirilgan klinik yo'riqnomalar qo'llash natijasida jarrohlik komplikatsiyalari 20–30% ga kamayishi qayd etilgan.

SMT, shuningdek, bemor markazli yondashuvini rivojlantiradi. Bu yondashuv bemorlarning ehtiyojlari, afzalliklari va qadriyatlarini tibbiy xizmatlar markaziga qo'yadi. Natijada, bemor va shifokorning muloqoti yaxshilanadi, bemorlarning davolash jarayoniga qo'shilishi oshadi va umumiy davolash natijalari yaxshilanadi.

SMT joriy etish tibbiyot muassasalarining operatsion samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Jarayonlarni standartlashtirish, resurslardan optimal foydalanish va isrofgarchilikni kamaytirish orqali kasalxonalar o'z xarajatlarini 5-15 foizga kamaytirishi mumkin. Ba'zi holatlarda, ayniqsa katta muassasalarda, iqtisod 20% ga yetishi ham mumkin. [2]

ISO 9001 standarti jarayonli yondashuvni taminlaydi, bu esa tibbiyot muassasalariga o'z jarayonlarini xaritalash, tahlil qilish va optimallashtirishga yordam beradi. Jarayonlarni vizualizatsiya qilish va tahlil qilish orqali muassasalar to'siqlarni, takrorlanuvchi ishlarni va ortiqcha bosqichlarni aniqlaydi. Natijada, bemorlarni qabul qilish vaqti qisqaradi, kutish navbatlari kamayadi va xizmat ko'rsatishning umumiy sifati yaxshilanadi. [11-12,]

Masalan, Britaniya kasalxonasida jarayonlarni optimallashtirish natijasida bemorlarni kutish vaqti 35% ga kamaygan va kunlik qabul qilinadigan bemorlar soni 25% ga oshgan. Irlandiyada ISO 9001 sertifikatlangan tibbiy markazlarda operatsion samaradorlik 18% ga oshgan va xodimlar produktivligi yaxshilangan.[12]

Bundan tashqari, SMT yuqori xatoliklarni proaktiv aniqlash va bartaraf etish imkonini beradi. Preventiv yondashuv orqali tibbiyot muassasalari murakkab va qimmat muammolarning oldini oladi, bu esa uzoq muddatda katta iqtisodiy foyda keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, proaktiv tizimlar yuqori xatoliklarni 15% gacha kamaytiradi. [11-12]

3. Natija va muhokamalar

Resurslardan samarali foydalanish, ayniqsa, tibbiy jihozlar, dori-darmonlar va xodimlar vaqtini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. SMT inventarizatsiya boshqaruvi xarid jarayonlari va ta'minot zanjirini optimallashtirishga yordam beradi. Dori-darmonlar va tibbiy materiallarning ortiqcha yoki yetishmasligi muammolari kamaytirilib, optimal zaxira darajasi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, SMT ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishni rivojlantiradi. Sifat ko'rsatkichlarini muntazam o'lchash va tahlil qilish orqali menejment samarali uzoq muddatli qarorlar qabul qiladi. Bu esa uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va investitsiya qarorlarini optimallashtiradi.

ISO 9001 va ISO 7101 standartlariga muvofiq sertifikatga ega bo'lish tibbiyot muassasalariga bir nechta muhim afzalliklarni taqdim etadi. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

1-jadval

ISO 9001 va ISO 7101 standartlari bo'yicha sertifikatlashning tibbiyot muassasalari uchun asosiy afzalliklari

№	ISO 9001:2015 va ISO 7101:2023 joriy qilishning afzalliklari
1	Xalqaro standartlarga muvofiqlik tartibga soluvchi organlar (Sog'liqni saqlash vazirligi, litsenziyalash organlari)ning talablarini qondirishni osonlashtiradi. SMT hujjatlashtirish, nazorat va monitoring jarayonlarini tashkil qiladi, bu esa tekshiruvlar va auditorlik paytida muassasaning tayyorligini ta'minlaydi. Ko'pgina mamlakatlarda sog'liqni saqlash organlari ISO sertifikatlarini tan oladi va muassasalar uchun ma'lum imtiyozlar beradi
2	ISO sertifikatlari muassasaning xalqaro obro'sini oshiradi. Bu ayniqsa, xalqaro hamkorlik, tibbiy turizm (medical tourism) va xalqaro grantlar olishda muhim ahamiyatga ega. Bemorlar, ayniqsa xorijiy bemorlar, ISO sertifikatli muassasalarga ko'proq ishonch bildiradilar. Bir tadqiqotda xalqaro bemorlarning 68%i ISO sertifikatini muassasani tanlashda muhim omil sifatida ko'rsatgan
3	sertifikatsiya jarayoni o'z-o'zidan muassasaga o'z tizimlarini tahlil qilish va yaxshilash imkonini beradi. Tashqi auditorlik (external audit) ob'ektiv baho beradi va muassasaga o'z zaif tomonlarini (weaknesses) aniqlashga yordam beradi. Auditorlik natijasida olingan tavsiyalar (recommendations) muassasa uchun yaxshilash yo'l xaritasi (improvement roadmap) yaratadi
4	ISO sertifikatlari muassasaning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Tibbiy turizm va xususiy tibbiyot sektorida sertifikat muhim differentsiatsiya omili hisoblanadi. Sertifikatli muassasalar ko'pincha yuqoriroq baho (pricing) qo'yishi va mijozlar sadoqatini (patient loyalty) oshirishi mumkin



5	ISO standarti xalqaro hamkorlik va sug'urta kompaniyalari bilan ishlashni osonlashtiradi. Ko'pgina xalqaro sug'urta kompaniyalari ISO sertifikatli muassasalarni preferred providers sifatida tan oladi
---	---

SMT ning eng muhim afzalliklaridan biri - doimiy takomillashtirish madaniyatini tashkil etishdir. ISO standartlari PDSA (Plan-Do-Study-Act) siklini qo'llashni tavsiya qiladi, bu esa tizimli va ma'lumotlarga asoslangan yondashuv orqali doimiy yaxshilanishni ta'minlaydi

PDSA sikli, shuningdek, Deming sikli (Deming Cycle) yoki Model for Improvement nomi bilan ham tanilgan. Bu sikl to'rt bosqichdan iborat:

1. Plan (Rejalashtirish): Muammoni aniqlash, ma'lumotlar to'plash, asosiy sabablarni (root causes) aniqlash, maqsad qo'yish va yaxshilash rejasini ishlab chiqish

2. Do (Amalga oshirish): Rejani kichik miqyosda sinab ko'rish (pilot loyiha), o'zgarishlarni amalga oshirish va jarayonni kuzatish

3. Study (O'rganish): Natijalarni tahlil qilish, ma'lumotlarni to'plash va baholash, kutilgan va haqiqiy natijalarni solishtirish

4. Act (Takomillashtirish): Muvaffaqiyatli o'zgarishlarni kengaytirish (scale up) yoki rejani qayta ko'rib chiqish va yangi PDSA siklini boshlash

Bu sikl tashkilotda ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish madaniyatini shakllantiradi. Xodimlar doimiy ravishda o'z ishlarini tahlil qiladi, muammolarni aniqlaydi

va yechimlar topadi. Bu esa tashkilotning innovatsion salohiyatini oshiradi va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini (adaptability) kuchaytiradi

PDSA sikli tibbiyot sohasida keng qo'llaniladi. Masalan, bir kasalxonada PDSA siklidan foydalanib, zaharlanish holatlarini erta aniqlash va davolash protokolini yaxshilash natijasida o'lim darajasi 40% ga kamaygan. Boshqa misolda, qo'l gigienasini yaxshilash loyihasi PDSA sikli orqali amalga oshirilgach, kasalxona infeksiyalari 35% ga kamaygan.

Bundan tashqari, SMT xodimlarning faol ishtiroki va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. Jamoaviy ishlash orqali xodimlar o'zlarini tashkilotning muhim qismi sifatida his qiladilar va sifatni oshirishga faol hissa qo'shadilar. Xodimlar ko'pincha muammolarni eng yaxshi bilishadi va ularning fikrlari yaxshilash jarayonida qimmatli hisoblanadi.

SMT shuningdek, eng yaxshi amaliyotlar bilan taqqoslash va eng yaxshi amaliyotlarni ulashishni rag'batlantiradi. Muassasalar o'zlarining natijalarini boshqa muassasalar bilan taqqoslash va eng yaxshi amaliyotlarni o'rganish orqali doimiy ravishda takomillashadilar.

SMT joriy etish xodimlarning kasbiy rivojlanishi, motivatsiyasi va qoniqish darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Sifat menejmenti tizimi (SMT)ni joriy etishning xodimlarning kasbiy rivojlanishi, motivatsiyasi va qoniqish darajasiga ta'siri

№	SMT joriy qilinishining xodimlarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni
1	SMT xodimlarni muntazam o'qitish va malaka oshirish (training and competency development) dasturlarini talab qiladi. ISO standartlari xodimlarning kompetensiyasini baholash va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Muassasalar xodimlarning bilim va ko'nikmalarini aniqlaydi, bo'shliqlarni (gaps) topadi va maqsadli o'qitish dasturlarini ishlab chiqadi.
2	aniq rollar va mas'uliyatlarni belgilash xodimlarning samaradorligini oshiradi. SMT har bir xodimning vazifalarini, mas'uliyatlarini va vakolatlarini aniq hujjatlashtirishni talab qiladi, bu esa noaniqliklarni bartaraf etadi va samarali ishlashni ta'minlaydi.
3	xodimlarning ishtiroki va fikrlarini e'tiborga olish tashkilot ichida ijobiy ish muhitini yaratadi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, SMT joriy etgan muassasalarda xodimlarning ish qoniqishi (job satisfaction) oshadi, kadrlar almashinuvi (staff turnover) kamayadi va jamoaviy ruh (team spirit) mustahkamlanadi.
4	xavfsiz ish muhiti ta'minlanadi. SMT nafaqat bemor xavfsizligi, balki xodimlar xavfsizligini (staff safety) ham ta'minlashni talab qiladi. Bu kasb kasalliklari (occupational diseases), ishchi joyidagi baxtsiz hodisalar (workplace accidents) va stressni kamaytiradi.
5	SMT xodimlar o'rtasida sifat madaniyatini (quality culture) rivojlantiradi. Xodimlar sifatni nafaqat menejmentning mas'uliyati sifatida emas, balki o'zlarining ham mas'uliyati sifatida qabul qilishadi
6	SMT xodimlar o'rtasida kommunikatsiyani yaxshilaydi. Aniq kommunikatsiya kanallari, muntazam yig'ilishlar (regular meetings) va feedback mexanizmlari xodimlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi.


Muhokama

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tibbiyot muassasalarida SMT ni joriy etish ko'plab afzalliklarga ega.

Lekin muvaffaqiyatli joriy etish uchun bir qator muhim omillarni hisobga olish zarur.

Tadqiqotlar uchta asosiy muvaffaqiyat omilini aniqlaydi.(1-rasm)





1-rasm. SMT joriy etishning muvaffaqiyat omillari

O'zbekiston tibbiyot muassasalari uchun SMT joriy etish ayniqsa dolzarbdir. Mamlakatda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davom etmoqda va xalqaro standartlarga muvofiqlik muhim yo'nalish hisoblanadi. Lekin resurslarga cheklangan muhitda bosqichma-bosqich yondashuv qo'llash tavsiya etiladi.

4. Xulosa

Tibbiyot muassasalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish bemor xavfsizligi, xizmatning sifati va samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Adabiyotlar tahlili asosida quyidagi asosiy afzalliklar aniqlandi. Birinchi navbatda bemor xavfsizligi va davolash natijalarini yaxshilash raqamlar bilan aytadigon bo'lsek tibbiy xatoliklarni 15-25 foizga kamaytirish, bemor davolanish muddatlarini qisqartirish va bemor qonishini oshirish bilan ifodalanadi. Shuningdek operatsion samaradorlikxa kamaytirishga jarayonlarni optimallashtirish orqali xarajatlarni 5-15 foiz ekonom qilish va xizmat ko'rsatish samaradorligiga erishish mumkin. PDSA siklini qo'llash orqali, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish natijasida doimiy yaxshilanishni taminlash mumkin.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] Page MJ, McKenzie JE, Bossuyt PM, et al. The PRISMA 2020 statement: an updated guideline for reporting systematic reviews. *BMJ*. 2021;372:n71.
- [2] Qualityze. Quality Management in Healthcare: Importance & Purpose. 2025. Available from: <https://www.qualityze.com/blogs/quality-management-healthcare>
- [3] FactoCert. How can ISO 9001 Certification in Ireland benefit healthcare sector. 2023. Available from: <https://factocert.com/iso-9001-certification-in-ireland-healthcare-sector/>
- [4] Moher D, Liberati A, Tetzlaff J, Altman DG. The PRISMA Statement for Reporting Systematic Reviews and Meta-Analyses. *PLoS Med*. 2009;6(7):e1000100.

[5] PharmaConnections. Implementing Quality Management Systems in Healthcare. 2025. Available from: <https://pharmaconnections.in/quality-management-system-in-healthcare/>

[6] NQA. 5 benefits of ISO certification in global healthcare. 2024. Available from: <https://www.nqa.com/en-gb/resources/blog/january-2024/iso-standards-in-healthcare>

[7] Page MJ, et al. The PRISMA 2020 statement: an updated guideline for reporting systematic reviews. *PMC*. 2021. Available from: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC8008539/>

[8] Megit. A Buyer's Guide To Quality Management Systems in Healthcare. 2017. Available from: <https://megit.com/buyer-guide-quality-management-healthcare>

[9] Parra D, et al. The Impact of ISO Certification Procedures on Patient Safety. *PMC*. 2025. Available from: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11942358/>

[10] DistillerSR. PRISMA Methodology for Systematic Review. 2023. Available from: <https://www.distillersr.com/resources/systematic-literature-reviews/prisma-methodology-for-systematic-review>

[11] Innovaccer. Top 5 Benefits of Healthcare Quality Management Software. 2025. Available from: <https://innovaccer.com/resources/blogs/top-5-benefits-of-quality-management-software-in-healthcare-no-one-talks-about>

[12] DNV. ISO 9001 for Healthcare. 2019. Available from: <https://www.dnv.com.au/services/iso-9001-for-healthcare-4994/>

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Komilov
Bekzodbek
Makhmudjon
o'g'li /
Bekzodbek
Komilov

Andijon davlat texnika instituti,
Metrologiya va yengil sanoat
kafedrası o'qituvchisi
E-mail:
bekzodbekomilov94@gmail.com
Tel.: +998995176822
<https://orcid.org/0009-0004-4444-4815>



Analysis and modernization of control equipment at railway stations of JSC "Uzbekistan Railways"

S.T. Boltaev¹^a, Ch.M. Aripova¹

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

This paper analyzes the control equipment currently used at railway stations, including control panels, panel manipulators, and external display boards, with emphasis on their types, technical characteristics, and classification. The study examines the dimensions, weight, and functional capabilities of relay and route-relay interlocking control panels, as well as UP-1, UP-2, PPNB, PPNBM, TVB, and TVBU equipment currently operated at the stations of JSC "Uzbekistan Railways." The operational advantages and limitations of the existing control equipment are evaluated, and their compliance with the requirements of modern railway automation and telemechanics systems is assessed. Furthermore, the possibilities of modernizing the existing control equipment using programmable logic controllers (PLCs) and computer-based technologies are discussed. The proposed solution enables the implementation of an automated workstation for the station duty officer, supports the digitalization of control processes, reduces the influence of the human factor, and contributes to improving train traffic safety and the overall efficiency of railway station control.

Keywords:

railway transport, traffic safety, electric interlocking, control panel, panel manipulator, external display board, relay interlocking, modernization

"O'zbekiston temir yo'llari" AJ temir yo'l stansiyalaridagi boshqaruv apparatlarining tahlili va modernizatsiyasi

Boltayev S.T.¹^a, Aripova Ch.M.¹

Тем не менее, разработка аппаратно-программных комплексов (АПК) для МПС сопряжена с рядом технических трудностей, требующих особых навыков проектирования и не позволяющих полноценно унифицировать систему ввиду разработки программного обеспечения для отдельных линий. Кроме того, интеграция МПС в уже построенных участках требует их выключения из технологического процесса на период реконструкции, приводя к существенным финансовым потерям из-за простоя. В рамках исследования проведён анализ замены релейно-контактных схем методом интеграции микропроцессорных и нейросетевых технологий, с целью разработки адаптивных алгоритмов управления, способных минимизировать затраты на индивидуальное проектирование и повысить отказоустойчивость систем.

Перспективы применения нейросетевых технологий в станционных системах автоматики и телемеханики.

Развитие искусственного интеллекта на фоне совершенствования вычислительных средств и методов математического моделирования становится альтернативой методам классического построения алгоритмов. Преимущества нейросетевых технологий заключаются в унификации их архитектуры, позволяющей ускорить проектирование отдельных узлов управления, что представляет особую важность для МПС.

Проектирование нейронной сети начинается с выбора её архитектуры. Простейшие представители – однослойные перцептроны (рис. 1) отлично справляются с решением элементарных линейных задач (линейными алгоритмами и простейшими логическими функциями). С более сложными задачами требуются более сложные модели многослойных нейронных сетей (рис. 2). Расширение архитектуры (увеличение количества слоёв) и углубление слоёв (добавление нейронов) позволяют сети выделять иерархические признаки. На первых слоях сеть обнаруживает простые элементы — края и углы объектов. На средних слоях выделяются текстуры и повторяющиеся узоры. На последних слоях

формируются сложные признаки — например, глаза или колёса автомобиля.

Этот принцип лежит в основе свёрточных нейронных сетей (CNN), которые эффективно решают задачи обработки изображений. Например, CNN распознаёт цифры на почтовых индексах, идентифицирует лица в системах безопасности или детектирует дефекты на производственных линиях. Разработка рекуррентных, в частности LSTM-нейронных сетей положила начало автоматизации отдельных процессов, наглядным примером которых является транскрибация аудиосообщений, обработка видео и характеристик приходящего сигнала (частота, временные параметры) в системах энергетики.

Чрезмерное расширение архитектуры нейронной сети может привести к переобучению. В этом случае модель идеально запоминает обучающую выборку, включая шум и случайные вариации данных, но теряет способность обобщать на новые примеры. На тестовой выборке точность резко падает, а в реальных условиях эксплуатации сеть даёт ошибочные прогнозы.

Например, если обучать CNN распознавать кошек на выборке из 1 000 изображений, где все кошки сидят на синем фоне, сеть может запомнить «синий фон = кошка» и ошибочно классифицировать синий диван как кошку.

Для предотвращения переобучения количество нейронов в слое определяется эмпирическим методом, начиная от малых значений, постепенно увеличивая до достижения нейронной сетью высокой точности решения задач, контролируя точность модели на выборке валидации. Оптимально начальные значения слоя i определяются, как среднее значение суммы количества нейронов предыдущего и следующего слоёв (1). Исходя из требований, предъявляемых к надёжности устройств автоматики и телемеханики, точность нейронной сети должна быть не ниже 99.99%.




Рис. 1. Структурная схема перцептрона





Рис. 2. Многослойная нейронная сеть

Краткие сведения о блочной маршрутной релейной централизации (БМРЦ).



Типовые проектные решения 501-0-98 «Схемы маршрутной релейной централизации МРЦ-13», разработанные в 1978 году Ленинградским проектно-исследовательским институтом по проектированию сигнализации, централизации, связи и радио на железнодорожном транспорте «Гипротрансигнализация» – документ, стандартизирующий автоматизированные системы управления станционными объектами. Разработанные в проекте схемы направлены на исключение ошибок действия персонала, проверку условий безопасности перед открытием сигнала, проверку соответствия и замыкание стрелок и сигналов в устанавливаемом маршруте и его размыкания, после прохождения состава. Схемы управления стрелками и сигналами решения заключения в блоки наборной и исполнительной группы, для упрощения проектирования и монтажа. Группы наборной группы, отвечающие за фиксацию набранного маршрута, соединяются по 4-проводной схеме управления.

В рамках исследования проведён анализ блока наборной группы определения направления и категории маршрутов (НН).

2. Методика исследования

Математическое описание принципов работы нейронной сети.

Обучение нейронной сети – процесс, подразумевающий настройку её параметров. Данный шаг необходим для минимизации ошибки, освоения навыков поиска скрытых закономерностей тремя различными методами. Обучение с учителем заключается на решении задач с неким абстрактным объектом, предоставляющим ответы. Другой метод – обучение без учителя «заставляет» нейронную сеть строить закономерности, не предоставляя правильные ответы. Обучение с подкреплением. Метод обучения сети на основе «кнута и пряника». Искусственный интеллект получает награду за правильные ответы и штрафные баллы за ошибки. Любой из вышеуказанных методов состоит из нескольких шагов. Первым этапом производится **расчёт прямого распространения**. На данной стадии определяются зависимости выходных значений от векторов входных параметров, весов и смещений. Например, для линейной архитектуры справедливы следующие векторы входа X , весов W , смещений B и слоя Z_i (1, 2.1, 2.2, 3.1, 3.2, 4):

$$X = \begin{bmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \dots \\ x_n \end{bmatrix} \quad (1)$$

$$W_i = \begin{bmatrix} w_{11} & w_{21} & \dots & w_{m1} \\ w_{12} & w_{22} & \dots & w_{m2} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ w_{1n} & w_{2n} & \dots & w_{mn} \end{bmatrix} \quad (2.1)$$

$$W = [W_1 \ W_2 \ \dots \ W_i] \quad (2.2)$$

$$B_i = \begin{bmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \dots \\ b_m \end{bmatrix} \quad (3.1)$$

$$B = [B_1 \ B_2 \ \dots \ B_i] \quad (3.2)$$

$$Z_i = W_i \times X_{i-1} + B_1 \quad (4)$$

Полученные результаты имеют разброс в неограниченных пределах. в ряде задач такой разброс излишен и требует ограничения значений выводов в

пределах $[Z_{min} \ \dots \ Z_{max}]$. для этого применяют функции активации, выбор которых определяется исходя из поставленной задачи (5).

$$Y_i = f_A(Z_i) \quad (5)$$

Следующим этапом происходит **выбор функции потерь**, с целью определения качества работы нейронной сети. Методика алгоритма предполагает сравнение эталонных значений y_i с фактически полученными на выходе нейронной сети $\bar{y}_i$. На сегодняшний день разработаны различные виды функций. Прогнозирование предсказаний, применяемое, в сферах метеосводок, финансах, энергетике, промышленности и других сферах применяют Среднеквадратичную ошибку (MSE) или более устойчивую к выбросу данных MAE - среднюю абсолютную ошибку (6, 7). Для задач классификации, актуальных в сфере фото- и видеофиксации, сложных бинарных операциях науке и так далее, уместно говорить о функциях бинарной и категориальной кросс-энтропии (8, 9).

$$MSE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y}_i)^2 \quad (6)$$

$$MAE = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n |y_i - \bar{y}_i| \quad (7)$$

$$BCE = -[y_i * \lg(\bar{y}_i) + (1 - y_i) * \lg(1 - \bar{y}_i)] \quad (8)$$

$$CCE = - \sum_{i=1}^n y_i * \lg(\bar{y}_i) \quad (9)$$

где n – количество классов.

Метод обратного распространения ошибки (Backpropagation) – наиболее распространённый алгоритм вычисления зависимости изменения ошибки от изменения весов и смещений. Задачей является нахождения локального минимума, при котором функция отвечает требованиям точности. Вычисление производных матриц весов W_i и смещений B_i слоя i производится в порядке противоположном методу прямого распространения (10-12).

$$\frac{dC_i}{dW_i} = \frac{dC_i}{df_i} * \frac{df_i}{dZ_i} * \frac{dZ_i}{dW_i} \quad (10)$$

$$\frac{dC_i}{dB_i} = \frac{dC_i}{df_i} * \frac{df_i}{dZ_i} * \frac{dZ_i}{dB_i} \quad (11)$$

$$\frac{dC_i}{dX_i} = \frac{dC_i}{df_i} * \frac{df_i}{dZ_i} * \frac{dZ_i}{dX_i} \quad (12)$$

Полученные выше расчёты позволяют перейти к следующему этапу – **обновлению весов и смещений**. Данный шаг направлен на достижение стабилизации весов и смещений, направленное на создание чётких границ принятия решений, без учёта шумов, а также корректной обработки новых, ранее не встречавшихся данных. Важно понимать, что обучение нейронной сети тесно связано с различными методами оптимизации, определяющими скоростью её обучения η , как показатель эффективности обучения самообучающегося алгоритма, в зависимости от времени (13, 14). Чем выше значение скорости обучения, тем быстрее нейронная сеть обучается на начальном этапе, однако, точность такого значения снижается с каждой итерацией. Слишком низкие значения препятствуют обучению нейронных сетей.



$$W'_i = W_i - \eta * \frac{dC_i}{dW_i} \quad (13)$$

$$B'_i = B_i - \eta * \frac{dC_i}{dB_i} \quad (14)$$

Как было сказано выше, скорость обучения определяется методами её оптимизации. Простейшим из них является установка большого значения скорости в начале обучения, с постепенным уменьшением данного значения. Тем не менее широко применимы и другие методы выбора рационального параметра скорости обучения нейронной сети:

- Пакетный градиентный спуск – применяет весь обучающий набор данных, для вычисления обучающего градиента, что гарантирует минимизацию ошибки, но сильно замедляет процесс обучения.
- Стохастический градиентный спуск – использует случайные примеры из обучающего набора, чем обусловлен высокий уровень шумов
- Mini-batch градиентный спуск – более оптимальный вариант, обеспечивающий компромисс между скоростью и точностью обучения нейронной сети. Использует небольшие случайные поднаборы данных (батчи).
- Адаптивные методы – алгоритмы автоматической настройки весов и смещений, меняющие скорость обучения индивидуально для каждого параметра нейронной сети.

Помимо вышеупомянутых методы, с целью повышения качества обобщающей способности нейронной сети применяют регуляризацию – методы направленные на предотвращение переобучения нейронной сети и нормализацию – приведение к единому масштабу всех входных значений, с целью равномерного распределения приоритета входных признаков.

Анализ работы блока определения направления и категории маршрутов.

Блок определения направления и категории маршрутов - фиксация устанавливаемого маршрута, путём коммутации шин направления: Н, НМ, Ч, ЧМ, ТН, ТНМ, ТЧ, ТЧМ, ИН, ИНМ, ИЧ, ИЧМ, а также шины схем индикации направления на пульте табло. С этой целью, в схеме блока предусмотрены 6 реле: поездные – «П», «О», маневровые – «ПМ», «ОМ», вспомогательные – «ВПМ», «ВОМ», контактами которых коммутируются шины направления. Каждое реле имеет свои временные характеристики, представленные в таблице 1.

Таблица 1
Временные характеристики реле

Наименование реле в блоке	Тип реле	Время замедления на притяжение (с)	Время замедления на отпускание (с)
ВПМ	КДР1-280	-	-
ВОМ	КДР1-280	-	-
П	КДР1М-120	-	0,15
О	КДР1М-120	-	0,15
ПМ	КДР1М-120	-	0,15
ОМ	КДР1М-120	-	0,15

Алгоритм работы блока при установке маршрута маневрового маршрута отправления. При установке маршрута отправления поезда со станции, производится проверка отключения реле других направлений и категорий («П», «О»). После чего активируется реле «ОМ» (15 – 19). Реализация схемы на логических элементах представлена на рисунке 4.

$$om = \bar{P} \& \bar{O} \& 110(M) \quad (15)$$

$$f(OM) = 29 \& ВПМ \& OM \& om \quad (16)$$

$$f(OM) = 29 \& ВОМ \& \bar{P} \& om \quad (17)$$

$$f(OM) = 210 \& OM \& om \quad (18)$$




Рис. 4 Логическая схема включения реле «ОМ»

После включения реле «ОМ» активируются шины соответствующие шины коммутации маршрута приёма.

Алгоритм работы блока при установке маршрута поездного маршрута приёма. При установке маршрута отправления поезда со станции, производится проверка отключения реле других направлений и категорий («П», «О»). После чего активируется реле «ПМ» (19 – 22). Реализация схемы на логических элементах представлена на рисунке 4.

$$pm = \bar{P} \& \bar{O} \& 110(M) \quad (19)$$

$$f(PM) = 29 \& ВОМ \& ПМ \& pm \quad (20)$$

$$f(PM) = 29 \& ВПМ \& \bar{O} \& pm \quad (21)$$

$$f(PM) = 210 \& OM \& pm \quad (22)$$

После включения реле «ПМ» активируются шины соответствующие шины коммутации маршрута приёма.




Рис. 5 Логическая схема включения реле «ПМ»

Реализация архитектуры нейронной сети.

Включение реле направления активирует соответствующие шины коммутации маневрового маршрута.

$$a = \begin{pmatrix} a_1 \\ a_2 \\ \vdots \\ a_m \end{pmatrix} \quad (25)$$

Пропуск входного параметра a , через маску из m случайных величин Бернулли, обеспечивает выключение части нейронов слоя с вероятностью обнуления активации p (26):

$$m_i = \begin{cases} 1, & \text{при } 1 - p \\ 0, & \text{при } p \end{cases} \quad (26)$$


Тогда на выходе получим следующий слой активаций:

$$a' = a \odot m \quad (27)$$

На этапе предсказания получаем:

$$a_{final} = a * (1 - p) \quad (28)$$

С целью сохранения точности в момент



предсказания, хорошей практикой стало применение inverted dropout, пропускающий слой активации, прошедший через маску (28), через коэффициент масштабирования обратный вероятности отключения (29):

$$a' = \frac{a \odot m}{1 - p} \quad (29)$$

На этапе предсказания получим (30)

$$a_{final} = a \quad (30)$$

Для функции активации нейронов скрытого слоя справедливы следующие равенства:

$$z_A = w_A * a + b_A \quad (31)$$

$$f_A(z_A) = \max(0, z_A) \quad (32)$$

Функция активации выходного слоя нейронов определяется следующими выражениями.

$$z_O = w_O * x + b_O \quad (33)$$

$$f_O(z_O) = \frac{1}{1 + e^{-z_O}} \quad (34)$$

Расчёт функции потерь и методы обучения.

Функция бинарной кросс-энтропии (35.1, 35.2), выбранная как метод определения потерь, позволяет определить степень ошибки, что важно, для расчёта точности нейронной сети.

$$C_i = y_i * \log(f_{oi}) + (1 - y_i) * \log(1 - f_{oi}) \quad (35.1)$$

$$L(\theta) = - \frac{\sum_{i=1}^N C_i}{N} \quad (35.2)$$

где

N – размер батча

y_i – истинное значение

f_{oi} – предсказание сети

θ – множество всех обучаемых параметров сети

Уменьшающиеся (исчезающие) градиенты рекуррентных нейронных сетей, при обратном распространении ошибки, являются большой проблемой, приводящей к сильному замедления обучения, вплоть до полной остановки, или наоборот его нестабильности. С целью решения данной задачи применяют оптимизаторы. В описываемом исследовании применяется оптимизатор Adam, обеспечивающий более быструю сходимость и высокую надёжность, для рекуррентных сетей, благодаря своим характеристикам (36).

$$g_t = \nabla_{\theta} L(\theta_{t-1}) = \begin{pmatrix} \frac{dL}{d\theta_1} \\ \frac{dL}{d\theta_2} \\ \vdots \\ \frac{dL}{d\theta_n} \end{pmatrix} \quad (36)$$

где θ – вектор всех обучаемых параметров сети (весов и смещений).

Оценка среднего градиента, показывающая значение и вектор ошибки, обеспечивает стабилизацию обучения за счёт сглаживания шума, ускорения сходимости и нивелирования столкновений с локальными минимумами (37).

$$m_t = \beta_1 * m_{t-1} + (1 - \beta_1) * g_t \quad (37)$$

где β_1 – коэффициент затухания.

$$v_t = \beta_2 * v_{t-1} + (1 - \beta_2) * g_t^2 \quad (38)$$

где β_2 – коэффициент затухания.

Оценка дисперсии (38) показывает разброс

градиентов по каждому параметру. Чем ниже градиент, тем стабильнее система.

Нулевые значения векторов m_t и v_t , на этапе инициализации, приводят к систематическому занижению оценок моментов на начальных шагах обучения, что приводит к значительному увеличению шага. Данная особенность оказывает положительное влияние на начальных этапах, но в дальнейшем снижает эффективность и скорость обучения. С целью нивелирования данных недостатков применяют коррекцию смещений (39, 40)

$$\widehat{m}_t = \frac{m_t}{1 - \beta_1^t} \quad (39)$$

$$\widehat{v}_t = \frac{v_t}{1 - \beta_2^t} \quad (40)$$

где $\widehat{m}_t$, $\widehat{v}_t$ – несмещённые оценки среднего градиента и дисперсии.

Обновление весов и смещений происходит на основе вышеописанных расчётов, исходя из начальных данных и определяются выражением (40):

$$\theta_t = \theta_{t-1} - \alpha * \frac{\widehat{m}_t}{\sqrt{\widehat{v}_t} + \varepsilon} \quad (41)$$

где $\varepsilon = 10^{-8}$ – значение, введённое для предотвращения деления на 0;

α – скорость обучения нейронной сети (42), вычисляемая, для каждого параметра θ_t индивидуально.

$$\theta_t = \theta_{t-1} - \alpha * \frac{\widehat{m}_t}{\sqrt{\widehat{v}_t} + \varepsilon} \quad (42)$$

3. Заключение

Исходя из проведённых исследований, разумно предположение о перспективности применения нейросетевых технологий в качестве метода усовершенствования систем БМРЦ на высокоскоростных участках. В частности, применение микропроцессорных технологий с интегрированными LSTM-нейронных сетей, рассмотренными в данной статье, позволить отказаться от морально устаревших и исчерпавших свой ресурс устройств на релейно-контактной логике. Алгоритмы, применяемые при написании кода нейронной сети более компактны, в сравнении с традиционными методами их построения. При этом, их применение не оказывает отрицательного содействия на качество обработки сигнала. Переход к нейросетевым решениям может повысить гибкость и адаптивность систем управления и контроля за объектами железнодорожной автоматики и телемеханики.

Использованная литература / References

- [1] Efanov, D. V., Pogodina, T. S., Aripov, N. M., Boltayev, S. T., Azizov, A. R., Ametova, E. K., & Shakirova, F. F. (2025). Combinational Circuits Testing Based on Hsiao Codes with Self-Dual Check Functions. *Computation*, 13(1), 15. <https://doi.org/10.3390/computation13010015>.
- [2] Aripov N., Sadikov A., Ubaydullayev S. Intelligent signal detectors with random moment of appearance in rail lines monitoring systems //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 264.



[3] Muhiddinov, O., & Boltayev, S. (2023). Route management modeling of high-speed trains on the train dispatcher section. In E3S Web of Conferences (Vol. 376). EDP Sciences.
<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337604033>

[4] Azizov, A., Ametova, E., Nuriddinov, Q., Ubaydullayev, S. Development, research of a model and an algorithm for organizing data transfer in a monitoring device E3S Web of Conferences, 2023, 371, 03069

[5] Сапожников В.В., Никитин А.Б. Микропроцессорная система электрической централизации МПЦ-МПК. Наука и транспорт. – СПб.: Издательский дом ООО «Т-ПРЕССА», 2009. – С18-21.

[6] Chen K., Miles I. C. ITS Handbook 2000: Recommendations for the World Road Association (PIARC). — Boston; London: ArtechHouse, 1999. - 434 p.

[7] Лупал Николай Васильевич. Развитие устройств СЦБ в период промышленного капитализма (1861-1900). Автоматика на транспорте 2016 год, том 2 №4, Санкт-Петербург, ФГБОУ ВО «Петербургский государственный университет путей сообщения Императора Александра I», 2016 год, стр. 624 – 634.

[8] Казаков А.А., Бубнов В.Д., Казаков Е.А. Станционные устройства автоматики и телемеханики. Москва «ТРАНСПОРТ» – 1990. ISBN: 5-277-00951-5, УДК: 656.25:656.21(075.32), 431 стр.

[9] Сороко В.И., Разумовский Б.А. Аппаратура железнодорожной автоматики и телемеханики: Справочник. Том 1, 2-е изд., переработанное и дополненное — В 2-х т. — М.: Транспорт, 1981. — 352 с.

[10] Львов Федор Алексеевич, ТИПЫ И ПРИМЕНЕНИЕ НЕЙРОННЫХ СЕТЕЙ, Сборник публикаций научного журнала "Chronos" «Естественные и технические науки в современном мире» Выпуск 2 (24): г. Москва: сборник со статьями (уровень стандарта, академический уровень). — М: Научный журнал "Chronos", 2019.– с. 25-31

[11] Макаров И.М. Искусственный интеллект и интеллектуальные системы управления / И.М. Макаров, В.М. Лохин, С.В. Манько, М.П. Романов ; [отв. ред. И.М. Макарова] ; Отделение информ. технологий и вычислит.

систем РАН. - М.: Наука, 2006. - 333 с. - ISBN 5-02-033782-X (в пер.).

[12] Neural Networks and Deep Learning by Michael Nielsen /[Электронный ресурс]. – Режим доступа, URL: https://faultan.ru/articles/simple_about_complicated/simple_elm_delay/ (дата обращения: 15/04/2026).

[13] Deep Learning, Видеокурс по нейронным сетям. Youtube канал «3Blue1Brown translated by Sciberia» /[Электронный ресурс]. – Режим доступа, URL: <https://www.youtube.com/watch?v=RJCiyBAaIEI&list=PLZjXXN70PH5itkSPe6LTS-yPy15soOovc> (дата обращения: 15/04/2026).

[14] Нейронные сети, путь к триумфу, Видеокурс по нейронным сетям. Youtube канал «Selfedu» /[Электронный ресурс]. – Режим доступа, URL: <https://www.youtube.com/watch?v=PvXDWPVJUPg&list=PLA0M1Bcd0w8xUIMIPSoiW05lDyPNPt4tf> (дата обращения: 15/04/2026).

Информация об авторах/ Information about the authors

Азизов
Асадулла
Рахимович /
Asadulla
Azizov
Ташкентский государственный
транспортный университет,
профессор кафедры
«Автоматика и телемеханика»
E-mail:
azizov.asadulla@mail.ru
Тел: +998935395421
<https://orcid.org/0000-0002-5652-9611>

Бондаренко
Иван
Викторович /
Ivan
Bondarenko
Ташкентский государственный
транспортный университет,
PHD-докторант кафедры
«Автоматика и телемеханика»
E-mail:
bondarenko.ivan98@gmail.com
Тел: +998935428713



Sensor data-based assessment of waste container conditions and automation of regional services

S. Ochilova¹^a, A. Norboboev¹

¹Karshi State Technical University, Karshi, Uzbekistan

Abstract: This paper develops an IoT-based smart waste management system for segregating household waste into wet, dry, and metallic categories, remotely monitoring container fill levels, and automatically notifying responsible personnel when a predefined threshold is exceeded. The proposed solution integrates an inductive metal sensor, moisture sensor, ultrasonic distance sensor, ESP32 microcontroller, server-side database, geospatial dashboard, and bot-based alert module. A sequential decision rule is introduced in which metallic objects are detected before moisture-based classification, while the fill level is estimated from the measured distance between the sensor and the waste surface. The software prototype supports regional registration and grouping of waste collection points, map-based visualization, device-status monitoring, and location-linked notifications. Functional verification confirmed the coordinated operation of the principal modules.

Keywords: Internet of Things, smart waste management, waste segregation, wet waste, dry waste, metal detection, fill-level monitoring, geospatial dashboard, bot notification

Chiqindi konteynerlari holatini sensor ma'lumotlari asosida baholash va hududiy xizmatni avtomatlashtirish

Ochilova S.¹^a, Norboboyev A.¹

¹Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada IoT sensorlari asosida maishiy chiqindilarni ho'l, quruq va metall turlariga ajratish, konteynerlarning to'lish darajasini masofadan kuzatish hamda to'lish chegarasi oshganda mas'ul xodimga avtomatik xabar yuborishga mo'ljallangan aqlli chiqindi boshqaruv tizimi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan yechim induktiv metall sensori, namlik sensori, ultratovush masofa sensori, ESP32 mikrokontrolleri, server ma'lumotlar bazasi, geografik monitoring paneli va bot-xabarnoma modulini yagona arxitekturaga birlashtiradi. Chiqindini tasniflashda metallni birinchi tekshiruvchi ketma-ket qaror qoidasi, konteyner to'lishini baholashda esa sensor va chiqindi yuzasi orasidagi masofaga asoslangan matematik model taklif etilgan. Dasturiy prototipda chiqindi yig'ish nuqtalarini hududiy guruhlash, xaritada ko'rsatish, qurilma holatini kuzatish va belgilangan to'lish darajasida manzilga bog'langan xabar yuborish funksiyalari amalga oshirilgan. Funksional sinovlar tizim modullarining o'zaro bog'langan holda ishlashini tasdiqladi.

Kalit so'zlar: Internet buyumlari, aqlli chiqindi boshqaruvi, chiqindini saralash, ho'l chiqindi, quruq chiqindi, metallni aniqlash, to'lish darajasi, geografik monitoring, Telegram bot

1. Kirish

Shahar va qishloq hududlarida maishiy chiqindilarni o'z vaqtida yig'ish, saralash va olib chiqish ekologik xavfsizlik hamda sanitariya holatini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. An'anaviy boshqaruvda konteynerlar ko'pincha belgilangan jadval asosida tekshiriladi. Bunday yondashuv konteyner hali to'lmagan bo'lsa ham transport yuborilishiga yoki aksincha, tez to'lgan nuqtada xizmatning kechikishiga olib kelishi mumkin. Natijada ortiqcha yo'l, yoqilg'i va mehnat sarfi yuzaga keladi, to'lib ketgan konteyner esa atrof-muhit va aholi salomatligi uchun salbiy omilga aylanadi.

O'zbekistonda chiqindilar bilan ishlash sohasini raqamlashtirish, GPS monitoringi, yagona axborot tizimlari va onlayn murojaat xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda chiqindilarni boshqarish tizimini raqamlashtirish, maxsus transport vositalarini GPS orqali nazorat qilish, elektron billing va hududiy monitoring mexanizmlarini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Bu jarayonlar joylardagi chiqindi konteynerlaridan olinadigan real vaqt ma'lumotlarini boshqaruv tizimlariga uzatadigan arzon va moslashuvchan IoT yechimlariga ehtiyojni oshiradi.

^a <https://orcid.org/0009-0003-5965-5933>



Internet buyumlari texnologiyasi fizik obyekt holatini sensorlar orqali o'lish, ma'lumotni tarmoq orqali uzatish va dasturiy platformada avtomatik qaror qabul qilish imkonini beradi. Aqlli chiqindi tizimlarida ultratovush sensorlari konteynerning to'lish darajasini, namlik sensori chiqindining ho'l yoki quruqligini, induktiv sensor esa metall buyum mavjudligini aniqlashi mumkin. Mikrokontroller ushbu signallarni qayta ishlab, aktuatorlarni boshqaradi va serverga standartlashtirilgan ma'lumot paketini yuboradi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - chiqindilarni ho'l, quruq va metall turlariga avtomatik ajratish, konteynerlarning to'lish darajasini real vaqt rejimida baholash, chiqindi nuqtalarini hududiy xaritada kuzatish hamda belgilangan chegaraga yetganda bot orqali avtomatik xabarnoma yuboruvchi integratsiyalashgan tizimni ishlab chiqishdir. Tadqiqotning ilmiy-amaliy hissi alohida sensor funksiyalarini emas, balki saralash, monitoring, geografik vizualizatsiya va manzilga bog'langan ogohlantirishni yagona boshqaruv siklida birlashtirishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Muallif **Michael Edwardsning** "Algoritmik Aqlli chiqindi boshqaruvi bo'yicha tadqiqotlar asosan besh yo'nalishda rivojlangan: konteyner to'lishini masofadan kuzatish, kam quvvatli aloqa tarmoqlari, avtomatik ogohlantirish, chiqindini sensor yoki tasvir asosida tasniflash hamda yig'ish marshrutini optimallashtirish. Cerchecci va hammualliflar ultratovush sensori hamda LoRa aloqa moduliga asoslangan kam quvvatli sensor tugunini taklif etib, uzoq muddatli avtonom ishlash uchun apparat va dasturiy energiya tejash usullarini tahlil qilgan [2]. Lozano va boshqalar LoRaWAN tugunlari, to'lish hajmi, og'irlik va harorat ma'lumotlarini yig'ish hamda ularni transport marshrutini optimallashtirish bilan bog'lagan [3].

Vishnu va hammualliflarning arxitekturasida jamoat joylari va xonadon konteynerlari uchun turli sensor tugunlari hamda markaziy monitoring paneli taklif qilingan [4]. Soh va hammualliflar konteyner to'lganda avtomatik ogohlantirish yuboradigan sodda va amaliy tizimni ishlab chiqqan [5]. Ushbu ishlar real vaqt ma'lumoti chiqindi yig'ish qarorlarini jadvaldan holatga asoslangan boshqaruvga o'tkazishini ko'rsatadi.

Chiqindini manbada saralash bo'yicha Lingaraju va hammualliflar namlik va metall sensorlari orqali chiqindini ho'l, quruq va metall kategoriyalariga ajratish, joylashuv va havo sifatini kuzatish imkoniyatini bir tizimda birlashtirgan [6]. Suvarnamma va Adi metall, plastik va shisha chiqindilarni saralash bilan birga hosil bo'lgan chiqindi miqdorini serverda qayd etuvchi SmartBin tizimini taklif qilgan [7]. Bu tadqiqotlar qayta ishlanadigan material sifatini oshirish uchun saralash jarayonini chiqindi hosil bo'lgan nuqtaning o'zida boshlash zarurligini tasdiqlaydi.

Tasvirga asoslangan usullarda Wang va hammualliflar chuqur o'rganish, bulutli hisoblash va IoT monitoringini birlashtirib, chiqindini bir nechta kategoriyaga ajratish konsepsiyasini ishlab chiqqan [8]. Rahman va boshqalar ham CNN modeli va IoT arxitekturasidan foydalanib, chiqindini real vaqt rejimida tasniflash imkoniyatini ko'rsatgan [9]. Biroq kamera va chuqur o'rganish modellariga yorug'lik, fon, tasvir bazasi va hisoblash resurslari kuchli ta'sir qiladi. Shu sababli arzon prototipning birinchi bosqichida sensorli uch sinfli tasniflash, keyingi bosqichda esa kamera orqali quruq chiqindini qog'oz, plastik, shisha kabi kichik sinflarga ajratish maqsadga muvofiq.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ko'plab xorijiy ishlarda saralash, to'lish monitoringi, xarita, bot-xabarnoma va xizmat ko'rsatish natijasini qayd etish alohida modullar sifatida ko'rilgan. Mahalliy kommunal sharoit uchun esa bu funksiyalarni bitta operatsion platformada birlashtirish, internet uzilishlari, sensor ifloslanishi, texnik xizmat va operator uchun tushunarli interfeys masalalarini birgalikda hal qilish zarur.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Dastlab an'anaviy chiqindi boshqaruv tizimlarida uchraydigan axborot uzatishdagi kechikishlar, chiqindilarni saralash mexanizmlarining yetarli emasligi hamda konteynerlarning to'lish holatini tezkor aniqlash bilan bog'liq muammolar kompleks ravishda o'rganildi. Keyingi bosqichda tizimning apparat va dasturiy komponentlari funksional qatlamlarga ajratilib, sensorlardan keluvchi ma'lumotlarni yig'ish, uzatish, qayta ishlash va ular asosida avtomatik qaror qabul qilish algoritmlari ishlab chiqildi. Yakuniy bosqichda yaratilgan prototipning asosiy funksiyalari oldindan belgilangan nazorat ssenariylari asosida sinovdan o'tkazilib, uning ishlash barqarorligi, ma'lumotlarni uzatish izchilligi va avtomatik xabarnoma mexanizmining samaradorligi baholandi.

Tizim to'rtta qatlamdan tashkil topadi: 1) sensor va aktuatorli aqlli konteyner qatlami; 2) ESP32 asosidagi mahalliy boshqaruv qatlami; 3) Wi-Fi, GSM yoki LoRa orqali ma'lumot uzatish qatlami; 4) server, ma'lumotlar bazasi, geografik panel va bot-xabarnomadan iborat amaliy qatlam. Modulli tuzilma laboratoriya sharoitida Wi-Fi, uzoq joylashgan nuqtalarda esa GSM yoki LoRa aloqa texnologiyasidan foydalanish imkonini beradi.


Har bir chiqindi nuqtasi tizimda noyob identifikator, nom, geografik koordinata, hududiy guruh, mas'ul xizmat va qurilma holati bilan ro'yxatdan o'tkaziladi. Sensor hodisasi serverga qurilma identifikatori, chiqindi sinfi, to'lish foizi, vaqt belgisi va holat kodi ko'rinishida uzatiladi. Bunday format turli qurilmalardan kelayotgan ma'lumotlarni bir xil tuzilishda saqlash va xaritada ko'rsatish imkonini beradi.

- Chiqindi turini aniqlash ketma-ket qaror qoidasi asosida bajariladi. Avval induktiv sensor metall xususiyatiga ega obyektni tekshiradi. Metall aniqlansa, servo yoki yo'naltiruvchi mexanizm obyektni metall konteyneriga yuboradi. Metall signal kuzatilmasa, namlik sensori o'lchovi belgilangan τ chegarasi bilan solishtiriladi. Namlik qiymati chegaradan yuqori bo'lsa obyektni ho'l, aks holda quruq chiqindi sifatida tasniflanadi.

Metallni birinchi tekshirishning sababi shundaki, nam yoki elektr o'tkazuvchan metall buyum namlik sensorida yuqori qiymat hosil qilib, ho'l chiqindi sifatida noto'g'ri tasniflanishi mumkin. Ketma-ket algoritm ushbu xatoni kamaytiradi. Biroq τ universal qiymat emas; u sensor turi, kontakt maydoni, chiqindi harorati va muhit namligiga qarab tajriba orqali kalibrlanishi lozim.

Dasturiy platformada chiqindi yig'ish nuqtalari hudud, shahar yoki tuman, xizmat ko'rsatuvchi guruh va qurilma holati bo'yicha guruhlanadi. Xarita interfeysi operatorga obyektning joylashuvi, so'nggi ma'lumot vaqti, to'lish darajasi va aniqlangan chiqindi turini ko'rish imkonini beradi. Qurilma ma'lum vaqt davomida ma'lumot uzatmasa, u oflayn deb belgilanadi va texnik tekshiruv uchun alohida xabar shakllantiriladi.





1-rasm. Chiqindilarni sensorli tasniflash va hududiy monitoring qilishning IoT asosidagi integratsiyalashgan algoritmi

Konteyner to'lish chegarasiga yetganda server botga qurilma nomi, manzil, koordinata, to'lish foizi, vaqt va tavsiya etilgan harakatni o'z ichiga olgan xabar yuboradi. Xabar faqat 'konteyner to'ldi' ma'lumotini emas, mas'ul xodimga obyektning xaritada ochish va xizmat bajarilganini tasdiqlash imkonini ham berishi kerak. Bunday qayta aloqa hodisa hayotiy siklini - aniqlash, xabar berish, qabul qilish, xizmat ko'rsatish va yopish bosqichlarini raqamli qayd etadi.

Prototipda viloyat hududidagi chiqindi yig'ish nuqtalarini yagona platformada ro'yxatlash, ularni guruh va hudud bo'yicha ko'rsatish, to'lish hodisasini bot orqali yuborish hamda obyekt holatini yangilash funksiyalari amalga oshirilgan. Bu yechim oddiy xaritadan farqli ravishda sensor ma'lumotini operatsion harakatga aylantiradi.

3. Natija va muhokamalar

Ishlab chiqilgan prototipning funksional tekshiruvi alohida modullar emas, balki to'liq hodisa zanjiri bo'yicha amalga oshirildi. Sinov ssenariylari chiqindi nuqtasini ro'yxatdan o'tkazish, xaritada ko'rsatish, ho'l, quruq va metall obyektlarni ajratish, to'lish chegarasini aniqlash, bot orqali xabar yuborish va qurilma aloqasi uzilganda holatni yangilash jarayonlarini qamrab oldi.

Funksional sinovlar asosiy modullarning rejalashtirilgan ketma-ketlikda ishlashini ko'rsatdi. Metall obyektlarda induktiv sensor asosiy qarorni berdi; metall bo'lmagan obyektlar namlik qiymatiga ko'ra ho'l yoki quruq turga yo'naltirildi. To'lish darajasi belgilangan chegaradan

oshganda serverda hodisa yaratilib, bot-xabarnoma shakllantirildi. Xarita interfeysida nuqtaning holati yangilandi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ko'p sensorli tasniflash qoidasi bilan hududiy operatsion boshqaruv o'rtasidagi bog'lanishni formal ifodalashda namoyon bo'ladi. Tasniflash natijasi faqat mexanik yo'naltirish uchun emas, balki serverdagi statistik yozuv, konteyner holati va kelajakdagi qayta ishlash rejasini shakllantirish uchun ham ishlatiladi. To'lish darajasiga ketma-ket o'lchovlar medianasini qo'llash notekis chiqindi yuzasidan kelib chiqadigan yolg'on ogohlantirishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyat tizimning bosqichma-bosqich joriy etilishi bilan bog'liq. Dastlab muammosi ko'p va tez to'ladigan nuqtalarga sensor o'rnatish mumkin. Keyingi bosqichda butun hudud bo'yicha sensor tugunlari, LoRa yoki GSM aloqa, xizmat bajarilganini tasdiqlash va dinamik marshrut moduli qo'shiladi. Tizimning modulli tuzilishi mahalliy ishlab chiqariladigan korpus, arzon sensorlar va ochiq dasturiy vositalardan foydalanish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan yechim farosh yoki sanitar tozalash xodimini to'liq almashtirishga emas, takroriy tekshiruvni avtomatlashtirishga qaratilgan. Xodimlar to'lgan konteyner, nosoz sensor yoki xavfli holat haqida aniq manzilli ma'lumot oladi va vaqtini haqiqiy xizmat talab qiladigan obyektlarga yo'naltiradi.

Namlik sensori chiqindining kimyoviy yoki biologik turini aniqlamaydi; u faqat namlik bilan bog'liq fizik signal beradi. Nam karton, ho'l metall yoki elektr o'tkazuvchan

aralash materiallar xato tasniflanishi mumkin. Shu bois kalibrlash, sensor kontaktini standartlashtirish va shubhali holat uchun alohida kategoriya kiritish talab etiladi. Ultrasonik sensorning natijasiga konteyner shakli, chiqindi yuzasining burchagi, chang va namlik ta'sir qiladi.

Kelgusida kamera va yengil neyron tarmoq modeli orqali quruq chiqindini qog'oz, plastik, shisha va boshqa sinflarga ajratish, to'lish tarixiga asoslangan prognozlash, transport sig'imini hisobga oluvchi dinamik marshrut, harorat va tutun sensori orqali yong'in xavfini erta aniqlash rejalashtiriladi. Qimmatbaho metall yoki pirotexnik modda haqida funksiyalar 'aniq identifikatsiya' emas, 'shubhali obyekt yoki xavf belgisi bo'yicha erta ogohlantirish' sifatida ishlab chiqilishi kerak; yakuniy tasdiq maxsus asbob va mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi.

4. Xulosa

Maqolada IoT sensorlari asosida chiqindilarni ho'l, quruq va metall turlariga ajratish, konteyner to'lish darajasini aniqlash, chiqindi nuqtalarini hududiy xaritada kuzatish va to'lish chegarasi oshganda mas'ul xodimga avtomatik bot-xabarnoma yuborishga mo'ljallangan integratsiyalashgan tizim ishlab chiqildi.

Tizimda metall obyektini birinchi aniqlash va undan so'ng namlikka ko'ra ho'l-quruq tasniflash qoidasi taklif etildi. Konteyner to'lish darajasi ultratovush sensori bilan o'lgangan masofaga asoslangan matematik model yordamida baholandi, yolg'on xabarlarini kamaytirish uchun ketma-ket o'lchovlar medianasidan foydalanish tavsiya qilindi. Sensor, ESP32, server, ma'lumotlar bazasi, geografik panel va bot modullari yagona axborot oqimiga birlashtirildi.

Dasturiy prototipda chiqindi yig'ish nuqtalarini ro'yxatlash va guruhlash, xaritada ko'rsatish, ho'l-quruq-metall holatini qayd etish, to'lish darajasida xabar yuborish va qurilma holatini monitoring qilish funksiyalari tekshirildi. Olingan natijalar tizimning amaliy ishlash imkoniyatini ko'rsatdi. Keyingi bosqichda real konteynerlarda uzoq muddatli dala sinovlari o'tkazilib, tasniflash aniqligi, o'lchash xatosi, aloqa barqarorligi va xizmat xarajatlaridagi o'zgarish miqdoriy baholanishi lozim.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi PF-5-son "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
- [2] Cerchecci M., Luti F., Mecocci A., Parrino S., Peruzzi G., Pozzebon A. A Low Power IoT Sensor Node Architecture for Waste Management Within Smart Cities Context. *Sensors*. 2018;18(4):1282. <https://doi.org/10.3390/s18041282>
- [3] Lozano A., Caridad J., De Paz J.F., Villarrubia González G., Bajo J. Smart Waste Collection System with Low Consumption LoRaWAN Nodes and Route Optimization. *Sensors*. 2018;18(5):1465. <https://doi.org/10.3390/s18051465>
- [4] Vishnu S., Ramson S.R.J., Senith S., Anagnostopoulos T., Abu-Mahfouz A.M., Fan X.,

Srinivasan S., Kirubaraj A.A. IoT-Enabled Solid Waste Management in Smart Cities. *Smart Cities*. 2021;4(3):1004–1017. <https://doi.org/10.3390/smartcities4030053>

[5] Soh Z.H.C., Husa M.A.A.H., Abdullah S.A.C., Shafie M.A. Smart Waste Collection Monitoring and Alert System via IoT. *Proceedings of 2019 IEEE ISCAIE*. 2019:50–54. <https://doi.org/10.1109/ISCAIE.2019.8743746>

[6] Lingaraju A.K., Niranjanamurthy M., Bose P., Acharya B., Gerogiannis V.C., Kanavos A., Manika S. IoT-Based Waste Segregation with Location Tracking and Air Quality Monitoring for Smart Cities. *Smart Cities*. 2023;6(3):1507–1522. <https://doi.org/10.3390/smartcities6030071>

[7] Suvarnamma A., Jangampalli Adi P.A. SmartBin system with waste tracking and sorting mechanism using IoT. *Cleaner Engineering and Technology*. 2021;5:100348. <https://doi.org/10.1016/j.clet.2021.100348>

[8] Wang C., Qin J., Qu C., Ran X., Liu C., Chen B. A smart municipal waste management system based on deep-learning and Internet of Things. *Waste Management*. 2021;135:20–29. <https://doi.org/10.1016/j.wasman.2021.08.028>

[9] Rahman M.W., Islam R., Hasan A., Bithi N.I., Hasan M.M., Rahman M.M. Intelligent waste management system using deep learning with IoT. *Journal of King Saud University – Computer and Information Sciences*. 2022;34(5):2072–2087. <https://doi.org/10.1016/j.jksuci.2020.08.016>

[10] Baldo D., Mecocci A., Parrino S., Peruzzi G., Pozzebon A. A Multi-Layer LoRaWAN Infrastructure for Smart Waste Management. *Sensors*. 2021;21(8):2600. <https://doi.org/10.3390/s21082600>

[11] Ramson S.R.J., Moni D.J., Vishnu S., Anagnostopoulos T., Kirubaraj A.A., Fan X. An IoT-based bin level monitoring system for solid waste management. *Journal of Material Cycles and Waste Management*. 2021;23:516–525.

[12] Anagnostopoulos T., Zaslavsky A., Kolomvatsos K., Medvedev A., Amirian P., Morley J., Hadjieftymiades S. Challenges and Opportunities of Waste Management in IoT-Enabled Smart Cities: A Survey. *IEEE Transactions on Sustainable Computing*. 2017;2(3):275–289.

[13] Pardini K., Rodrigues J.J.P.C., Kozlov S.A., Kumar N., Furtado V. IoT-Based Solid Waste Management Solutions: A Survey. *Journal of Sensor and Actuator Networks*. 2019;8(1):5. <https://doi.org/10.3390/jsan8010005>

[14] Hannan M.A., Abdulla Al Mamun M., Hussain A., Basri H., Begum R.A. A review on technologies and their usage in solid waste monitoring and management systems: Issues and challenges. *Waste Management*. 2015;43:509–523.

[15] Sharma M., Joshi S., Kannan D., Govindan K., Singh R., Purohit H.C. Internet of Things (IoT) adoption barriers of smart cities' waste management: An Indian context. *Journal of Cleaner Production*. 2020;270:122047. <https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.122047>

[16] Ghahramani M., Zhou M., Molter A., Pilla F. IoT-Based Route Recommendation for an Intelligent Waste Management System. *IEEE Internet of Things Journal*. 2022;9(14):11883–11892. <https://doi.org/10.1109/JIOT.2021.3132126>

[17] Catania V., Ventura D. An approach for monitoring and smart planning of urban solid waste



management. IFAC Proceedings Volumes. 2014;47(3):8574–8579.

[18] Alkhathami M., Alshahrani M., Alqahtani A., et al. An Intelligent Waste Management Application Using IoT and a Genetic Algorithm–Fuzzy Inference System. Applied Sciences. 2023;13(6):3943. <https://doi.org/10.3390/app13063943>

[19] Ochilova S., Norboboyev A. Real-Time Waste Monitoring System Based on IoT Sensors. Academia Open. 2026;11(2):14969. <https://doi.org/10.21070/acopen.11.2026.14969>.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Ochilova Sojida
/ Sojida
Ochilova

Qarshi davlat texnika universiteti
“Kompyuter tizimlarining dasturiy
va texnik ta’minoti” kafedrası
katta o‘qituvchisi
E-mail:
sojida.ochilova28@gmail.com
Tel.: +998880950999
<https://orcid.org/0009-0003-5965-5933>

Norboboyev
Alibek /Alibek
Norboboev

Qarshi davlat texnika universiteti
talabasi



Current state and development prospects of heat-insulating cellular concrete for individual residential buildings

A.A. Gulomova¹ 

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The article analyzes the current state of heat-insulating cellular concrete intended for individual residential buildings, as well as its physical-mechanical and thermal properties and the main development trends. The classification of cellular concrete, its role in improving the energy efficiency of buildings, and the characteristics of modern production technologies are discussed. Based on a review of recent scientific studies, the main factors affecting the properties of cellular concrete and promising directions for improving production technologies and developing resource-efficient and environmentally friendly building materials are summarized. The analysis confirms the necessity of further research aimed at developing high-performance heat-insulating cellular concrete for individual residential buildings.

Keywords: individual residential buildings, cellular concrete, foam concrete, aerated concrete, thermal insulation, energy efficiency, roof structures, thermal conductivity, physical and mechanical properties, production technology, resource efficiency, sustainable construction

Individual turar joy binolari uchun issiqlik izolyatsiyalovchi g'ovak betonlarning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari

G'ulomova A.A.¹ 

¹Toshkent davlat transport universiteti, Tashkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada individual turar joy binolari uchun mo'ljallangan issiqlik izolyatsiyalovchi g'ovak betonlarning zamonaviy holati, ularning fizik-mexanik va issiqlik-texnik xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. G'ovak betonlarning tasnifi, energiya samaradorligini ta'minlashdagi o'rni va ishlab chiqarish texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida material xossalari ta'sir etuvchi asosiy omillar, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish hamda resurs tejamkor va ekologik xavfsiz qurilish materiallarini yaratishning istiqbolli yo'nalishlari umumlashtirilgan. Olib borilgan tahlillar individual turar joy binolarining yopma konstruksiyalari uchun yuqori samaradorlikka ega issiqlik izolyatsiyalovchi g'ovak betonlarni yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: individual turar joy binolari, g'ovak beton, ko'pikbeton, gazobeton, issiqlik izolyatsiyasi, energiya samaradorligi, yopma konstruksiyalari, issiqlik o'tkazuvchanligi, fizik-mexanik xossalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, resurs tejamkorlik, ekologik qurilish

1. Kirish

Qurilish sohasi iqtisodiyotning resurslarni eng ko'p iste'mol qiladigan tarmoqlaridan biri bo'lib, unda energiya samaradorligini ta'minlash masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Binolarning ekspluatatsiya davridagi energiya sarfining asosiy qismi ichki mikroiklimni me'yoriy darajada saqlashga sarflanadi. Shu sababli tashqi to'siq konstruksiyalarining issiqlik-texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash nafaqat energiya resurslarini tejash, balki bino ekspluatatsiyasi samaradorligini oshirish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Individual turar joy binolari qurilish hajmining ortib borishi, ulardan foydalanish muddatining uzoqligi hamda

energiya iste'molining yuqoriligi mazkur obyektlarda qo'llaniladigan qurilish materiallariga yangi talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa, tom va yopma konstruksiyalari orqali sodir bo'ladigan issiqlik almashinuvi binoning umumiy energiya balansiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, issiqlik yo'qotilishining salmoqli qismi aynan ushbu konstruktiv elementlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur holat yopma konstruksiyalar uchun yuqori issiqlik izolyatsiyalash xususiyatiga ega, mexanik ta'sirlarga bardoshli hamda uzoq muddat ekspluatatsiya qilinadigan materiallarni yaratishni taqozo etadi.

So'nggi yillarda yengil g'ovak betonlar energiya tejamkor qurilish materiallari sifatida keng qo'llanila boshladi. Ularning past zichligi, issiqlik o'tkazuvchanligining nisbatan kichikligi, yong'inga chidamliligi va texnologik qulayligi turli konstruksiyalarda

 <https://orcid.org/0009-0008-7695-0885>



foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Shu bilan birga, mavjud ko'pikbeton tarkiblarining aksariyatida mustahkamlik va issiqlik izolyatsiyasi o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash, suv shimuvchanligini kamaytirish, mikrostrukturani barqarorlashtirish hamda sement sarfini qisqartirish bilan bog'liq masalalar to'liq yechim topmagan.

Qurilish materiallari texnologiyasining rivojlanishida sanoat chiqindilarini ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash alohida ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Metallurgiya korxonalari hosil bo'ladigan po'lat eritish shlaki, ferritli nanoo'lchamli chiqindilar hamda organik modifikatorlardan oqilona foydalanish resurs tejamkorlikni ta'minlash bilan birga, sement kompozitsiyalarining strukturaviy shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuv tabiiy resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarish tannaxrini pasaytirish va ekologik yuklamani qisqartirish imkonini beradi.

Jahon ilmiy maktablarida g'ovak betonlarning fizik-mexanik va issiqlik-texnik xossalarini yaxshilashga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mineral qo'shimchalar, nanozarrachalar, kimyoviy modifikatorlar va sanoat chiqindilarining qo'llanishi bo'yicha muayyan natijalarga erishilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati muayyan iqlim sharoiti va xomashyo bazasiga moslashtirilgan. O'zbekiston sharoitida mavjud mahalliy resurslardan foydalanish imkoniyatlari, individual turar joy binolarining konstruktiv xususiyatlari hamda mintaqaning iqlim omillari hisobga olingan ilmiy tadqiqotlar esa hali yetarli darajada umumlashtirilmagan.

Mazkur holat individual turar joy binolarining yopma konstruksiyalari uchun mo'ljallangan issiqlik izolyatsiyalovchi g'ovak betonlarning zamonaviy holatini kompleks tahlil qilish, ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash hamda mahalliy xomashyo va sanoat chiqindilaridan foydalanishga asoslangan yangi tarkiblarni yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu maqolada g'ovak betonlarning rivojlanish bosqichlari, ularning asosiy xossalari, qo'llanilish imkoniyatlari va istiqbolli yo'nalishlari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yoritilib, energiya tejamkor qurilish materiallarini yaratishning dolzarb masalalari muhokama qilinadi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Qurilish tarmog'ida energiya samaradorligini oshirish masalasi alohida konstruktiv elementlarni takomillashtirish bilan cheklanmay, binoning barcha to'siq konstruksiyalarini yagona tizim sifatida baholashni talab etadi. Devorlar, tom, yopma konstruksiyalar, pol va deraza bloklarining issiqlik-texnik tavsiflari o'zaro bog'liq holda bino ichidagi mikroiklimni shakllantiradi. Mazkur elementlar orasida yopma konstruksiyalari tashqi muhitning quyosh radiatsiyasi, atmosfera yog'inlari va mavsumiy harorat o'zgarishlariga eng ko'p duchor bo'ladigan qism hisoblanadi. Shu sababli ularning issiqlik himoyasi energiya iste'molini kamaytirishda muhim o'rin egallaydi.

Yopma konstruksiyalar uchun qo'llaniladigan materiallar bir vaqtning o'zida bir necha funksiyani bajarishi lozim. Ular past issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lishi, konstruktiv yuklarni qabul qila olishi, namlik ta'sirida xossalarini yo'qotmasligi hamda atmosfera omillariga nisbatan barqaror bo'lishi zarur. Mazkur talablarning barchasini bitta materialda mujassamlashtirish murakkab ilmiy va texnologik vazifa hisoblanadi. Shu sababli so'nggi

yillarda yengil g'ovak betonlarga bo'lgan qiziqish tobora ortmoqda.

- [15] Юлдашева С, БўриходжаеваМ "Повышение эффективности таможенной деятельности в развитии международного экономического сотрудничества " international scientific and practical conference" the time of scientific progress" 2022/9/10 (87-91)
- [16] М.С.Бўрихаджаева«мамлакат "Иктисодиётида автомобил транспорти коридорларини ривожлантириш истикболлари» oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), jan., 2023й ст 338-345
- [17] М.С.Бўрихаджаева "Маркетинговый подход в деятельности предприятия " Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(4/2) апрель 2023 (653-661 бет).

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Burihodjayeva Maloxat Sobitovna / Malokhat Burikhodjaeva	Toshkent davlat transport universiteti "Transport logistikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi, E-mail: maloxatburixadjaeva@gmail.com https://orcid.org/0000-0002-9396-4428
--	---



Methods for analyzing complex electrical circuits

A.A. Rakhmonberdiyev¹ 

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

This article presents a detailed study and comparative analysis of three main methods for analyzing complex electrical circuits: the nodal potential method, the loop current method, and the state variable method. The analysis made it possible to identify the strengths and weaknesses of each method, as well as their applicability and efficiency under various conditions.

Despite the widespread use of the nodal potential method and the loop current method, they require the solution of parametric matrices and integro-differential equations, which makes their application labor-intensive and time-consuming. In contrast, the state variable method demonstrates high efficiency and accuracy in analyzing circuits with nonlinear elements by formulating a system of first-order differential equations without the need to process parametric matrices.

The state variable method significantly simplifies the analysis of complex electrical circuits and reduces computational time. Thus, this method is the most suitable for analyzing complex electrical circuits, providing fast and accurate evaluation with minimal resource consumption, which confirms its advantage for practical application in the field of automation and telemechanics in railway transport.

Keywords:

methods of analysis of complex electrical circuits, mathematical modeling, method of nodal potentials, method of loop currents, method of state variables, Kirchhoff's laws of currents and voltages, parametric matrix, topological matrix, transposed matrix

Murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullari

Raxmonberdiyev A.A.¹ 

¹Toshkent davlat transport universiteti, Tashkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Mazkur maqolada murakkab elektr sxemalarni tahlil qilishning uchta asosiy usuli: tugun potentsiallari usuli, kontur toklar usuli va holat o'zgaruvchilari usulining batafsil o'rganilishi va solishtirma tahlili amalga oshirildi. Tahlil har bir usulning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, ularning qo'llanilishi va samaradorligini turli sharoitlarda aniqlash imkonini berdi.

Tugun potentsiallari usuli va kontur toklar usulining keng qo'llanilishiga qaramay, ular parametrik matritsalarini va integratsion-differensial tenglamalarni yechishni talab qiladi, bu esa ularning qo'llanilishini mehnat talab qiladigan va vaqtni talab qiladigan holga keltiradi. Ulardan farqli o'laroq, holat o'zgaruvchilari usuli, chiziqli bo'lmagan elementlarga ega bo'lgan sxemalarni tahlil qilishda yuqori samaradorlik va aniqlikni namoyish etadi, parametrik matritsalarini qayta ishlashsiz birinchi tartibli differensial tenglamalar tizimini shakllantiradi.

Holat o'zgaruvchilari usuli murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va vaqt sarfini kamaytiradi. Shunday qilib, ushbu usul murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish uchun eng maqbul usul bo'lib, resurslarni minimal sarflab, tez va aniq baholashni ta'minlaydi, bu uning temir yo'l transportida avtomatika va telemexanika sohasida amaliy qo'llanish uchun afzalligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar:

murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullari, matematik modellash, tugun potentsiallari usuli, kontur toklar usuli, holat o'zgaruvchilari usuli, Kirxgofning tok va kuchlanish qonunlari, parametrik matritsa, topologik matritsa, transpozitsiyalangan matritsa


1. Kirish

So'nggi yillarda elektr energetika tizimlari, xususan, murakkab strukturaga ega elektr sxemalarni matematik modellash va tahlil qilish masalalari dolzarb ilmiy-texnik yo'nalishlardan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Bunday tizimlarning murakkabligi ularning tarkibida chiziqli va chiziqsiz elementlar, energiya to'plovchi reaktiv

komponentlar hamda o'zaro kuchli bog'langan tarmoqlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Shu sababli, elektr zanjirlarni aniq va ishonchli tahlil qilish uchun universal va samarali matematik usullarni qo'llash zarur hisoblanadi.

Hozirgi kunda murakkab elektr sxemalarni tahlil qilishda tugun potentsiallari usuli, kontur toklar usuli hamda holat o'zgaruvchilari usuli keng qo'llaniladigan asosiy

 <https://orcid.org/0009-0006-0585-7582>



klassik yondashuvlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu usullar elektr zanjirlarning statik va dinamik holatlarini modellashtirish, o'tish jarayonlarini tahlil qilish hamda barqarorlik mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning matematik asosini Kirxgof qonunlari hamda elementlarning volt-ampere xarakteristikalarini tashkil etadi [1-3].

Elektr sxemalarni formal ifodalashda graf nazariyasi muhim rol o'ynaydi, bunda sxema elementlari tugunlar va tarmoqlar orqali ifodalanadi. Yo'naltirilgan graf asosida shakllantirilgan model elektr zanjirning topologik tuzilmasini to'liq aks ettiradi. Ushbu topologik model asosida tugunlar va konturlar uchun inkidensiya hamda bog'lanish matritsalarini tuziladi, bu esa elektr zanjirni vektor-matritsali ko'rinishda ifodalash imkonini beradi.

Mazkur matematik yondashuvda elektr sxema tenglamalari parametrik matritsalar asosida shakllantiriladi, bunda har bir elementning fizik parametrlari (qarshilik, induktivlik, sig'im va boshqalar) alohida hisobga olinadi [1-3]. Natijada hosil bo'lgan yuqori tartibli algebrak va differensial tenglamalar tizimi zamonaviy sonli usullar yordamida yechiladi. Biroq, amaliy hisoblash jarayonida ushbu tizimlarning murakkabligi hisoblash resurslariga bo'lgan talabni oshiradi va algoritmik jihatdan sezilarli qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu nuqtayi nazardan, elektr sxemalarni tahlil qilish usullarining matematik tuzilmasini chuqur o'rganish, ularning hisoblash samaradorligini baholash hamda murakkab tizimlar uchun eng optimal yondashuvni aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Ayniqsa, chiziqli elementlarni o'z ichiga olgan sxemalarda an'anaviy usullarning cheklovlarini kamaytirish va hisoblash jarayonini optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shuning uchun ushbu ishda murakkab elektr sxemalarni tahlil qilishning asosiy usullari chuqur tahlil qilinib, ularning matematik asoslari, qo'llanilish sohalari hamda hisoblash samaradorligi o'rganiladi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Tugun potentsiallari va Kontur toklar usullari

Tugun potentsiallari usuli. Tugun potentsiallari usuli tadqiq qilinayotgan elektr zanjirda tugunlar soni mustaqil konturlar soniga teng yoki undan kam bo'lgan hollarda qo'llaniladi [2]. Ushbu usul sxemadagi barcha tugun potentsiallari uchun vektor-matritsali tenglamani olish imkonini beradi. Bunda tugun nuqtalarining potentsiallar vektori ($V^Y(t)$) quyidagi ko'rinishga ega:

$$V^Y(t) = -(A \cdot Y \cdot A^T)^{-1} \cdot A \cdot \Theta \quad (1)$$

Bu yerda: A – tugunlar matritsasi; Y – o'tkazuvchanliklarning diagonal matritsasi; A^T – A matritsasining transponirlangan ko'rinishi; Θ – kuchlanish manbalari toklarining noma'lum qiymatlari vektori.

(1) tenglamadagi satrlar soni ($N^Y - 1$) ga teng bo'lib, bu yerda N^Y – tugunlar soni. Ushbu tenglama integro-differensial tenglamalar tizimini ifodalaydi. Bu tenglamalarda sig'imlardagi toklar kuchlanishning hosilasi orqali, induktivliklardagi toklar esa mos reaktiv elementlar kuchlanish funksiyalarining integrali orqali aniqlanadi.

Kontur toklar usuli. Keyingi usul – kontur toklar usuli bo'lib, u murakkab elektr zanjirlarni hisoblashning asosiy usullaridan biri hisoblanadi va amaliyotda keng qo'llaniladi

[3]. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, tarmoqlardagi toklar o'rniga Kirxgofning ikkinchi qonuniga asosan konturlarda yopiluvchi kontur toklar aniqlanadi.

Kontur toklar usulida barcha kontur toklariga nisbatan tenglamalar tizimi qo'llaniladi. Kontur toklar vektori ($I^C(t)$) quyidagi ifoda bilan aniqlanadi (2):

$$I^C(t) = -(B \cdot Z \cdot B^T)^{-1} \cdot B \cdot v \quad (2)$$

Bu yerda: Z – elementlar qarshiliklarining diagonal matritsasi; v – tok manbalari kuchlanishlarining noma'lum kattaliklari vektori; B – konturlar matritsasi; B^T – B matritsasining transponirlangan ko'rinishi.

(2) ifoda vektor-matritsali tenglama bo'lib, unda graf bog'lanishlarining barcha kontur toklari aniqlanadi.

Kontur toklar usulidan foydalanish tugun potentsiallari usulidan foydalanishdagi kabi parametrik matritsalariga murojat qilishni talab etadi – birinchi holatda ($A \cdot Y \cdot A^T$), ikkinchi holatda ($B \cdot Z \cdot B^T$). Matritsalarini teskari aylantirish (inversiyalash) barcha matritsali amallar ichida eng murakkab va vaqt talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Holat o'zgaruvchilari usuli

Ma'lumki, sxemaning holati reaktiv elementlarda to'plangan energiya hamda mustaqil tok va kuchlanish manbalari bilan aniqlanadi. Kondensator zaryadi va induktivlik g'altaklarining magnit oqim bog'lanishi holat o'zgaruvchilari hisoblanadi. Sig'imlardagi kuchlanishlar va induktivliklardagi toklar, agar ularning qiymatlari o'zgarmas bo'lsa, holat o'zgaruvchilari sifatida qabul qilinadi.

Holat o'zgaruvchilari usuli yordamida induktivliklardagi kuchlanishlar va sig'imlardagi toklar, shuningdek, sxemaning noreaktiv elementlaridagi kuchlanish va toklar ($y(t)$) holat o'zgaruvchilari ($x(t)$) hamda mustaqil tok va kuchlanish manbalari ($u(t)$) orqali ifodalanadi.

Agar mustaqil tok va kuchlanish manbalari ma'lum bo'lsa va holat o'zgaruvchilarining boshlang'ich qiymatlari ($x(t)$) berilgan bo'lsa, u holda (3) va (4) tenglamalar yordamida noreaktiv elementlardagi kuchlanish va toklar vektori – $y(t)$, shuningdek boshlang'ich vaqt momenti uchun induktivliklardagi kuchlanishlar va sig'imlardagi toklar aniqlanadi.

$$\dot{x}(t) = f_1[x(t), u(t)], \quad (3)$$

$$y(t) = f_2[x(t), u(t)]. \quad (4)$$

Differensial tenglama (4) ni yechish orqali ma'lum vaqt oralig'ining oxiri (integratsiya qadami) uchun holat o'zgaruvchilari vektori $x(t)$ aniqlanadi. Olingan $x(t)$ qiymati keyingi integratsiya qadami uchun boshlang'ich qiymat sifatida qabul qilinadi. Ushbu jarayon berilgan iteratsiyalar sonigacha takrorlanadi [1].

Kontur-tarmoq topologik matritsasi (F -matritsa) holat o'zgaruvchilari usuli algoritmining asosini tashkil etadi. Kirxgofning tok va kuchlanish qonunlari F -matritsa orqali ifodalanadi:

$$U^C(t) = -F \cdot U^B \quad (5)$$

$$I^B(t) = F^T \cdot I^C \quad (6)$$

u yerda:

$U^C(t)$, $I^C(t)$ – sxemaning yo'nalgan grafidagi bog'lanishlar kuchlanish va toklar vektorlari; $U^B(t)$, $I^B(t)$ – tarmoqlar kuchlanish va toklar vektorlari; F^T – F matritsasining transponirlangan ko'rinishi.

Murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullarini asosiy xususiyatlar bo'yicha solishtirish

Murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullari asosiy xususiyatlari bo'yicha solishtirildi. Yuqorida ko'rib



chiqilgan usullarni taqqoslash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullarining solishtirma jadvali

Usullarning asosiy xususiyatlari	Murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullari		
	“Tugun potentsiallari usuli”	“Kontur toklar usuli”	“Holat o‘zgaruvchilari usuli”
Kirxgofning tok va kuchlanish qonunlarini qo‘llash	Ha	Ha	Ha
Integro-differensial tenglamalarni qo‘llash	Ha*	Ha*	Yo‘q
Parametrik matritsalaridan foydalanish	Ha**	Ha**	Yo‘q
Topologik matritsa	Yo‘q	Yo‘q	Ha
Katta vaqt sarfini talab qilmaydi	Yo‘q	Yo‘q	Ha
Birinci tartibli differensial tenglamalar tizimini olish imkoniyati	Yo‘q	Yo‘q	Ha
Chiziqliq elementlarga qo‘llanishi	Cheklangan	Cheklangan	Yuqori
Tenglamalarni yechish murakkabligi	Murakkabligi yuqori (matritsani teskari qilish talab etiladi)	Murakkabligi yuqori (matritsani teskari qilish talab etiladi)	Murakkab emas (matritsani teskari qilish talab etilmaydi)
Tahlil aniqligi	Tahlil aniqligi yuqori, ammo mehnat talab qiladi	Tahlil aniqligi yuqori, ammo mehnat talab qiladi	Tahlil aniqligi yuqori va samarali
Afzalliklari	Aniqlik, nazariyada qo‘llanishi	Aniqlik, nazariyada qo‘llanishi	Yuqori samaradorlik va aniqlik, foydalanish qulayligi, tez hisoblash
Kamchiliklari	Murakkabligi yuqori bo‘gani uchun mehnat talab etadi, vaqt sarfi katta	Murakkabligi yuqori bo‘gani uchun mehnat talab etadi, vaqt sarfi katta	Sezilarli kamchiliklari yo‘q

Izohlar:

*Integrall-differensial tenglamalar birinchi tartibli differensial tenglamalarga qaraganda murakkabroq bo‘lib, ularni yechish ko‘proq vaqt sarfini talab qiladi;

**Parametrik matritsalarini teskari aylantirish matritsalar ustidagi barcha amallar ichida eng mehnat talab qiladigan operatsiya bo‘lib, ko‘p vaqt sarflashni talab qiladi.

Holat o‘zgaruvchilari usulida differensial tenglamalar soni sxemadagi reaktiv elementlar soniga teng. Holat o‘zgaruvchilari usulining afzalligi shundaki, u parametrik matritsalarini teskari aylantirishni talab qilmaydi va birinchi tartibli, oson yechiladigan differensial tenglamalarni olish imkonini beradi. Yuqorida keltirilgan murakkab elektr sxemalarni tahlil qilish usullarining solishtirma natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Holat o‘zgaruvchilari usulidan amaliy foydalanishga misol sifatida temir yo‘l avtomatika va telemexanika tizimlarining elektr sxemalarini va ularning energiya tizimlari bilan bog‘lanish sxemalarini, jumladan, temir yo‘lning o‘zgaruvchan tok tortish tarmog‘idagi murakkab elektromagnit jarayonlarni, ularning avtomatika va telemexanika tizimlari qurilma va elementlariga ta’sirlarini hamda ushbu ta’sirlardan himoya qilish vositalarining samaradorligini murakkab parametrik matritsalariga murojat qilmasdan turib samarali tahlil qilish imkoniyatini qo‘shish mumkin. Natijada himoya qurilmalarini loyihalash, elektromagnit moslashuvchanlikni baholash va tortish tarmoqlarida kommutatsiya rejimlarini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy hulosalarga ega bo‘lish mumkin. [4-6] ilmiy ishlarda holat o‘zgaruvchilari usulidan samarali foydalanib olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari keltirib o‘tilgan.

3. Xulosa

O‘tkazilgan tahlil shuni tasdiqladiki, holat o‘zgaruvchilari usuli murakkab elektr sxemalarini tahlil qilish uchun eng samarali va aniq usul hisoblanadi, ayniqsa chiziqliq elementlarni o‘z ichiga olgan sxemalarda. Tugun potentsiallari usuli va kontur toklar usuli parametrik matritsalarini teskari aylantirish hamda integral-differensial tenglamalarni yechishni talab qilishi bilan farqlanadi, holat o‘zgaruvchilari usuli esa birinchi tartibli differensial tenglamalar tizimini shakllantirish imkonini beradi, bu esa yechish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi va vaqt sarfini kamaytiradi.

Holat o‘zgaruvchilari usulining afzalligi faqatgina yuqori aniqlik va tezkor tahlilni ta’minlash qobiliyatida emas, balki mehnat sarfi va hisoblash resurslarini kamaytirishidir. Bu esa mazkur usulni temir yo‘l avtomatika va telemexanika sohasida amaliy qo‘llash uchun ayniqsa muhim qiladi, chunki bu sohada tahlilning tezkorligi va aniqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari holat o‘zgaruvchilari usulini murakkab elektr sxemalarini tahlil qilishda ustuvor usul sifatida qarash lozimligini ko‘rsatadi, chunki u resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanishni ta’minlaydi.



Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] Чахмахсаян, Е.А. Машинный анализ интегральных схем. Вопросы теории и программирования / Е.А. Чахмахсаян, Ю.Н. Бармаков, А.Э. Гольденберг. - М.: Советское радио, 1974. - 272 с.
- [2] Шакурский В.К. Теоретические основы электротехники: в 2 ч. Ч.1. Аналитические и численные методы анализа установившихся режимов в электрических цепях: учебное пособие / В.К. Шакурский. – Тольятти: Изд-во ТГУ, 2013. – 219 с.
- [3] Атабеков Г.И. Теоретические основы электротехники. Линейные электрические цепи: Учебное пособие. 7-е изд., стер. /Г.И. Атабеков. – СПб.: Изд-во «Лань», 2009. – 592 с.
- [4] Манаков, А.Д. Опасные электромагнитные воздействия тяговой сети переменного тока напряжением 25 кВ на устройств железнодорожной автоматики и телемеханики. / А.Д. Манаков, А.А. Рахмонбердиев // Цифровые инфокоммуникационные технологии: сборник научных трудов ФГБОУ ВО РГУПС. – Ростов-на-Дону: РГУПС, 2021. – С. 162-174.
- [5] Манаков, А.Д. Опасное электромагнитное воздействие обратной тяговой сети переменного тока

напряжением 25 кВ на устройства ЖАТ / А.Д. Манаков, А.А. Рахмонбердиев // Автоматика на транспорте. – СПб., 2022. – №3, том 8, – С. 233-251. – DOI: 10.20295/2412-9186-2022-8-03-233-251.

[6] Raxmonberdiyev A.A. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatining temir yo‘l avtomatika va telemexanika qurilmalariga ortiqcha kuchlanishlarning ta’siri / A.A. Raxmonberdiyev // Journal of Transport. – 2025. – №8, 2-jild. – 223-231 b.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Raxmonberdiyev Abdulaziz Abdimajitovich / Abdulaziz Rakhmonberdiyev	Toshkent davlat transport universiteti “Avtomatika va telemexanika” kafedrasida dotsenti v.b. E-mail: raa19860102@mail.ru Tel.: +998990869417 https://orcid.org/0009-0006-0585-7582
---	---



Developing mechanisms for evaluating the relationships between supply chain participants

M.S. Burikhodjaeva¹ ^a

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

In the modern economy, the competitiveness of a product is determined not only by the internal efficiency of the enterprise that produces it. The decisions of all branches, from the supplier of raw materials to the manufacturer, transport forwarding organization, warehouse operator, distributor, retail entity, financial and insurance institutions and the final consumer, jointly affect the cost of products, delivery time and quality of Service. Therefore, the analysis of the relationships between participants in the economic mechanism of the supply chain represents a broader scientific task than describing the activities of individual enterprises. The supply chain is a system of technological sequences on the one hand and economic interests on the other. While a technological sequence represents the flow of a product from one operation to another, an economic system encompasses the decisions of each participant aimed at generating revenue, reducing costs, strengthening market position, and limiting risk.

Keywords:

distributor, transaction, digital-Information, Service and customer-oriented, Risk, security and resilience, human capital and innovation, institutional-legal, organizational-integrative, Transport-technological and operational, SCM (supply chain management), SCOR, ASCM, supply concept, paradigm, infrastructure, risk, resilience, environmental, logistics concept, innovation development, optimization, complex management, strategy, resource, supply chain planning

Ta'minot zanjiri ishtirokchilari munosabatlarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish

Burixodjayeva M.S.¹ ^a

¹Toshkent davlat transport universiteti, Tashkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Zamonaviy iqtisodiyotda mahsulotning raqobatbardoshligi faqat uni ishlab chiqaruvchi korxonaning ichki samaradorligi bilan belgilanmaydi. Xomashyo yetkazib beruvchidan boshlab, ishlab chiqaruvchi, transport-ekspeditorlik tashkiloti, ombor operatori, distribyutor, chakana savdo subyekti, moliyaviy va sug'urta institutlari hamda yakuniy iste'molchigacha bo'lgan barcha bo'g'inlarning qarorlari mahsulot tannarxi, yetkazib berish muddati va xizmat sifatiga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tahlil qilish alohida korxonalar faoliyatini tavsiflashdan ko'ra kengroq ilmiy vazifani anglatadi.

Ta'minot zanjiri bir tomondan texnologik ketma-ketlik, ikkinchi tomondan iqtisodiy manfaatlar tizimidir. Texnologik ketma-ketlik mahsulotning bir operatsiyadan boshqasiga o'tishini ifodalasa, iqtisodiy tizim har bir ishtirokchining daromad olish, xarajatni kamaytirish, bozor mavqeyini mustahkamlash va tavakkalchilikni cheklashga qaratilgan qarorlarini qamrab oladi.

Kalit so'zlar:


distribyutor, tranzaksiya, raqamli-axborot, servis va mijozga yo'naltirilgan, risk, xavfsizlik va rezilyentlik, Inson kapitali va innovatsiya, institutsional-huquqiy, tashkiliy-integratsion, Transport-texnologik va operatsion, SCM (yetkazib berishlar zanjiri boshqarish), SCOR, ASCM, ta'minot tushunchasi, paradigma, Infratuzilma, risk, rezilyentlik, ekologik, logistika tushunchasi, innovatsion rivojlantirish, optimallashtirish, kompleks boshqarish, strategiya, resurs, yetkazib berishlar zanjirini rejalashtirish

1. Kirish

Zamonaviy iqtisodiyotda mahsulotning raqobatbardoshligi faqat uni ishlab chiqaruvchi korxonaning ichki samaradorligi bilan belgilanmaydi. Xomashyo yetkazib beruvchidan boshlab, ishlab chiqaruvchi, transport-ekspeditorlik tashkiloti, ombor operatori, distribyutor,

chakana savdo subyekti, moliyaviy va sug'urta institutlari hamda yakuniy iste'molchigacha bo'lgan barcha bo'g'inlarning qarorlari mahsulot tannarxi, yetkazib berish muddati va xizmat sifatiga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tahlil qilish alohida korxonalar faoliyatini tavsiflashdan ko'ra kengroq ilmiy vazifani anglatadi.

^a <https://orcid.org/0000-0002-9396-4428>




Ta'minot zanjiri bir tomondan texnologik ketma-ketlik, ikkinchi tomondan iqtisodiy manfaatlar tizimidir. Texnologik ketma-ketlik mahsulotning bir operatsiyadan boshqasiga o'tishini ifodalasa, iqtisodiy tizim har bir ishtirokchining daromad olish, xarajatni kamaytirish, bozor mavqeyini mustahkamlash va tavakkalchilikni cheklashga qaratilgan qarorlarini qamrab oladi.

Mentzer va hammualliflar ta'minot zanjirini boshqarishni korxonalar ichidagi hamda ular o'rtasidagi an'anaviy biznes funksiyalarini tizimli va strategik muvofiqlashtirish sifatida izohlaydi. Lambert va Cooper esa ta'minot zanjiri boshqaruvini tarmoq tuzilishi, biznes jarayonlari va boshqaruv komponentlarining o'zaro bog'liqligi orqali tushuntiradi.

Mazkur materialning maqsadi ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini tarkibiy, funksional, shartnomaviy, iqtisodiy, axborot, xulq-atvor va tavakkalchilik o'lchamlari bo'yicha tizimli tahlil qilish, manfaatlar qarama-qarshiligi hamda muvofiqlashtirish vositalarini ilmiy asoslash va O'zbekiston amaliyoti uchun metodik xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Iqtisodiy mexanizm iqtisodiy subyektlarning maqsadlari, resurslari va xatti-harakatlarini muayyan natijaga yo'naltiruvchi tamoyillar, usullar, shartnomalar, rag'batlar, cheklovlar va nazorat vositalari majmuasidir. Williamsonning tranzaksiya xarajatlari yondashuvi bozor bitimining narxdan tashqari xarajatlarini – hamkorni izlash, muzokara, nazorat, shartnomani bajarishga majburlash va opportunistik xatti-harakatlardan himoyalash xarajatlarini – alohida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Agentlik nazariyasi esa topshiriq beruvchi va uni bajaruvchi tomon o'rtasidagi maqsadlar farqi hamda axborot nomutanosibligini markazga qo'yadi. Ta'minot zanjirida ishlab chiqaruvchi tashuvchiga yetkazib berish vazifasini beradi, chakana savdo tarmog'i ishlab chiqaruvchidan xizmat darajasini talab qiladi, bank esa moliyalashtirilayotgan ishtirokchining riskini baholaydi.



1-rasm. Ta'minot zanjiri ishtirokchilari munosabatlarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish

2. Tadqiqot metodologiyasi

Taklif etilayotgan yondashuvga ko'ra, ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi yetti tarkibiy qatlamdan iborat: ishtirokchilar tarkibi; ular o'rtasidagi aloqalar; shartnomaviy qoidalar; narx va to'lovlar; axborot almashinuvi; risk hamda javobgarlikni taqsimlash; natijani baholash va boshqaruv

organlari. Ushbu qatlamlarni quyidagi tizimli ifoda orqali ko'rsatish mumkin:

$$EM_{SC} = \{N, A, C, P, I, R, G\} \quad (1)$$

EM_{SC} – ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi;

Mazkur ifoda iqtisodiy mexanizmi faqat narx yoki shartnoma bilan cheklamaslik kerakligini ko'rsatadi. Masalan, aniq shartnoma mavjud bo'lsa-da, buyurtma ma'lumoti kech uzatilsa yoki javobgarlik ko'rsatkichi o'lchanmasa, zanjir natijasi pasayishi mumkin. Aksincha, uzoq muddatli ishonch mavjud bo'lgan hamkorlikda barcha holatlarni batafsil shartnomalashtirish talab etilmaydi. Shuning uchun rasmiy va norasmiy boshqaruv vositalari bir-birini to'ldiradi.

1-jadval

Ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi ishtirokchilarining funksiyalari va manfaatlari

Ishtirokchi	Asosiy funksiyasi	Iqtisodiy manfaat	Nazorat qiladigan resurs	Asosiy tavakkalchilik
Yetkazib beruvchi	Xomash yo, butlovchi qism yoki xizmatni taqdim etish	Barqaror buyurtma, quvvat bandligi, o'z vaqtida to'lov	Xomashyo, ishlab chiqarish quvvati, texnologiya	Talab pasayishi, narx o'zgarishi, to'lov kechikishi
Ishlab chiqaruvchi	Resurslarni tayyor mahsulotga aylantirish va zanjirni tashkil etish	Tannarxni kamaytirish, sotuv va bozor ulushini oshirish	Mahsulot dizayni, ishlab chiqarish rejasini, brend	Ta'minot uzilishi, ortiqcha zaxira, sifat va sotuv riski
Transport/ekspeditor	Yuk harakati ni rejalashtirish va bajarish	Transport quvvatini yuqori band qilish, foydali tarif	Avtopark, tashuvchilar tarmog'i, marshrut axboroti	Bo'sh yurish, yoqilg'i narxi, kechikish, yuk zarari
Ombor/terminal	Saqlash, konsolidatsiya, qayta ishlash va jo'natish	Maydon va uskunalaridan unumli foydalanish	Omborsig'im, texnika, joylashuv	Quvvatning past bandligi, zarar, inventar tafovuti
Distribyutor/savdo	Talabni shakllantirish va mahsulot	Savdo marjasi, assortiment	Mijoz ma'lumoti, sotuv	Talab noaniqligi, eskiris

	tni bozorga chiqarish	aylanish i, xizmat darajasi	kanali, bozor kirishi	h, yetish movchilik
3PL/4PL operator	Ko'p operatsiyalarni integratsiyalash va tarmoqni muvofiq lashtirish	Xizmat paketi daromad i, miqyos iqtisodi	Axborot platfor masi, hamkorlar va kompetensiya	Xizmat uzilishi, subpudratchi sifati, kiberxavf
Bank/sug'urta	Aylanma mablag', kafolat, riskni moliyaviy qoplash	Foiz, komissiya, sug'urta mukofoti	Kapital, risk baholash modeli	Kredit qaytmasligi, noto'g'ri risk bahosi
Davlat organlari	Qoidalar, nazorat, infratuzilma va jamoat manfaatini ta'minlash	Soliq tushumi, xavfsizlik, iqtisodiy faollik	Normativ vakolat, ma'lumot va infratuzilma	Ortiqcha tartib-taomil, bozordagi nomutanosiblik
Yakuniy iste'molchi	Talabni yuzaga keltirish va qiymatni baholash	Kerakli mahsulotni maqbul narx va vaqtda olish	Tanlov, to'lov va fikr-mulohaza	Kechikish, sifat nomuvofiqligi, yuqori narx

Jadvaldan ko'rinadiki, bir xil qaror turli ishtirokchilar uchun turlicha iqtisodiy oqibat yaratadi. Katta partiyada yetkazib berish tashuvchining avtomobil sig'imidani foydalanishini va ishlab chiqaruvchining tashish xarajatini yaxshilashi mumkin, biroq distribyutor zaxirasini oshiradi. Shu sababli alohida ishtirokchining optimal qarori butun zanjir uchun optimal bo'lishi shart emas.

Har bir ishtirokchining iqtisodiy foydaliligi daromad, xarajat, risk, majburiyat va qo'llab-quvvatlovchi rag'batlarning birgalikdagi natijasi sifatida qaralishi mumkin:

$$U_i = R_i - C_i - L_i - TC_i + S_i \quad (2)$$

U_i – i-ishtirokchining iqtisodiy foydaliligi;

R_i – bitim va zanjirdagi ishtirokdan olinadigan daromad;

C_i – operatsion va resurs xarajatlari;

L_i – risk ro'y bergandagi kutilayotgan yo'qotish;

TC_i – muzokara, nazorat va shartnomani bajarish tranzaksiya xarajatlari;

S_i – bonus, subsidiya, chegirma yoki hamkorlikdan olingan qo'shimcha samara.

Ishirokchi zanjirdagi hamkorlikni U_i mustaqil faoliyat yoki muqobil kontragent bilan ishlashdan olinadigan rezerv foydadan yuqori bo'lgandagina davom ettiradi.

Ta'minot zanjiridagi o'zaro munosabatlarni faqat 'yetkazib beruvchi–xaridor' vertikal aloqasi bilan cheklash

tarmoqning haqiqiy murakkabligini aks ettirmaydi. Amaliyotda vertikal, gorizontal, diagonal va platformaviy munosabatlar bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladi.

2-jadval

Ta'minot zanjiridagi o'zaro munosabatlarning asosiy shakllari

Munosa bat turi	Ishtirokchilar	Asosiy obyekt	Muvofiqlashtirish vositasi	Kutiladigan natija
Vertikal	Ketma-ket bo'g'inlar	Buyurtma, narx, sifat, muddat, zaxira	Yetkazib berish shartnomasi, VMI, CPFR, SLA	Oqimning uzluksizligi va umumiy xarajatning kamayishi
Gorizontal	Bir bosqichdagi korxonalar	Quvvat, marshrut, ombor, transport talabi	Konsorsium, kooperatsiya, qo'shma platforma	Miqyos iqtisodi, bo'sh yurish va ortiqcha quvvatning kamayishi
Diagonal	Moliyaviy, sug'urta, axborot va logistika subyektlari	Kapital, risk, ma'lumot, kafolat	Kredit, faktoring, sug'urta, raqamli integratsiya	Likvidlik va risklarni boshqarish
Platformaviy	Ko'p jo'natuvchi va xizmat provayderlari	Buyurtma, narx, reyting va quvvat moslashtirish	Algoritmik tanlash, elektron kontrakt, API	Qidiruv va tranzaksiya xarajatining kamayishi
Davlat-xususiy	Davlat organlari va biznes	Infratuzilma, standart, ma'lumot, nazorat	DXSh, yagona oyna, standart va litsenziya	Tizimli sharoit va koridor samaradorligi
Iste'molchi bilan teskari aloqa	Savdo, ishlab chiqaruvchi va xaridor	Talab, xizmat sifati, qaytarish	CRM, reyting, qaytarma logistika	Talabga moslashish va xizmat qiymatini oshirish

Moddiy, axborot va moliyaviy oqimlar orqali munosabatlarning shakllanishi

Ta'minot zanjiridagi munosabatlar bir vaqtning o'zida bir nechta oqimlar orqali namoyon bo'ladi. Moddiy oqim mahsulot va resurslarning jismoniy harakatini, axborot oqimi buyurtma, prognoz, zaxira, transport holati va sifat ma'lumotlarini, moliyaviy oqim esa to'lov, kredit, sug'urta, soliq va kompensatsiyani ifodalaydi.

Masalan, yuk belgilangan vaqtda yetib kelgan bo'lsa-da, elektron hisob-faktura yoki qabul hujjati tasdiqlanmasa,



tashuvchining to'lovi kechikadi va aylanma mablag'ga ehtiyoj ortadi. Buyurtma axboroti ishlab chiqaruvchiga agregatsiyalangan va kechikkan holda yetib borsa, real iste'mol talabidan katta buyurtmalar shakllanishi mumkin.

Qamchi effektini buyurtma o'zgaruvchanligining yakuniy talab o'zgaruvchanligiga nisbati orqali baholash mumkin:

$$BW_i = \frac{Var(Q_i)}{Var(D)} \quad (3)$$

BW_i – i-bo'g'indagi qamchi effekti koeffitsiyenti;

Q_i – i-bo'g'inning buyurtma miqdori;

D – yakuniy iste'mol talabi;

Var – tegishli ko'rsatkich dispersiyasi.

BW_i birga yaqin bo'lsa, buyurtma o'zgarishi real talab dinamikasini nisbatan to'g'ri aks ettiradi. Koeffitsiyentning birdan sezilarli yuqori bo'lishi prognoz, partiyalash, chegirma siyosati yoki axborot kechikishi sababli talab signali kuchayganini ko'rsatadi.

Tranzaksiya xarajatlarini quyidagi tarkibiy ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$TC = C_s + C_n + C_m + C_e + C_o \quad (4)$$

TC – bitimni tashkil etish va bajarish bilan bog'liq jami tranzaksiya xarajati;

C_s – hamkor va axborotni izlash xarajati;

C_n – muzokara va shartnoma tuzish xarajati;

C_m – bajarilishni monitoring qilish xarajati;

C_e – huquqiy ijro, da'vo va kompensatsiya xarajati;

C_o – opportunizm va ishonchsizlikdan kelib chiqadigan yo'qotish.

Tranzaksiya xarajatlari ko'pincha buxgalteriya hisobotida alohida modda sifatida ko'rinmaydi. Masalan, xarid bo'limining takroriy tekshiruvlari, haydovchining hujjat kutishi, nizoni hal qilish uchun sarflangan boshqaruv vaqti yoki kontragentning ishonchsizligi sababli o'rtiqcha zaxira saqlash xarajati turli moddalarda aks etadi. Shu bois munosabatlar tizimini tahlil qilishda faqat tarif va xarid narxini emas, bitimning yashirin xarajatlarini ham hisobga olish zarur.

3-jadval

Ta'minot zanjiri ishtirokchilari munosabatlarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish

Baholash bloki	Asosiy ko'rsatkichlar	Ma'lumot manbai	Iqtisodiy talqini
Iqtisodiy natija	Umumiy logistika xarajati, foyda, zaxira va aylanma mablag' tejalishi	Moliyaviy va boshqaruv hisobi	Hamkorlik yaratgan moddiy samara
Operatsion muvofiqlik	OTIF, sikl vaqti, kutish, bo'sh yurish, buyurtma xatosi	TMS, WMS, ERP, GPS	Jarayonlarning sinxronligi
Axborot sifati	Aniqlik, to'liqlik, kechikish, tizimlararo moslik	Axborot tizimi loglari va audit	Qaror noaniqligining kamayishi
Shartnoma intizomi	Majburiyat bajarilishi, nizolar, da'volar, to'lov muddati	Shartnoma reyestri, EDI,	Tranzaksiya xarajati va

		bank ma'lumoti	ishonchlilik
Manfaatlar ni moslashtirish	Umumiy KPI ulushi, bonus-jarima balans, samara taqsimoti	SLA va boshqaruv bayonnomalari	Lokal optimal lashtirishning cheklanishi
Ishonch va hamkorlik	Qo'shma reja, ma'lumot ochiqdigi, takroriy shartnoma, qoniqlilik	So'rovnomalar va intervyu	Norasiy boshqaruv kapitali
Risk va barqarorlik	Muqobil manba, javob va tiklanish vaqti, risk axboroti	Risk reyestri, ssenariy sinovi	Uzilish oqibatini kamaytirish
Innovatsiya va rivojlanish	Qo'shma loyiha, raqamli integratsiya, xodimlar tayyorlash	Loyiha portfeli va investitsiya rejalari	Uzoq muddatli raqobat qobiliyati

Baholash jarayoni to'rt bosqichda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi bosqichda zanjir xaritasi va kritik ishtirokchilar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda ikki tomon uchun umumiy maqsad va o'lanadigan ko'rsatkichlar belgilanadi. Uchinchi bosqichda ma'lumotlar yig'ilib, iqtisodiy natija hamda munosabat sifati baholanadi. To'rtinchi bosqichda tafovutlar bo'yicha qo'shma takomillashtirish rejasini tuziladi. Baholash faqat kontragentni jazolash vositasiga aylansa, u ma'lumotni yashirishga rag'bat beradi; shu bois natija rivojlantirish muloqoti bilan bog'lanishi kerak.

O'zbekiston sharoitida ta'minot zanjiri ishtirokchilari munosabatlarini takomillashtirishda birinchi vazifa zanjirning to'liq iqtisodiy xaritasini shakllantirishdir. Korxonalar ko'pincha bevosita yetkazib beruvchi va xaridorni biladi, biroq ikkinchi darajadagi ta'minotchi, subpudratchi tashuvchi, oraliq ombor, moliyalashtiruvchi va kritik axborot provayderining zanjirdagi rolini to'liq baholamaydi. Natijada yashirin bog'liqliklar va uzilish nuqtalari aniqlanmaydi. Kritik mahsulotlar uchun ishtirokchi, oqim, shartnoma, quvvat va risk xaritasi tuzilishi lozim.

4-jadval

Ta'minot zanjirini muvofiqlashtiruvchi shartnoma mexanizmlari

Shartnoma turi	Iqtisodiy mazmuni	Kimning rag'batini o'zgartiradi	Afzalligi	Cheklov
Ulgurji narx	Birlik uchun qat'iy narx	Xaridning buyurtma qarori	Sodda va arzon boshqariladi	Ikki karra ustama va risk nomuvofiqiqligi



Daromadi bo'lishi	Sotuv daromadi ulushlari taqsimlanadi	Ishlab chiqaruvchi va savdo bo'g'in	Buyurtma va sotuv manfaati yaqinlashtiradi	Sotuv ma'lumoti va audit talab qiladi
Qaytari b sotib olish	Sotilmagan mahsulot qisman qaytariladi	Distribyutorni xaxira qarori	Talab riskini bo'lishadi	Qaytarma logistika va moral hazard
Miqdor moslashuvchanligi	Buyurtmani belgilangan diapazonda o'zgartirish	Yetkazib beruvchi va xaridor rejalari	Noaniqlikka moslashuvchanlik	Quvvat rezervi xarajati
Miqdor chegirmasi	Hajm oshganda birlik narxi pasayadi	Buyurtma partiyasi	Miqyos iqtisodini taqsimlaydi	Ortiqcha xaxira yaratishi mumkin
Ikki qismli tarif	Qat'iy to'lov va birlik narxi kombinatiyasi	Foyda taqsimoti va buyurtma	Umumiy foydani moslashuvchan taqsimlash	Muzokara va kuch nomutan osibligi
Xarajati bo'lishi	Investitsiya yoki servis xarajati ulushlanadi	Sifat, market ing, transport harakati	Zanjir uchun foydali investitsiya yoki rag'batlantiradi	Haqiqiy xarajati tekshirish qiyin
SLA va bonus-jarima	Xizmat ko'rsatgichi uchun to'lov o'zgaradi	Transport va logistika operatori	Natijani vaqt, sifat va to'liqlikka bog'laydi	Noto'g'ri KPI xatti-harakatni buzadi
Risk-sharing	Kutilmagan yo'qotish kelishilgan ulushda taqsimlanadi	Barcha kritik hamkorlar	Barqarorlik investitsiya kuchaytiradi	Risk ehtimoli baholash murakkab

Ta'minot zanjirida hamkorlik orqali yaratilgan qo'shimcha samara taqsimlanmasa, ishtirokchilar umumiy optimallashtirishga yetarli rag'bat olmaydi. Qo'shimcha samara tashish partiyasini birlashtirish, umumiy prognoz, xaxirani kamaytirish, bo'sh yurishni qisqartirish yoki sifatni oshirish natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Riskni iqtisodiy baholash ehtimol va oqibatni birlashtirishni talab qiladi. Zanjir bo'yicha kutilayotgan risk xarajati quyidagicha ifodalanadi:

$$E(L) = \sum p_s L_s, L_s = \sum \lambda_{is} L_{is} \quad (2.9)$$

Javobgarli ulushlari yig'indisi birga teng bo'lishi lozim. Biroq ularni teng taqsimlash har doim adolatli yoki samarali emas. Riskni eng yaxshi boshqara oladigan, oldini olish choralari ko'ra oladigan yoki sug'urtalash imkoniyatiga ega tomon katta mas'uliyatni qabul qilishi mumkin.

3. Xulosa

O'tkazilgan tahlil asosida ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari tizimini '7M' konseptual modeli orqali ifodalash taklif etiladi. Model tarkibiga: ishtirokchilar majmui (Members); oqim va rollar xaritasi (Mapping); manfaatlar muvozanati (Motivation); shartnomaviy mexanizm (Mechanism); ma'lumot integratsiyasi (Mutual information); risk va javobgarlikni birgalikda boshqarish (Mutual risk); natijani o'lchash va rivojlantirish (Measurement) kiradi. Mazkur elementlardan birining yo'qligi munosabat tizimining to'liqligini buzadi.

Birinchi, ta'minot zanjiri iqtisodiy mexanizmi bozor narxlar, shartnomalar va ma'muriy topshiriqlarning oddiy yig'indisi emas; u mustaqil ishtirokchilarning qarorlarini umumiy mahsulot qiymatiga yo'naltiruvchi ko'p qatlamli boshqaruv tizimidir.

Ikkinchi, zanjir ishtirokchilari texnologik jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, ularning iqtisodiy maqsadlari avtomatik ravishda mos kelmaydi. Muvofiqlashtirishning ilmiy vazifasi lokal foyda va umumiy zanjir samarasi o'rtasidagi tafovutni kamaytirishdan iborat.

Uchinchi, o'zaro munosabatlarning iqtisodiy mazmuni mahsulot oqimi bilan bir qatorda axborot, moliya, xizmat va risk oqimlarida namoyon bo'ladi.

To'rtinchi, shartnoma narxni belgilash vositasi bo'lish bilan birga qaror vakolati, risk, javobgarlik va qo'shimcha samara taqsimotining iqtisodiy arxitekturasidir.

Beshinchi, ishonch va uzoq muddatli hamkorlik tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, biroq ular o'lchanadigan natija, shaffof ma'lumot va adolatli nizolarni hal qilish tizimi bilan qo'llab-quvvatlanishi kerak.


Oltinchi, raqamlashtirish munosabatlarning texnologik asosini yaxshilaydi, ammo manfaatlar va ma'lumot boshqaruvi qoidalarini o'zi hal qilmaydi.

Yettinchi, munosabat samaradorligi moliyaviy natija, xizmat darajasi, axborot sifati, shartnomaviy intizom, ishonch, risk va innovatsiya ko'rsatkichlarining birgalikdagi tahliliga asoslanishi lozim.

Shunday qilib, ta'minot zanjirining barqaror va samarali faoliyati ishtirokchilarning kuchli nazorat qilinishi bilan emas, ularning iqtisodiy manfaatlarini to'g'ri loyihalashtirilgan munosabatlar orqali uyg'unlashtirilishi bilan ta'minlanadi. O'zbekiston korxonalarida ushbu yondashuvni joriy etish umumiy logistika xarajatlarini pasaytirish, transport va ombor quvvatidan foydalanishni yaxshilash, aylanma mablag'larning aylanishini tezlashtirish, yetkazib berish ishonchligini oshirish hamda zanjir uzilishlariga moslashuvchanlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] Minken H., Johansen B. G. A logistics cost function with explicit transport costs // Economics of



Transportation. 2019. Vol. 19. Article 100116. DOI: 10.1016/j.ecotra.2019.04.001.

[2] Mosca A., Vidyarthi N., Satir A. Integrated transportation-inventory models: A review // Operations Research Perspectives. 2019. Vol. 6. Article 100101. DOI: 10.1016/j.orp.2019.100101.

[3] Madadi A., Kurz M. E., Ashayeri J. Multi-level inventory management decisions with transportation cost consideration // Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review. 2010. Vol. 46. No. 5. P. 719–734.

[4] Cui Z., Solak S., Johnson E. L. The inventory routing problem under uncertainty // Operations Research. 2023. DOI: 10.1287/opre.2022.2407.

[5] Coelho L. C., Cordeau J.-F., Laporte G. Thirty years of inventory routing // Transportation Science. 2014. Vol. 48. No. 1. P. 1–19.

[6] Qin H., Zhang Z., Qi Z., Lim A. The freight consolidation and containerization problem // European Journal of Operational Research. 2014. Vol. 234. No. 1. P. 37–48. DOI: 10.1016/j.ejor.2013.09.015.

[7] Bookbinder J. H., Higginson J. K. Probabilistic modeling of freight consolidation by private carriage // Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review. 2002. Vol. 38. No. 5. P. 305–318.

[8] Hong K., Lee C. Optimal time-based consolidation policy with price-sensitive demand // International Journal of Production Economics. 2013.

[9] Moon I. K., Cha B. C., Lee C. The joint replenishment and freight consolidation of a warehouse in a supply chain // International Journal of Production Economics. 2011. Vol. 133. No. 1. P. 344–350.

[10] Popken D. A. An algorithm for the multiattribute, multicommodity flow problem with freight consolidation and inventory costs // Operations Research. 1994. Vol. 42. No. 2. P. 274–286. DOI: 10.1287/opre.42.2.274.

[11] Bertazzi L., Savelsbergh M., Speranza M. G. Inventory routing // In: The Vehicle Routing Problem: Latest Advances and New Challenges. Springer, 2008.

[12] Kleywegt A. J., Nori V. S., Savelsbergh M. W. P. The stochastic inventory routing problem with direct

deliveries // Transportation Science. 2002. Vol. 36. No. 1. P. 94–118.

[13] Archetti C., Bertazzi L., Laporte G., Speranza M. G. A branch-and-cut algorithm for a vendor-managed inventory-routing problem // Transportation Science. 2007. Vol. 41. No. 3. P. 382–391.

[14] М.С.Буриходжаева “Методы совершенствования и улучшения качества управления в железнодорожном транспорте “Экономика и социум” №12(103) 2022

[15] Юлдашева С, БўриходжаеваМ “Повышение эффективности таможенной деятельности в развитии международного экономического сотрудничества “international scientific and practical conference” the time of scientific progress” 2022/9/10 (87-91)

[16] М.С.Бўрихаджаева«мамлакат “Иқтисодиётда автомобил транспорти коридорларини ривожлантириш истикболлари» oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), jan., 2023й ст 338-345

[17] М.С.Бўрихаджаева “Маркетинговый подход в деятельности предприятия “ Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(4/2) апрель 2023 (653-661 бет).

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Burihodjayeve	Toshkent davlat transport
Maloxat	universiteti “Transport
Sobitovna /	logistikasi” kafedrasi katta
Malokhat	o'qituvchisi,
Burikhodjaeva	E-mail:
	maloxatburixadjaeva@gmail.com
	https://orcid.org/0000-0002-9396-4428
	Tel.: +998 971957779



Systematic methods for assessing and managing occupational safety of train drivers

Kh. Kamilov¹^a, M. Amirov¹^b

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

The article examines the issues of assessing and managing occupational safety at railway transport enterprises, in particular, train drivers performing shunting work. The purpose of the study is to systematically identify dangerous and harmful factors that arise during the work of train drivers, assess occupational risks and justify organizational, technical and ergonomic measures aimed at reducing them. The study analyzed the possibilities of using hazard identification, probability and consequence assessment, risk matrix, mathematical modeling, RULA, REBA and OWAS ergonomic assessment methods. It was found that the work of a train driver is complexly affected by the composition of the moving train, work between cars, boarding and disembarking from cars, switchgear, slipping, electrical hazards, adverse meteorological conditions, noise, vibration, physical and psycho-emotional loads. As a result of the study, a continuous management model was proposed, consisting of hazard identification, risk assessment, information collection, mathematical modeling, selection of protective measures, automated monitoring and reassessment. This approach can serve as a scientific and practical basis for a comprehensive assessment of the working conditions of train drivers and the reduction of occupational risks.

Keywords:

train driver, occupational safety, occupational risk, shunting operations, ergonomic loading, meteorological conditions, risk factor, automated monitoring, Safety-I, Safety-II

Poyezd tuzuvchilarining mehnat xavfsizligini baholash va boshqarishning tizimli usullari

Kamilov X.¹^a, Amirov M.¹^b

¹Toshkent davlat transport universiteti, Tashkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Maqolada temir yo'l transporti korxonalarida, xususan, manyovr ishlarini bajaruvchi poyezd tuzuvchilarining mehnat xavfsizligini baholash va boshqarish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi poyezd tuzuvchilarining mehnat faoliyati davomida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillarni tizimli ravishda aniqlash, kasbiy risklarni baholash hamda ularni kamaytirishga qaratilgan tashkiliy, texnik va ergonomik choralarni asoslashdan iborat. Tadqiqotda xavflarni identifikatsiyalash, ehtimollik va oqibat og'irligini baholash, risk matritsasi, matematik modellash, RULA, REBA va OWAS ergonomik baholash usullaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Poyezd tuzuvchisining ish faoliyatiga harakatdagi tarkib, vagonlar orasida ishlash, vagonlarga chiqish-tushish, strelkali o'tkazgichlar, sirpanish, elektr xavfi, noqulay meteorologik sharoitlar, shovqin, vibratsiya, jismoniy va psixologik yuklamalar kompleks ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Tadqiqot natijasida xavflarni aniqlash, riskni baholash, axborotni yig'ish, matematik modellash, himoya choralari tanlash, avtomatlashtirilgan monitoring va qayta baholashdan iborat uzluksiz boshqaruv modeli taklif etildi. Mazkur yondashuv poyezd tuzuvchilarining mehnat sharoitlarini kompleks baholash va kasbiy risklarni kamaytirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar:

poyezd tuzuvchisi, mehnat xavfsizligi, kasbiy risk, manyovr operatsiyalari, ergonomik yuklama, meteorologik sharoit, xavf omili, avtomatlashtirilgan monitoring, Safety-I, Safety-II.

1. Kirish


Temir yo'l transporti tizimining barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishi ko'p jihatdan saralash stansiyalarida poyezdlarni shakllantirish va tarqatish ishlarining sifatiga bog'liq. Ushbu texnologik jarayonlarni amalga oshiruvchi

poyezd tuzuvchi (poyezd tuzuvchi yordamchisi) kasbi temir yo'l sohasi bo'yicha eng yuqori jarohatlanish xavfiga ega mutaxassisliklardan biri hisoblanadi [1].

Poyezd tuzuvchisining mehnat faoliyati harakatlanayotgan manevr tarkiblari, og'ir texnik uskunalar, ochiq havodagi o'zgaruvchan meteorologik sharoitlar

^a <https://orcid.org/0009-0009-2998-3964>

^b <https://orcid.org/0009-0002-1664-9915>



hamda sutkaning turli vaqtlaridagi (shu jumladan, tungi) yuqori ruhiy va jismoniy yuklamalar ostida kechadi. Amaldagi mehnat muhofazasi tizimlari asosan sodir bo'lgan hodisalarni qayd etish va reaktiv reagirlashga (Safety-I) asoslangan bo'lib, ular xavflarni oldindan prognoz qilish hamda proaktiv profilaktika qilish (Safety-II) imkoniyatini to'liq qamrab olmaydi [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi poyezd tuzuvchilarining mehnat faoliyatidagi xavf va zararli omillarni kompleks tahlil qilish, kasbiy risklarni miqdoriy va sifat jihatidan baholash usullarini takomillashtirish hamda mehnat xavfsizligini oshirish bo'yicha tizimli tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Temir yo'l transportida mehnat xavfsizligi va kasbiy risklarni boshqarish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan [3-11].

Sanoat xavfsizligi va transportda risklarni boshqarish sohasidagi tadqiqotlarda kasbiy xavflarni ehtimollik va oqibatlar og'irligi ko'paytmasi sifatida baholash konsepsiyasi keng yoritilgan. Xususan, temir yo'l hodisalarini tahlil qilishda inson omili (human factor) va uning mehnat sharoitlariga bog'liqligi yetakchi sabablardan biri sifatida ko'rsatiladi [4].

Ergonomik xavflarni baholash sohasida McAtamney va Corlett (RULA) [5], Hignett va McAtamney (REBA) [6], hamda Karhu va boshqalar (OWAS) [7] tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar ishchilarning statik va dinamik yuklamalarini, noqulay ish holatlarini (non-neutral postures) hamda mushak-skelet tizimi kasalliklari yuzaga kelish xavfini miqdoriy baholashda yuqori samaradorlikni ko'rsatgan.

- [6] Berdiyev U.T., Suloymonov O'B., Hasanov F.F. Marganets pniktidlari asosidagi magnetokalorik materiallar. *Journal of Transport*. 2026;3(1):147–149.

[7] Phan M.H., Tian S.B., Yu S.C., Ulyanov A.N. Magnetic and magnetocaloric properties of $\text{La}_{0.7}\text{Tb}_{0.3}\text{Ca}_{0.3}\text{MnO}_3$ compounds. *Journal of Magnetism and Magnetic Materials*. 2003;256:306–310. [состав и индексы уточнить по оригиналу]

[8] Li Z.Q., Liu H., Liu X.D., Wu P., Bai H.L., Sun C.Q., Jiang E.Y. Competition between the double exchange and charge ordering interactions in bandwidth-controlled manganites. *Physica B*. 2004;351:114–120.

[9] Berdiyev U., Berdiyev U., Toshpulatova M. Problems and tasks of creating energy-saving electric machines. *AIP Conference Proceedings*. 2022;2432:020002.

[10] Berdiyev U., Demedenko O., Ashurov M., Hasanov F.F., Sulaymanov U.B. Optimization of the method of oxide coating of metallic iron powder particles. *E3S Web of Conferences*. 2023;383:04039.

[11] Ebert H., Ködderitzsch D., Minár J. Calculating condensed matter properties using the KKR-Green's function method — recent developments and applications. *Reports on Progress in Physics*. 2011;74:096501.

[12] Никитин С.А., Овченкова Ю.А., Блинова М.Е., Терёшина И.С. Магнитокалорический эффект в соединениях $\text{GdMn}_{1-x}\text{T}_x\text{Si}$ ($T = \text{Ti, Fe, Co}$). Вестник Московского университета. Серия 3: Физика. Астрономия. 2022;(4):47–53.

[13] Berdiyev U.T., Vecher A.K., Khasanov F.F. Investigation of the frequency characteristics of composite iron powders with insulating oxide coatings. *Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineering (CONMECHYDRO 2021)*, Tashkent, Uzbekistan, 1–3 April 2021.

Информация об авторах/ Information about the authors

Хасанов	Ташкентский государственный
Фозил /	транспортный университет, PhD,
Fozil	доцент
Khasanov	E-mail: fozilhasanov777@gmail.com
	https://orcid.org/0009-0004-6301-9822



The magnetocaloric effect as a basis for energy-efficient magnetic refrigeration

F.F. Khasanov¹ 

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The paper presents a systematic thermodynamic description of the magnetocaloric effect as the physical basis of energy-efficient magnetic refrigeration operating near room temperature. The relevance of the direction is determined by the drawbacks of vapour-compression systems, primarily the risk of refrigerant leakage with the associated depletion of the ozone layer and the greenhouse effect. Starting from the decomposition of the total entropy of a magnetocaloric material into magnetic, lattice and electronic contributions, expressions are derived for the adiabatic temperature change and for the isothermal change of the magnetic entropy by means of the Maxwell relation; the applicability of the entropy decomposition is shown to be restricted to second-order phase transitions. The Weiss molecular-field model is used for the quantitative description of ferromagnetism. It is shown that the magnitude of the effect is proportional to the temperature derivative of the magnetisation and inversely proportional to the heat capacity, so that the largest values are attained near the magnetic ordering temperatures. On this basis the requirements imposed on the working body of a magnetic refrigerator are formulated: a magnetic ordering temperature close to the working range, a large temperature derivative of the magnetisation, a low heat capacity and a small magnetic hysteresis.

Keywords: magnetocaloric effect, magnetic refrigeration, adiabatic temperature change, isothermal entropy change, Maxwell relation, Weiss molecular field, magnetic phase transition, energy efficiency, refrigerants

Магнитокалорический эффект как основа энергоэффективного магнитного охлаждения

Хасанов Ф.Ф.¹ 

¹Ташкентский государственный транспортный университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В работе изложено термодинамическое описание магнитокалорического эффекта как физической основы энергоэффективного магнитного охлаждения в области комнатных температур. Актуальность направления определяется недостатками парокомпрессионных систем, прежде всего риском утечки хладагентов с сопутствующим разрушением озонового слоя и усилением парникового эффекта. Исходя из разложения полной энтропии магнитокалорического материала на магнитную, решёточную и электронную составляющие, с использованием соотношения Максвелла получены выражения для адиабатического изменения температуры и изотермического изменения магнитной энтропии; показано, что разложение энтропии строго применимо лишь для фазовых переходов второго рода. Для количественного описания ферромагнетизма привлечена модель молекулярного поля Вейсса. Показано, что величина эффекта пропорциональна производной намагниченности по температуре и обратно пропорциональна теплоёмкости, вследствие чего наибольшие значения достигаются вблизи температур магнитного упорядочения. На этой основе сформулированы требования к рабочему телу магнитного холодильника: температура магнитного упорядочения вблизи рабочего диапазона, высокая производная намагниченности по температуре, низкая теплоёмкость и малый магнитный гистерезис.


Ключевые слова: магнитокалорический эффект, магнитное охлаждение, адиабатическое изменение температуры, изотермическое изменение энтропии, соотношение Максвелла, молекулярное поле Вейсса, магнитный фазовый переход, энергоэффективность, хладагенты

1. Введение

На сегодняшний день создание компактных, экологически безопасных, энергоэффективных и

надёжных холодильных устройств, функционирующих в области комнатных температур, представляет собой

 <https://orcid.org/0009-0004-6301-9822>



одну из наиболее актуальных научно-технических задач. Актуальность данного направления определяется рядом существенных недостатков, присущих традиционным охлаждающим системам. В частности, эксплуатация современных холодильных установок сопряжена с риском утечки рабочих хладагентов, что приводит к таким экологическим последствиям, как разрушение озонового слоя и усиление парникового эффекта [1, 4]. В числе альтернативных подходов к построению холодильной техники всё большее внимание научного сообщества привлекает технология магнитного охлаждения [1–3].

Достижение высокого КПД магнитных рефрижераторов требует создания эффективных магнитокалорических материалов, пригодных для работы в области комнатных температур. Такие материалы должны характеризоваться малым магнитным гистерезисом, выраженным магнитокалорическим эффектом, высокой намагниченностью и приемлемыми технологическими параметрами [3, 4]. Повышенный интерес к изучению магнитокалорического эффекта обусловлен потребностью в материалах с высокими значениями МКЭ, способных выполнять функцию рабочего тела в устройствах магнитного охлаждения; применение подобных материалов открывает возможность полного отказа от экологически вредных хладагентов [3, 5].

Исследование магнитных и магнитокалорических характеристик даёт дополнительную информацию о природе магнитоупорядоченного состояния вещества и о взаимосвязи магнитных и тепловых свойств [2, 5]. Установлено, что максимальные значения МКЭ наблюдаются вблизи фазовых переходов, что обуславливает особый интерес к изучению именно этой области. Таким образом, исследование магнитокалорического эффекта неразрывно связано с развитием физики фазовых переходов и критических явлений [3, 6].

Целью настоящей работы является систематическое изложение термодинамического описания магнитокалорического эффекта — от определения эффекта и разложения энтропии по подсистемам до выражений для адиабатического изменения

температуры и изотермического изменения энтропии — и сопоставление получаемых соотношений с требованиями, предъявляемыми к рабочему телу магнитного холодильника комнатного диапазона.

2. Методика исследования

2.1. Определение и физическая природа эффекта

Явление магнитного охлаждения основано на способности магнитного материала изменять собственную температуру под действием внешнего магнитного поля. Изменение энтропии в изотермическом процессе либо изменение температуры в адиабатическом процессе, происходящее при изменении магнитного поля, принято называть магнитокалорическим эффектом (МКЭ) [4].

Технология магнитного охлаждения при комнатной температуре, основанная на магнитокалорическом эффекте, является относительно новым научно-техническим направлением. Само явление МКЭ было впервые зафиксировано Варбургом: в 1881 году им было отмечено повышение температуры образца железа при внесении его в магнитное поле и последующее понижение температуры при выведении образца из поля [3, 7, 10]. Таким образом, магнитокалорический эффект представляет собой фундаментальное свойство магнитных материалов, проявляющееся в изменении их температуры под действием приложенного магнитного поля; материалы, обладающие данным свойством, получили название магнитокалорических. МКЭ присущ всем переходным металлам и лантаноидам, способным проявлять ферромагнитные свойства [3, 4, 8]. При снятии магнитного поля магнитные моменты приобретают хаотическую ориентацию, вследствие чего ферромагнетик охлаждается.

Магнитокалорический эффект представляет собой внутреннее свойство магнитных материалов, заключающееся в поглощении либо выделении тепловой энергии под воздействием внешнего магнитного поля [6, 10]. Данное явление сопровождается обратимым нагревом или охлаждением материала, как показано на рисунке 1.




Рис. 1. Магнитокалорический эффект

2.2. Термодинамические соотношения

Абсолютная энтропия магнитокалорического материала, будучи функцией температуры и магнитной индукции, может быть представлена как сумма магнитной составляющей, решёточной составляющей и вклада энтропии электронов проводимости, величиной которого обычно можно пренебречь [6, 7, 9].

Соответствующее выражение имеет вид:

$$S(T, B) = S_m + S_l \quad (1)$$

где S_m и S_l — магнитная и решёточная составляющие энтропии соответственно, T (К) — температура, B (Тл) — магнитная индукция.

Представленное в (1) разложение энтропии справедливо только для материалов, испытывающих

фазовый переход второго рода, для которых характерно плавное изменение намагниченности с температурой. Для фазовых переходов первого рода, сопровождающихся резким изменением намагниченности вблизи температуры перехода, подобное разложение оказывается неточным [6, 9]. В большинстве практических случаев достаточно оперировать полной энтропией, дифференциальная форма которой записывается как:

$$dS(T, B) = \left(\frac{\partial S}{\partial T}\right)_B dT + \left(\frac{\partial S}{\partial B}\right)_T dB \quad (2)$$

Удельная теплоёмкость C_B (Дж·м⁻³·К⁻¹) материала определяется соотношением:

$$C_B = \left(\frac{\partial S}{\partial T}\right)_B T \quad (3)$$

откуда следует:

$$\left(\frac{\partial S}{\partial T}\right)_B = \frac{C_B}{T} \quad (4)$$

С учётом выражений (2) и (4) можно записать:

$$dS(T, B) = \frac{C_B}{T} dT + \left(\frac{\partial S}{\partial B}\right)_T dB \quad (5)$$

Для адиабатического процесса ($\Delta S = 0$) изменение температуры, с использованием соотношения Максвелла [6, 9]:

$$dT = \frac{T}{C_B} \left(\frac{\partial S}{\partial B}\right)_T dB \quad (6)$$

$$\left(\frac{\partial S}{\partial B}\right)_T + \left(\frac{\partial M}{\partial T}\right)_B \quad (7)$$

где M (А·м⁻¹) — намагниченность, можно записать:

$$dT = -\frac{T}{C_B} \left(\frac{\partial M}{\partial T}\right)_B dB \quad (8)$$

Величину магнитокалорического эффекта (адиабатическое изменение температуры) можно представить в виде:

$$\Delta T_{ad} = -\int_{B_i}^{B_f} \frac{T}{C_B} \left(\frac{\partial M}{\partial T}\right)_B dB = MCE \quad (9)$$

В случае изотермического процесса температура образца в ходе намагничивания остаётся неизменной, а изменение энтропии описывается выражением:

$$dS(T, B) = (\partial S / \partial B)_T dB \quad (10)$$

Используя соотношение Максвелла (7), изменение магнитной энтропии можно представить как:

$$\Delta T = \int_{B_i}^{B_f} \left(\frac{\partial M}{\partial T}\right)_B dB \quad (11)$$

при этом выделяемое тепло переходит в тепловые колебания кристаллической решётки [7, 9].

2.3. Модель молекулярного поля Вейсса

Теоретическое описание МКЭ базируется на молекулярной теории поля (модели Вейсса) и термодинамических соотношениях. Для количественного описания ферромагнетизма Вейсс предложил феноменологическую модель, согласно которой действие внешнего поля B дополняется эффектом молекулярного поля [6, 8, 10], пропорционального объёмной намагниченности:

$$B_v = \lambda \mu_0 M \quad (12)$$

Соответственно, энергия магнитного момента записывается как:

$$E = -\mu(B + B_v) \quad (13)$$

3. Результаты и обсуждение

3.1. Преимущества магнитного охлаждения перед пароконпресссионным

Итоговой целью развития технологии магнитного охлаждения является создание бытового холодильного оборудования нового поколения. По сравнению с

традиционными компрессорными системами, магнитное охлаждение потенциально позволяет снизить как эксплуатационные, так и обслуживающие расходы. Отказ от компрессора устраняет связанные с ним высокие капитальные затраты и энергопотребление, что делает магнитное охлаждение экономически конкурентоспособной альтернативой компрессорным технологиям.

К основным преимуществам магнитного охлаждения перед компрессорным можно отнести: экологическую чистоту — отсутствие выбросов вредных и токсичных газов [1, 4]; бесшумность работы за счёт отсутствия компрессора [2, 3]; более высокую энергетическую эффективность; конструктивную простоту устройств; низкие затраты на техническое обслуживание, а также работу при низком (атмосферном) давлении, что особенно ценно для систем автомобильного кондиционирования и холодильного оборудования [4, 6].

3.2. Требования к магнитокалорическим материалам

Из приведённых соотношений следует, что величина эффекта пропорциональна производной намагниченности по температуре и обратно пропорциональна теплоёмкости материала. Отсюда вытекают требования к рабочему телу: температура магнитного упорядочения должна лежать вблизи рабочего диапазона устройства, производная $(\partial M / \partial T)_B$ в этой области должна быть максимальной, а теплоёмкость — по возможности низкой. Дополнительными требованиями являются малый магнитный гистерезис, обеспечивающий обратимость эффекта при циклировании, высокая намагниченность насыщения, приемлемая теплопроводность и технологичность [3, 4].

В магнитокалорических материалах приложение либо снятие внешнего магнитного поля сопровождается заметным изменением энтропии. Величина МКЭ для конкретного материала определяется исключительно его исходной температурой и напряжённостью магнитного поля, а сам эффект может быть охарактеризован как через изотермическое изменение энтропии, так и через адиабатическое изменение температуры. Это обстоятельство позволяет использовать обе величины как взаимодополняющие характеристики при отборе материалов, однако сопоставлять их следует с учётом того, каким методом — прямым или косвенным — они были получены.

4. Заключение

1. Магнитокалорический эффект является внутренним свойством магнитных материалов и проявляется в изменении их температуры при адиабатическом изменении внешнего магнитного поля либо в изменении энтропии при изотермическом процессе.

2. Термодинамическое описание эффекта, основанное на разложении энтропии по подсистемам и на соотношении Максвелла, приводит к выражениям (9) и (11) для адиабатического изменения температуры и изотермического изменения магнитной энтропии; разложение энтропии на слагаемые строго применимо лишь для фазовых переходов второго рода.



3. Величина эффекта пропорциональна производной намагниченности по температуре и обратно пропорциональна теплоёмкости, вследствие чего максимальные значения МКЭ достигаются вблизи температур магнитного упорядочения.

4. Магнитное охлаждение обладает рядом преимуществ перед парокомпрессионным — экологическая чистота, бесшумность, конструктивная простота, работа при атмосферном давлении, — что определяет перспективность его применения, в том числе в системах автомобильного кондиционирования и холодильного оборудования.

5. Дальнейшее развитие направления связано с поиском материалов, сочетающих температуру магнитного упорядочения вблизи комнатной, высокую производную намагниченности по температуре, низкую теплоёмкость и малый гистерезис.

Использованная литература / References

[1] Gschneidner K.A. The magnetocaloric effect, magnetic refrigeration and ductile intermetallic compounds. *Acta Materialia*. 2009;57:18–28. <https://doi.org/10.1016/j.actamat.2008.08.048>

[2] Mitsiuk V.I., Mashirov A.V., Koledov V.V., Valkov V.I., Golovchan A.V., Kovalev O.E., Todris B.M., Ari-Gur P. Magnetic-field-induced transitions and the inverse magnetocaloric effect at liquid helium temperatures in the $Mn_{1-x}Co_xNiGe$ system ($0.15 \leq x < 0.80$). *Journal of Magnetism and Magnetic Materials*. 2023;588:171355.

[3] Mityuk V.I., Rimskii G.S., Val'kov V.I., Golovchan A.V., Mashirov A.V., Koledov V.V. Low temperature features of the magnetic and magnetocaloric properties of the $Mn_{1-x}Co_xNiGe$ system ($0.05 \leq x \leq 0.4$). *Physics of Metals and Metallography*. 2022;123:386–391.

[4] Бердиев У.Т., Хасанов Ф.Ф., Каршиев К.Т., Сулаймонов У.Б., Митюк В.И. Исследование магнетокалорического эффекта в манганитах. Вода. Газ. Тепло: материалы международной научно-технической конференции, 15–16 мая 2025 г. Минск: БНТУ, 2025.

[5] Mitsiuk V.I., Zhaludkevich A.L., Val'kov V.I., Golovchan A.V., Mashirov A.V., Anikeev S.G., Pikula T., Tkachenka T.M. Magnetocaloric effect of Zn-containing manganese pnictides. *Physics of Metals and Metallography*. 2024;125:1838–1844.

[6] Mitsiuk V.I., Gurbanovich A.V., Gurbanovich An.V., Tkachenka T.M., Valkov V.I., Golovchan A.V., Mashirov A., Surowiec Z. Magnetic and magnetocaloric characteristics of the $Mn_{1-x}Cu_{0.1}Sb$ alloy. *Journal of Communications Technology and Electronics*. 2023;68:431–435.

[7] Mitsiuk V.I., Govor G.A., Budzyński M. Reversible phase transitions and magnetocaloric effect in $MnAs$, $MnAs_{0.99}Po_{0.01}$ and $MnAs_{0.98}Po_{0.02}$ single crystals. *Inorganic Materials*. 2013;49:14–17.

[8] Govor G.A., Larin A.O., Mitsiuk V.I., Rimskiy G.S., Tkachenka T.M. Magnetocaloric properties of the single crystal $Mn_{0.99}Fe_{0.01}As$. *Proceedings of the National Academy of Sciences of Belarus. Physics and Mathematics Series*. 2019;55:118–124.

[9] Govor G.A., Mitsiuk V.I., Nikitin S.A., Pankratov N.Yu., Smarzhenskaya A.I. Magnetostructural phase transitions and magnetocaloric effect in $Mn(As,P)$ compounds and their composites. *Journal of Alloys and Compounds*. 2019;801:428–437.

[10] Berdiyev U., Demedenko O., Ashurov M., Hasanov F.F., Sulaymonov U.B. Optimization of the method of oxide coating of metallic iron powder particles. *E3S Web of Conferences*. 2023;383:04039. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338304039>.

Информация об авторах/ Information about the authors

Хасанов
Фозил /
Fozil
Khasanov

Ташкентский государственный
транспортный университет,
PhD, доцент
E-mail:

fozilhasanov777@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0004-6301-9822>



IR spectroscopic study of the formation of functional groups on the surface of polymer materials for packaging under the influence of corona discharge

D.R. Safaeva¹^a, Sh.B. Tashmammedova¹^b, D.T. Zairov¹^c

¹Tashkent Institute of Textile and Light Industry, Tashkent, Uzbekistan

Abstract:

The article presents the results of an investigation of the surface properties of polypropylene and polyethylene polymer films before and after corona discharge treatment using infrared (IR) spectroscopy. Absorption bands characteristic of the main functional groups of the polymers were identified. After corona discharge treatment, the spectra of BOPP and PE films exhibited new absorption bands in the 1700–1750 cm⁻¹ region, indicating the formation of oxygen-containing functional groups on the polymer surfaces, particularly carbonyl (C=O) groups. The results demonstrate that corona discharge treatment increases the polarity and surface energy of the polymers, as well as improving their wettability and adhesion properties. The findings provide a basis for substantiating the effectiveness of corona treatment of polymer films in enhancing their adhesion to printing inks and improving print quality.

Keywords:

polymer film, polypropylene, polyethylene, BOPP, IR spectroscopy, corona discharge, surface energy, functional group, adhesion, printing ink

Qadoqlar uchun polimer materiallar yuzasida tojli razryad ta'sirida funksional guruhlarining shakllanishini iq-spektroskopik tadqiqi

Safayeva D.R.¹^a, Tashmammedova Sh.B.¹^b, Zairov D.T.¹^c

¹Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, Tashkent, O'zbekiston

Annotatsiya:

Maqolada polipropilen va polietilen polimer plyonkalarining tojli razryad bilan ishlov berishdan oldingi va keyingi sirt xususiyatlarini infraqizil (IQ) spektroskopiya usulida tadqiq qilish natijalari keltirilgan. Polimerlarning asosiy funksional guruhlariga xos yutilish polosalari aniqlandi. Tojli razryad bilan ishlov berilgandan keyin BOPP va PE plyonkalar spektrlarida 1700–1750 sm⁻¹ sohada yangi yutilish polosalarining paydo bo'lishi polimer sirtida kislorod saqllovchi funksional guruhlar, xususan, karbonil (C=O) guruhlarini shakllanganligini ko'rsatdi. Natijalar tojli razryad ta'sirida polimer sirtining qutbliligi va sirt energiyasi ortishi, namlanish hamda adgezion xususiyatlar yaxshilanishini ko'rsatdi. Olingan natijalar polimer plyonkalarining bosma bo'yoqlari bilan adgezion o'zaro ta'sirini oshirish va bosma sifatini yaxshilashda tojli razryadli ishlov berishning samaradorligini asoslash imkonini beradi.

Kalit so'zlar:

polimer plyonka, polipropilen, polietilen, BOPP, IQ-spektroskopiya, tojli razryad, sirt energiyasi, funksional guruh, adgeziya, bosma bo'yoq

1. Kirish

Polimer materiallar zamonaviy bosma va qadoqlash sanoatida keng qo'llaniladigan materiallardan biri bo'lib, ularning funksional va ekspluatatsion xususiyatlari nafaqat polimering hajmiy tuzilishi, balki sirt qatlamining fizik-kimyoviy holati bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, polietilen (PE) va polipropilen (PP), jumladan, biaksial yo'naltirilgan polipropilen (BOPP) plyonkalar yuqori mexanik mustahkamligi, kimyoviy barqarorligi, namlikka chidamliligi va texnologik qulayligi tufayli qadoqlash materiallari hamda bosma mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Shu bilan birga, polietilen va polipropilen kabi polimerlarning sirt energiyasi nisbatan past bo'lganligi


sababli ularni bosma bo'yoqlari bilan namlash va mustahkam adgezion bog'lanish hosil qilishda muayyan texnologik qiyinchiliklar yuzaga keladi. Polimer sirtining past qutbliligi bo'yoqning sirtga bir tekis tarqalishi, namlanishi va mustahkam birikishini cheklaydi. Shu munosabat bilan polimer plyonkalar sirtini bosma jarayoniga tayyorlash va uning adgezion xususiyatlarini yaxshilash muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Polimer sirtini modifikatsiyalashning samarali usullaridan biri tojli razryad bilan ishlov berish hisoblanadi. Ushbu jarayon ta'sirida polimer sirtida fizik va kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lib, sirt energiyasi va qutblilikning ortishi, namlanish qobiliyatining yaxshilanishi hamda yangi funksional guruhlarining shakllanishi kuzatiladi. Natijada polimer sirtining bosma bo'yoqlari bilan adgezion o'zaro

^a <https://orcid.org/0009-0002-6241-0577>

^b <https://orcid.org/0009-0006-9177-5945>

^c <https://orcid.org/0009-0002-0143-1553>



ta'siri kuchayadi. Polimer materiallarning sirt va hajmiy tuzilishini, makromolekulyar zanjirlardagi funksional guruhlarni hamda tashqi ta'sirlar natijasida yuzaga keladigan struktur o'zgarishlarni aniqlashda infraqizil (IQ) ahisoblanadi. IQ-spektroskopiya yordamida polimer tarkibidagi funksional guruhlarga xos yutilish polosalarini aniqlash va spektral xarakteristikalaridagi o'zgarishlar asosida materialning kimyoviy tuzilishida sodir bo'lgan o'zgarishlarni baholash mumkin [1]. Shu nuqtai nazardan, tojli razryad bilan ishlov berilgan polimer plyonkalarining sirt qatlamida yuzaga keladigan kimyoviy o'zgarishlarni IQ-spektroskopiya usulida o'rganish mazkur ishning dolzarbligini belgilaydi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Polimer materiallarni sirt modifikatsiyalash va ularning adgezion xususiyatlarini yaxshilash masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda tojli razryadli ishlov berish usuliga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori kuchlanishli tojli razryad ta'sirida polimer sirtida erkin radikal markazlar hosil bo'lib, ular atmosfera tarkibidagi kislorod va namlik bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Bu jarayon natijasida sirtida kislorod saqllovchi qutbli funksional guruhlarning shakllanishi [2–4].

Polipropilen va polietilen plyonkalarining sirt xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlili tojli razryad ta'sirida sirt energiyasining ortishi va kontakt burchagining kamayishini ko'rsatgan. Bunday o'zgarishlar polimer sirtining namlanish qobiliyati yaxshilanishi bilan bog'liq bo'lib, keyingi bosqichda bo'yoq, lak va boshqa qoplama materiallarining sirtga adgeziyasini oshirish imkonini beradi.


IQ-spektroskopiya polimerlarning kimyoviy tarkibi va funksional guruhlarni identifikatsiya qilishda keng qo'llaniladigan analitik usullardan biri hisoblanadi. Mazkur usulda molekularlarning infraqizil nurlanishni yutishi ulardagi kimyoviy bog'larning valent va deformatsion tebranishlari bilan bog'liq. Shu sababli ma'lum to'lqin sonlaridagi yutilish polosalari polimer tarkibidagi C–H, C–C, C=C, C=O va O–H kabi funksional guruhlarni aniqlash imkonini beradi. Polipropilenning IQ-spektrida 3000–2800 cm^{-1} sohada C–H bog'larining valent tebranishlari, 1500–1300 cm^{-1} sohada esa C–H va C–C bog'larining deformatsion tebranishlari xarakterli hisoblanadi. Polimer sirti oksidlanganda esa 1700–1750 cm^{-1} sohada C=O bog'iga xos yangi yutilish polosalarining paydo bo'lishi kuzatilishi mumkin. Mazkur spektral o'zgarishlar polimer sirtida kislorod saqllovchi funksional guruhlarning shakllanganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tojli razryad bilan ishlov berishning polimer sirtidagi funksional guruhlarning tarkibiga ta'siri yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, BOPP va PE plyonkalarda spektral o'zgarishlarning bosma bo'yoqlari bilan adgezion o'zaro ta'sirga ta'sirini kompleks baholash masalasi qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Shu sababli mazkur tadqiqotda BOPP va PE plyonkalarining tojli razryaddan keyingi IQ-spektrlarini o'rganish orqali sirtida shakllangan funksional guruhlarni aniqlash va ushbu o'zgarishlarni polimerning adgezion xususiyatlari bilan bog'lashga alohida e'tibor qaratildi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tojli razryad ta'sirida ishlov berilgan polimer plyonkalarining IQ-spektroskopik xususiyatlarini o'rganish, makromolekulyar zanjirlarning

yo'nalganligi va uzunligi, shuningdek, polimer sirtida hosil bo'luvchi funksional guruhlarning spektral yutilish intensivligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obekti sifatida qalinligi 20 mkm bo'lgan biaksial yo'naltirilgan polipropilen (BOPP) va polietilen (PE) polimer plyonkalaridan foydalanildi. Namunalarning IQ-spektroskopik tahlili PerkinElmer Spectrum Two spektrofotometrida 4200–600 cm^{-1} to'lqin sonlari diapazonida amalga oshirildi. Olingan eksperimental spektrlar Aldrich-IChem IQ-spektrlar kutubxonasi ma'lumotlari bilan taqqoslanib, polimerlarning funksional guruhlari va ularga mos yutilish sohalari identifikatsiya qilindi (1-rasm).




1-rasm. 1–BOPP ning tojli razryadli ishlov berigidan oldingi IQ-spektri; 2–Aldrich-IChem IQ-spektr kutubxona baza dasturidagi spektri

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tojli razryad bilan ishlov berilmagan BOPP plyonkaning IQ-spektri polipropilenga xos bo'lgan yutilish polosalari bilan tavsiflanadi (1-rasm). Xususan, 2949–2918 cm^{-1} sohada to'yingan C–H bog'larining simmetrik valent tebranishlari, 2867–2838 cm^{-1} sohada esa C–H bog'larining asimmetrik valent tebranishlariga mos yutilish polosalari qayd etildi. 1456–1375 cm^{-1} diapazonida C–C va C–H bog'lariga xos deformatsion va valent tebranishlar kuzatildi. Shuningdek, 1167, 997, 972 va 840 cm^{-1} sohalarda polipropilen makromolekulalaridagi C–H va C–C bog'lariga xos tebranishlar aniqlandi.

Tojli razryad bilan ishlov berilgan polimer plyonkalarining IQ-spektrlarida ishlov berilmagan namunalarga nisbatan yangi yutilish polosalarining paydo bo'lishi va ayrim polosalar intensivligining o'zgarishi kuzatildi. Ayniqsa, 1700–1750 cm^{-1} sohada yangi intensiv yutilish polosasining shakllanishi polimer sirtida kislorod saqllovchi funksional guruhlarning hosil bo'lganligini ko'rsatadi. BOPP plyonkada 1745,34 cm^{-1} , PE plyonkada esa 1744,78 cm^{-1} sohalarda kuzatilgan yutilish minimumlari C=O karbonil guruhlarga xos tebranishlar bilan bog'liq.


Shu nuqtai nazardan, tojli razryad ta'sirida polimer sirtining kimyoviy tarkibida ma'lum darajada oksidlanish jarayoni sodir bo'lishi va natijada kislorod saqllovchi funksional guruhlarning miqdorining ortishi haqida xulosa qilish mumkin. Bunday o'zgarishlar polimer sirtining qutbliligini oshiradi hamda uning adgezion xususiyatlarini yaxshilaydi.



2-rasm. Tajribaviy BOPP polimer plyonkaning IQ-spektroskopik tahlili



Polietilen plyonkaning IQ-spektroskopik tahlilida ham tojli razryadli ishlovdan keyin spektral o'zgarishlar aniqlandi (2-rasm). PE uchun xarakterli bo'lgan C–H bog'lariga tegishli yutilish polosalari bilan bir qatorda ishlov berilgan namuna spektrida kislorod saqllovchi funksional guruhlariga xos qo'shimcha polosalar shakllanganligi kuzatildi.



3-rasm. Tajribaviy PE polimer plyonkaning IQ-spektroskopik tahlili

Olingan spektroskopik natijalar tojli razryad bilan ishlov berish polimer materiallar sirtining kimyoviy holatiga ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ishlov berish jarayonida yuqori energiyali razryad ta'sirida polimer makromolekulalaridagi ayrim C–H va C–C bog'larining faollashishi natijasida sirtida erkin radikal markazlar hosil bo'ladi. Ushbu faol markazlarning atmosfera tarkibidagi kislorod va namlik bilan o'zaro ta'siri natijasida gidroksil (–OH), karbonil (>C=O), karboksil (–COOH) va gidroperoksid (–OOH) kabi kislorod saqllovchi funksional guruhlar shakllanishi mumkin.

Shakllangan qutbli funksional guruhlar polimer sirtining sirt energiyasini oshiradi, namlanish qobiliyatini yaxshilaydi va bosma bo'yoqlari bilan o'zaro ta'sirini kuchaytiradi. Natijada polimer sirtida bo'yoq komponentlarining adgeziyasi yaxshilanib, bosma qatlamining material bilan bog'lanish mustahkamligi ortadi. Shu sababli tojli razryad bilan ishlov berish polipropilen va polietilen kabi past sirt energiyasiga ega polimer plyonkalarni bosma jarayoniga tayyorlashning samarali usullaridan biri hisoblanadi [5].

IQ-spektroskopik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tojli razryad ta'sirida polimer sirtida yuzaga kelgan struktura-viy va kimyoviy o'zgarishlar, avvalo, kislorod saqllovchi funksional guruhlarining hosil bo'lishi bilan namoyon bo'ladi. 1745,34 cm^{-1} (BOPP) va 1744,78 cm^{-1} (PE) sohalardagi yangi yutilish polosalari C=O bog'larining mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu o'zgarishlar polimer sirtining qutbliligini oshirib, sirt energiyasining ortishi va adgezion xususiyatlarning yaxshilanishiga olib keladi.

3. Xulosa

Shunday qilib, IQ-spektroskopik tadqiqot natijalari tojli razryad bilan ishlov berish BOPP va PE polimer plyonkalar sirtida sezilarli fizik-kimyoviy o'zgarishlarni yuzaga keltirishini ko'rsatdi. Tojli razryad ta'sirida C=O, –OH, –COOH va –OOH kabi qutbli funksional guruhlarining shakllanishi polimer sirtining sirt energiyasi va namlanish qobiliyatini oshiradi. Bu esa polimer materiallarning bosma


bo'yoqlari bilan adgezion o'zaro ta'sirini kuchaytiradi va bosma sifati barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Olingan natijalar polimer plyonkalarni chuqur bosma va boshqa bosma usullarida ishlatishdan oldin tojli razryad bilan sirtga ishlov berishning texnologik samaradorligini asoslaydi.

Foydalangan adabiyotlar / References

- [1] И. Дехант, Р.Данс, В.Киммер, Р.Шмольке. Инфракрасная спектроскопия полимеров/ Химия, 1976. — 472 с.
- [2] O'Hare L.A., Leadley S.R., Parbhoo B., et al. Surface physicochemistry of corona-discharge-treated polypropylene film // Surface and Interface Analysis. — 2002. — Vol. 33. — P. 335–342.
- [3] Żenkiewicz M. Some effects of corona discharge treatment of biaxially-oriented polypropylene film // The Journal of Adhesion. — 2001. — Vol. 77, No. 1. — P. 25–41. — DOI: 10.1080/00218460108030730.
- [4] Electrical discharge treatment of polypropylene film // Polymer. — 1983. — Vol. 24, No. 1. — P. 47–52. — DOI: 10.1016/0032-3861(83)90079-4.
- [5] В.А.Баканов. Свойства полимерных пленок, активированных коронным разрядом, и особенности применения в производстве упаковки: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук/05.02.13.—Москва,2008.21 с.

Mualliflar to'g'risida ma'lumot/ Information about the authors

Safayeva Dilafruz Ruzmatovna / Dilafruz Safaeva	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti E-mail: Dilafruzsafaeva@mail.ru Tel: +998909460104 https://orcid.org/0009-0002-6241-0577
Tashmuhammedova Shijoat Bositovna / Shijoat Tashmuhammedova	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti E-mail: shijoattashmuxamedova@gmail.com Tel: + 99890 9553583 https://orcid.org/0009-0006-9177-5945
Zairov Dilmurod Toshmurotovich / Dilmurod Zairov	Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti, mutaxassis Tel: + 998 99 645 67 33 https://orcid.org/0009-0002-0143-1553



Improving the cold-start process in fourth-generation gas-cylinder vehicles operating on compressed natural gas fuel

A. Azimov¹ ^a

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article investigates the reduction of hazardous exhaust pollution and rational energy conservation in vehicle transportation, both essential for protecting urban ecosystems from environmental deterioration. Fourth-generation gas-cylinder equipment equipped with a universal fuel supply system, installed on gas-cylinder vehicles, was selected as the object of the study. The article analyzes the process of switching the engine from gasoline fuel to compressed natural gas fuel during a cold start, and substantiates the adjustment of the temperature threshold governing this transition — recommended by manufacturers to be in the range of 30–40°C — to a level of 25°C, adapted to the climatic conditions of the Republic of Uzbekistan. Based on the operational tests and experiments carried out, empirical formulas for determining gasoline fuel consumption during the engine's cold start were developed, along with a mathematical model describing the "gasoline-gas" and "gas-gasoline" control modes as a function of crankshaft rotation frequency and coolant temperature. The results of the study contribute to improving the energy efficiency and ensuring the environmental safety of gas-cylinder vehicle engines during the cold start process.

Keywords: gas-cylinder vehicle, gas-cylinder equipment, compressed natural gas, "gasoline-gas" control, engine cold start, crankshaft rotation frequency, coolant temperature, energy efficiency, environmental safety, mathematical model

Siqilgan tabiiy gaz yonilg'isida ishlovchi IV-avlod gaz ballonli avtomobillarda sovuq ishga tushirish jarayonini takomillashtirish

Azimov A.¹ ^a

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada markazlashgan shaharlar ekotizimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bo'lgan avtomobil transporti ekspluatatsiyasi jarayonida atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindi gazlar miqdorini kamaytirish va energiya resurslaridan oqilona foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot ob'yekti sifatida universal yonilg'i ta'minot tizimiga ega IV-avlod gaz ballon uskunalar bilan jihozlangan gaz ballonli avtomobillar tanlangan. Maqolada dvigatelning sovuq holatda ishga tushirilishidan benzin yonilg'isidan siqilgan tabiiy gaz yonilg'isiga o'tish jarayoni tahlil qilingan hamda ushbu o'tishni belgilovchi harorat ko'rsatkichi ishlab chiqaruvchilar tomonidan tavsiya etilgan 30–40°C oralig'idan O'zbekiston Respublikasi iqlim sharoitlariga moslashtirilib 25°C darajasiga o'tkazilgani asoslangan. O'tkazilgan ekspluatatsiya sinovlari va eksperimentlar asosida dvigatelning sovuq ishga tushirilishi davomidagi benzin yonilg'isi sarfini aniqlovchi empirik formulalar hamda tirsakli val aylanishlar chastotasi va dvigatel haroratiga bog'liq holda "benzindan gazga" va "gazdan benzina" boshqaruv rejimlarini tavsiflovchi matematik model ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari gaz ballonli avtomobil dvigatellarining sovuq ishga tushirish jarayonidagi energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: gaz ballonli avtomobil, gaz ballon uskunas, siqilgan tabiiy gaz, "benzindan gazga" boshqaruvi, dvigatelning sovuq ishga tushirilishi, tirsakli val aylanishlar chastotasi, dvigatel harorati, energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik, matematik model

1. Kirish

Dunyo bo'yicha antropogen omillar natijasida ekologik vaziyatning yomonlashuvi va iqlim o'zgarishlari natijasida yuzaga kelayotgan ulkan tabiiy ofatlar kun sayin ortib

bormoqda. Markazlashgan shaharlar ekotizimining buzilishi xususan, havo sifatining yomonlashuvi, issiqxona effekti, PM zarrachalarining yuqori darajasi ijtimoiy muhit uchun jiddiy xavflardan hisoblanadi. Ushbu muammolarning bartaraf etishning asosiy yechimi, ularni keltirib chiqaruvchi

^a  <https://orcid.org/0000-0002-8385-804X>



manbalarni tadqiq etish va ularning muqobil turlarini yaratish hamda joriy etishdir. Shahar ekotizimiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy manbalardan biri avtomobil transporti hisoblanadi. Avtomobillashtirish darajasining yil sayin ortib borishi nafaqat ekspluatatsiya jarayonidagi zararli gazlar miqdorini oshiradi balki energiya resurslariga bo'lgan talabning ham oshib borishiga olib keladi.

Markazlashgan shaharlar ekotizimini barqaror saqlash hamda energiya resurslaridan oqilona foydalanishda barcha energiya iste'molchilari uchun energiya tejamkor texnologiyalar va muqobil energiya manbalaridan foydalanish yuqoridagi muammolarni bartaraf etishda samarali yechimlardan hisoblanadi. Xususan, avtomobil transporti ekspluatatsiyasida an'anaviy yonilg'ilariga muqobil bo'lgan yonilg'ilardan foydalanish va energiya tejamkorligi yuqori bo'lgan texnologiyalarni yaratish rag'batlantirilmoqda. Avtomobillar uchun mavjud neft yonilg'ilariga muqobil sifatida siqilgan va suyultirilgan tabiiy gaz yonilg'isidan foydalanish keng ommalashib bormoqda.

Benzin yoki dizel dvigatellarini siqilgan tabiiy gaz (STG) yonilg'isi uchun qayta jihozlashda, avtomobil maxsus gaz ballon uskunalari (GBU) bilan qayta jihozlanadi va ularni umumiy nom bilan gaz ballonli avtomobillar (GBA) deb nomlaymiz. Benzinli dvigatelarga GBU o'rnatilishi, dvigatel maksimal quvvatini biroz pasaytiradi, lekin shu bilan birga, chiqindi gazlarning toksikligini va shovqin darajasini sezilarli darajada yo'qotib, yonilg'i va moylash materiallari narxini sezilarli darajada kamaytiradi.

Avtomobillar ekspluatatsiyasida gaz yonilg'ilaridan foydalanish iqtisodiy jihatdan istiqbolli bo'lishi bilan birga, gaz ballonli avtomobillarning yuqori yonilg'i samaradorligini va ekologik xavfsizligini ta'minlashi gaz yonilg'isidan foydalanish ko'lamini yanada oshirmoqda.

Gaz ballonli avtomobillar dvigatellarining STG yonilg'isini ishlatish usuliga ko'ra [1,2], ikki yonilg'ida ishlovchi ya'ni siqilgan tabiiy gazda ishlovchi, aralash (kombinatsiyalashgan) va faqat gazda ishlovchi turlarga bo'linadi. Ular ichida birinchi guruh gaz ballonli avtomobillar, umumiy avtomobil parkining asosiy qismini tashkil etadi va asosan yengil avtomobillarda o'rnatiladi.

Gaz ballon uskunalarning yillar davomida takomillashib borishi va yonilg'i tejamkor texnologiyalarga asoslangan elektron dasturiy ta'minotlar asosida ishlab chiqarilishi, avtomobillar ekspluatatsiyasi samaradorligini oshirishda yanada keng imkoniyatlarni taqdim etdi. Ushbu o'zgarishlarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida, turli avlod gaz ballon uskunalari guruhlanishiga olib keldi.

Adabiyotlar tahlili

Bugungi kunda gaz ballonli avtomobillarda mavjud gaz ballon uskunalari oltita avlodga bo'linadi. Shulardan to'rtta avlod gaz ballon uskunalari STGda ishlovchi universal yonilg'i ta'minlash tizimli gaz ballonli avtomobillarda keng miqyosda qo'llaniladi. Uchinchi va to'rtinchi avlod gaz ballon uskunalari avtomobillarga o'rnatilish salmog'i bo'yicha yuqori hisoblanadi. Aynan uchunchi va to'rtinchi avlod gaz ballon uskunalari avtomobil dvigateli dastlab benzinda ishga tushirilib so'ng gaz yonilg'isiga o'tadi. III-avlod gaz ballon uskunalari benzindan gazga rejimining o'zgarishi tirsakli val aylanishlar chastotasiga bog'liqdir ya'ni benzinda ishga tushirilgan dvigatel, tirsakli valning belgilangan ko'rsatgichida gaz yonilg'isiga o'tadi. IV-avlod GBU ega avtomobillarda ham dvigatel dastlab benzinda ishga tushadi va ma'lum vaqt davomida belgilangan

haroratgacha (ekspluatatsiyadagi asosiy gaz ballonli avtomobillar dasturiy sozlamalarida 30°C dan 40°Cgacha) qizdirilgandan so'ng gazga o'tadi [3,9]. Tadqiq etilayotgan siqilgan tabiiy gazda ishlovchi IV-avlod GBUning asosiy modellari (STAG, Digitronic, Tomasetto, Landi Renzo va boshqa) dvigatelnin sovuq ishga tushirilib benzindan gazga o'tishidagi ("benzindan gazga" boshqaruvi) bazaviy sozlamalarda tavsiya etilgan harorat 30°C qilib belgilangan. Benzindan gazga o'tish vaqt davomiyligi tashqi muhit haroratiga bog'liq holda o'zgaradi ya'ni harorat pasayishi bilan gaz ballonli avtomobillar benzindan gazga o'tish vaqti oshib boradi.


Dvigatel benzindan gazga o'tish jarayoni quyidagi hollardan bo'lmaydi [3, 4]:


- dvigatel yuklanishi belgilangan kalibrlash chegarasidan tirsakli valning aylanishlar chastotasi (TVACH) oshgan bo'lsa;
- dvigatel harorati me'yor chegaradan quyi bo'lsa;
- injektorlardagi gaz harorati past bo'lsa;
- taqsimlash valining holat datchigi ishlamayotgan bo'lsa;
- elektr jihozlarida kuchlanish miqdori 24 V dan yuqori bo'lsa;
- dvigatel ish holati elektr jihozlaridagi kuchlanish miqdori 8 V dan past bo'lsa.

GBUga ega dvigatellarning benzindan gazga o'tish parametrlaridagi harorati (gaz reduktori harorati), GBU ishlab chiqaruvchi kompaniyalar (Stag, Landi Renzo, Tomasetto va boshq.) tomonidan barcha mavsumlar uchun o'rtacha harorat 30° va 40°C norma belgilangan [5] (1-rasm). Bu haroratni O'zbekiston Respublikasi iqlim sharoitida 25°C ga tushirilgan (2-rasm), ushbu haroratda gazga o'tish dvigatel detallari va GBUning ish ko'rsatgichlariga hech qanday salbiy ta'siri mavjud emas. Bu dvigatel va GBUning STGda normal ishlash harorati, tashqi muhit harorati 10°C dan yuqori bo'lganda [6], shuningdek, dvigatelni STGda ishga tushirish imkoniyati tashqi muhit harorati -5°C [7,6] ekanligi bilan asoslanadi. Shuningdek benzindan gazga o'tishdagi dvigatel harorati 25°C etib belgilanishi, ko'plab yengil avtomobillarda o'tkazilgan eksperimentlar natijasida asoslanadi. Eksperimentlar dvigatel ishga tushirilib benzindan gazga o'tishdagi dvigatel harorati 25°C dan quyi ko'rsatgichlarda, dvigatel barqarorligining buzilishi, tebranish kuchayishi va dvigatelnin o'chishi bilan tugadi.



1-rasm. GBUni diagnostika dasturidagi "benzindan gazga" boshqaruvinin zavod tomonidan tavsiya etilgan universal rostdash tartibi [8]






2-rasm. GBUni diagnostika dasturidagi “benzindan gazga” boshqaruvi past ($< 25^{\circ}\text{C}$) va yuqori ($\geq 25^{\circ}\text{C}$) haroratli ekspluatatsiya sharoitiga ko‘ra rostdash tartibi

2. Tadqiqot metodologiyasi

Dvigatelning benzindan gazga o‘tish algoritmining optimallashtirilishi, uning gazga o‘tish jarayonini tezlashtiradi va benzinda ishlash vaqtining qisqarishiga, yonilg‘i xarajatlarning tejalishiga hamda atmosferaga chiqariladigan ZChG miqdorini kamayishiga olib keladi. Tashqi muhit harorati 25°C gacha bo‘lgan holatlarda dvigatelning ishga tushirilib benzindan gazga o‘tish jarayoni dvigatel haroratiga binoan amalga oshsa, 30°C yuqori haroratli sharoitlarda tirsakli val aylanish chastotasi asosida amalga oshadi (3-rasm).



3-rasm. GBAning sovuq ishga tushirishda benzindan gazga - gazdan benzinga o‘tish algoritm blok sxemasi

Siqilgan tabiiy gazda ishlovchi IV-avlod gaz ballonli yengil avtomobil dvigatellarining benzinda ishga tushirilib STGga o‘tish parametrlarini ratsional o‘zgartirish orqali GBAning ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini oshirishning matematik modelini yaratishda ekspluatatsiya sharoitini hisobga olish eng muhim shartlardan hisoblanadi.

GBAning ishga tushirishda benzindan gazga o‘tish shartlarini tashqi muhit harorati (IYoD sovitish suyuqligi

harorati), IYoD TVACH va gaz ballon idishini gaz bilan to‘ldirish holatlariga qarab IYoDni sovuq ishga tushirish jarayonini 3 xil ekspluatatsiya sharoiti bo‘yicha quyidagicha matematik modellashirishimiz mumkin [3,9]:

- $T_s < 10^{\circ}\text{C}$ da
 - har qanday holatda dvigatel benzinda ishga tushiriladi.
- $10^{\circ}\text{C} \leq T_s < 25^{\circ}\text{C}$
 - Gaz ballon idishini gaz to‘ldirishdan oldin: Dvigatel benzinda ishga tushiriladi.

Sovuq ishga tushirish fazasi tugagach, dvigatel harorati $T_s \geq 25^{\circ}\text{C}$ bo‘lganda yoki tirsakli val aylanishlar chastotasi 750 min^{-1} ga etganda gaz rejimiga o‘tadi.

- Gaz ballon idishini gaz bilan to‘ldirishdan keyin: Benzinda ishga tushiriladi.

λ -zond faollashganidan so‘ng, dvigatel harorati $T_s \geq 25^{\circ}\text{C}$ bo‘lganda gaz rejimiga o‘tadi.

- $T_s \geq 25^{\circ}\text{C}$
 - Gaz ballon idishini gaz bilan to‘ldirishdan oldin: Benzinda ishga tushiriladi, dvigatel ishdan chiqib ketgandan keyin 30 sekundgacha benzin rejimida qoladi;
 - Agar tirsakli val aylanishi 750 min^{-1} dan oshsa, gaz rejimiga o‘tadi.
 - Gaz ballon idishini gaz bilan to‘ldirishdan keyin: Benzinda ishga tushiriladi;
 - Tirsakli val aylanishi 750 min^{-1} dan oshganda gaz rejimiga o‘tadi.

Avtomobillar ekspluatatsiyasida dvigatelning asosiy sifat ko‘rsatkichlardan biri yonilg‘i sarfi yoki uning tejamkorligi hisoblanadi. Dvigatel ish ko‘rsatkichlarini aniqlashda maxsus stend bilan belgilangan ish rejimlarida ($N_i; p_i; n = \text{const}$), sinash vaqtidagi ma‘lum quvvat uchun sarflangan yonilg‘i miqdorlari o‘lchanadi. O‘lchash natijalari har soatda kg hisobida sarflangan yonilg‘i miqdori quyidagicha aniqlanadi [3]:

$$G_{yo} = \frac{\Delta g}{\tau} \cdot 3,6 \text{ kg/soat}, \quad (1)$$

bu yerda Δg – o‘lchangan yonilg‘i miqdori, g; τ – yonilg‘ining sarf vaqti, s.

IV-avlod GBAning sovuq ishga tushirishda benzindan avtomatik gazga o‘tish algoritmitga ko‘ra, dvigatelning sovuq ishga tushirilishidan gaz yonilg‘isiga o‘tishi davomidagi benzin sarfi sovitish suyuqligi haroratiga T_s bog‘liq hisoblanadi. Ya‘ni T_s miqdori 25°C dan past bo‘lganda dvigatel benzin sarflaydi va T_s miqdori 25°C da avtomatik gaz yonilg‘isi sarfi boshlanadi. Ushbu shartlarni (1) formulaga bog‘laydigan bo‘lsak, τ -ning qiymati $T_s < 25^{\circ}\text{C}$ bo‘lganda benzin sarflanish vaqti τ_{benzin} qabul qilinib, $T_s \geq 25^{\circ}\text{C}$ bo‘lganda benzindan gaz yonilg‘isiga o‘tishini bildiradi, biz ushbu shartlarni matematik formula sifatida quyidagicha ifodalaymiz:

1. τ -ni harorat T_s ga bog‘liq holda quyidagicha aniqlaymiz:

$$\tau = \begin{cases} \tau_{benzin}, & \text{agar } T_s < 25^{\circ}\text{C} \\ \tau_{gaz}, & \text{agar } T_s \geq 25^{\circ}\text{C}. \end{cases} \quad (2)$$

2. τ -ni TVACH ga bog‘liq holda quyidagicha aniqlaymiz:

$$\tau = \begin{cases} \tau_{benzin}, & \text{agar } 7500 \text{ min}^{-1} < n < 4000 \text{ min}^{-1} \\ \tau_{gaz}, & \text{agar } 700 \text{ min}^{-1} < n \leq 750 \text{ min}^{-1} \end{cases} \quad (3)$$

